

R.M.Baxtiyorov

BOSHQARUV

PSIXOLOGIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT ShARQShUNOSLIK UNIVERSITETI

R.M.BAXTIYOROV

BOSHQARUV

PSIXOLOGIYASI

O'QUV QO'LLANMA

(barcha yo'nalishdagi talabalari uchun)

Toshkent-2023

Mazkur o‘quv qo’llanma bakalav bosqichi talabalari shu bilan birga soha mutaxasislari, o‘qituvchi, amaliyotchilar va shu sohada ilmiy tadqiqot olib boruvchilar uchun mo‘jallangan. Qo‘llanmada boshqaruv psixologiyasining umumiy asoslari keltirilgan bo‘lib, kurs mazmuni yaxlit boshqaruv psixologiyasi tushunchasiga asoslangan. Nashr boshqaruv psixologiyasi bilimlarining nazariy va amaliy jihatlarini o‘z ichiga oladi. Materialni yaxshiroq o’zlashtirish uchun har bir mavzudan so‘ng nazorat savollari va topshiriqlari berilgan.

Mas’ul muharrir:

Abdullayeva Sh.X. – psixologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

X.X.Jabborov - TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti PhD.

M.M.Bafayev – TDPU “Psixologiya” kafedrasi mudiri, dotsent, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ushbu o‘quv qo’llanma:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2023-yilning 10-oktabrdagi 252-UM-sonli buyrug‘iga asosan

ISBN

© Boshqaruv psixologiyasi. O‘quv qo’llanma. Baxtiyorov R.M.–T.: 2023.-138 b.

MUNDARIJA

KIRISH		
I	Ma`ruza yuzasidan o`quv ma'lumotlari	
	1-ma'ruza. Boshqaruv psixologiyasining predmeti, maqsadlari, asosiy tamoyillari va vazifalari.	7-17
	2-ma'ruza. Rahbarlik psixologiyasi. Boshqaruvda liderlik va rahbarlik uslublari	18-50
	3-ma'ruza. Boshqaruv texnologiyalari Boshqaruv muloqotining ilmiy-amaliy jahhalari	51-66
	4 -ma'ruza. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish	67-81
	5-ma'ruza. Boshqaruv faoliyatidagi nizolar va muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari.	82-95
	6-ma'ruza. Taym-menejment va stress-menejment.	96-120
II	Glossariy	121-130
III	ILOVALAR	132-135

Kirish

Ayni davrda ro'y berayotgan har qanday hodisa insoniyat tafakkurida o'z aksini topadi. Fan ham ijtimoiy ong shakli shamoyilida o'z zamonasiga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Shu munosabat bilan hozirgi zamon psixologiya fani o'z rivojlanishida keskin burilish yasayapti. muayyan davrgacha nazariy masalalarga asosiy e'tiborni qaratib kelgan psixologiya fani oldida qator amaliy vazifalarni hal etish zarurati tug'ildi. Bunday kechiktirib bo'lmas vazifalar, oxir oqibatda, insoniyat manfaatida, odamlarga qulayliklar yaratish yo'lidagi xayrli ishlarni amalgalashish bilan bog'liqdir.

XXI asr insoniyat tarixida fan – texnika revolyutsiyasi davri sifatida tanildi. Yigirma birinchi asrning boshlanishi esa ko'pchilikning ta'kidlashicha, informatsiya (axborot) davri deb, atalmoqda. Ma'lumot almashish nafaqat insoniy munosabatlar, balki ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning natijasiga ham bevosita ta'sir etadigan darr ostonasiga qadam qo'ydi. Hayot taqozosi bilan muloqotga oid soha iqtisodiyot rivojlanishiga eng kuchli ta'sir etuvchi omilga aylanib bormoqda. O'tgan asrda qayerda, qanday ixtiro yoki texnologiya joriy etilganligi eng katta shov-shuv uyg'otgan bo'lsa, hozirgi kunda qayerda, nima bo'lganligi va buni qay usulda yetkazish eng muhim jabhaga aylanib qoldi. Agar o'tgan asrda raqobat yangi mahsulotni ishlab chiqarishga asoslangan bo'lsa, endilikda yaratilishi kutilayotgan mahsulot haqidagi axborotga egalik ustida katta kurash borayapti.

Agar, o'tgan asrda hududlarni bosqinchilik orqali ishg'ol qilingan bo'lsa, bugunga kelib, axborot tarqatish va kerakli ma'lumotni qo'lga kiritish asosiy quronga aylandi. Bu holat nafaqat siyosiy maydonda yoki katta kompaniyalar misolidagi iqtisodiy sohada, balki, kishilarning kundalik turmushidagi xulqlari orqali ham ko'zga tashlanib turibdi. Televideniye orqali ko'plab kanallarni tomosha qilish imkoniyati, ma'lumotning dunyo uzra yashin tezligida tarqalishi, hatto, uyali aloqa va internetning ommaviylashib ketishi darr taqozosidir. Hozirga kelib, ma'lumot almashish sohasidagi, ayniqsa, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq fanlar yetakchi o'ringa chiqib oldi. Psixologiya ham kommunikatsiya jarayonini takomillashtiruvchi fan sifatida jadal sur'atda rivojlanib, odamlar orasida ma'lumot almashuv jarayonini takomillashtirishda o'z hissasini qo'shib kelyapti. Mana shunday ma'lumot almashinuvi ob'ektlaridan biri mehnat jamoalari bo'lib, tashkilotdagi mavjud turli bo'g'inlar o'rtasida kommunikatsiyalarni shakllantirish zamonaviy boshqaruv ilmining markaziy masalasidir.

Kitobxonlar e'tiboriga taqdim etilayotgan ushbu o'quv uslubiy majmuada ham boshqaruv faoliyati uchun zarur ma'lumotni ommaviylashtirish maqsadida yaraldi. Bundan tashqari, qo'llanma bilan tanishgan rahbarda tashkilot miqyosida ma'lumot almashinuvi, kommunikatsiyalar haqidagi tasavvur ham o'z nihoyasini topadi va ushbu omil xodimlarni maqsad sari yetaklashda qanchalik zurur ahamiyat kasb etishi haqida ma'lum xulosaga kelish mumkin. Bu ta'lim jarayonida esa tinglovchilarni bezovta etuvchi masalalarga javob izlanadi, tashkilotda yuzaga kelayotgan muammolarning psixologik yechimlari birgalikda tahlil qilinadi. Hududimiz miqyosidagi tashkilotlarni boshqarish xususiyatlari tahlil etilar ekan, ularning ko'pchiligida mavjud muammolar va ularning hal etilishi rahbar shaxsi xislatlariga, uning moddiy va ma'naviy resurslarni oqilona boshqara olish malakasiga kelib

taqaladi. Shu munosabat bilan qo'llanmada rahbar shaxsi, uning samarali boshqaruv jarayonini tashkil etishdagi aqliy, tashkiliy va hissiy-irodaviy jarayonlariga katta e'tibor qaratilgan.

Rahbarning butun boshqaruv tizimida yetakchi o'rin egallashi:

bir tomonidan, tashkilotdagi islohotlarni amalga oshirishda mas'uliyatni o'z bo'yning olish zarurati;

ikkinchidan esa itoatdagi xodimlarning rahbarga bo'lgan ishonch va umidlari bilan asoslanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, aynan ikkinchi omil yurtimiz hududida yashab, faoliyat ko'rsatuvchi insonlarda o'ziga xos xususiyatga ega, ya'ni hududimizdagi oddiy fuqaro boshqaruvchi shaxsida obro'li, o'ziga to'q va yetuk shaxsni ko'rishni istaydi. Sababi, oddiy xodimlar rahbarni har tomonlama yetuk inson sifatida ko'rishni istashadi. Tadqiqotchining fikricha, rahbar arzimas iqtisodiy muammolarni bemalol yecha olishi, katta ijtimoiy munosabatlarga mansub ekanligi bilan hamda o'z aqliy va tashkiliy qobiliyati bo'yicha boshqa xodimlardan ustun turishi lozim. Itoatdagi xodimlar idrokidagi bunday milliylik va hududiylikni boshqaruv amaliyotida hisobga olmaslik mumkin emas.

Ta'lif sohasidagi tajribamiz ko'rsatishicha, deyarli hamma rahbarlar o'z boshqaruv malakalarini rivojlantirish, boshqaruvga oid zamonaviy g'oya va yondoshuvlarni bilishga katta qiziqish uyg'otadilar. Shu bilan birga, birinchi mashg'ulotdanoq ko'pchilik «...xodimlarni qanday yo'l bilan samarali boshqarish mumkin?», «Qanday boshqaruv uslubidan foydalangan ma'qul?» kabi savollarga javob olishga intiladilar. Afsuski, har bir boshqaruv vaziyati o'ziga xos va betakrordir. Bir vaziyatda samara bergen uslub boshqa vaziyatda mutlaqo noo'rin bo'lishi mumkin. Shu sababli mashg'ulot davomida asosiy e'tibor rahbar shaxsini mukammallashtirishga, undagi intellektual va tashkiliy qobiliyatlarni rivojlantirish zarurligiga qaratiladi. Bunday faoliyat esa avvalambor rahbarning o'zo'zini yanada chuquroq o'rganishi, uning «ichki zahirasi»da nima bor-u nima yo'qligini «taftish» etishidan boshlanadi. Shu sababli, endilikda o'z samarasini berayotgan rahbarlik malakalarini shakllantirish interfaol uslublarining ahamiyati juda katta!

O'quv qo'llanma doirasida boshqaruvning psixologik jihatlariga oid fikrlar, boshqaruvning psixologik qonuniyatlarini va mexanizmlari bayon etiladi. Ushbu qonuniyatlar deyarli barcha jamoalar uchun umumiy bo'lib, hudud va milliylik nuqtai nazaridan esa turli xususiyatlarga egadir. Ammo, ushbu qo'llanma hajmi hududiy va milliy omillarni yetarli darajada qamrab olish imkonini bera olmadi. Shu sababli, qo'llanmada boshqaruv psixologiyasi fanida erishilgan yutuqlar va misollarga asosiy e'tibor qaratiladi hamda ularni mahalliy mehnat jamoalari faoliyatiga tatbiq etish yo'nalishlari belgilab o'tiladi. Boshqaruvga oid umumiy qonuniyatni yaxshi o'zlashtirgan rahbar mahalliy xalq xususiyatlari haqidagi tajribasiga asoslangan holda o'z boshqaruv malakasini mustaqil takomillashtirib borishi mumkin. Bundan tashqari, ayni payt respublikamiz psixologlari oldida boshqaruv sohasiga oid barcha masalalarni jamiyatimiz rivojlanishi nuqtai nazaridan o'rganish, tashkilotni yanada mukammal boshqarish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan.

Psixologiya fanining boshqaruv sohasiga tegishli yo'nalishida respublikamiz miqyosida qator ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda.

I. O'QUV NAZARIY MATERIALLAR

1.1. MA`RUZA MASHG`ULOTIGA OID MA'LUMOTLAR

1 - Mavzu: Boshqaruv psixologiyasi fanining predmeti, maqsadlari, asosiy tamoyillari va vazifalari.

Reja:

- 1) Boshqaruv psixologiyasi fanining ahamiyati hamda nazariy tarixiy asoslari
- 2) Boshqaruv psixologiyasi fanining vazifalari
- 3) Boshqaruv psixologiyasi fanining predmeti

Mavzu yuzasidan tanyach so‘zlar:

boshqaruv, boshqaruv psixologiyasi, rahbar, lider, boshqaruv usullari, boshqaruv nazariyasi,

Boshqaruv fanining nazariy-ilmiy asoslari (rivojlanish tarixi):

XIX asr oxiridan mehnat faoliyati bilan mashg’ul shaxslarni ongli tarzda ilmiy o’rganish boshlandi.

Korxonalar boshqaruvini tadqiq etgan mutaxassis V.A.Spirak boshqaruv nazariyalarining shakllanish boshqichini bir necha davrlarga ajratib organic chiqadi:

1. Ilmiy boshqaruv maktabi yoki mehnat jarayonini ilmiy jihatdan tashkil etish maktabi. Ushbu ta’limot AQShlik muxandis-tadqiqotchi F.U. Teylor sharafiga atab «teylorizm» ta’limoti deb nomlangan va bu yo’nalishda o’tkazilgan AQShdagagi tadqiqotlar 1885-1920 yillarga to’g’ri keladi. F.U.Teylor o’z davridagi malakasiz mehnatkashlardan samarali foydalanish uchun murakkab va tajriba talab etuvchi mehnat turlarini mayda operatsiya (qism)larga bo’lib chiqqan. Mehnat jarayonini mayda qismlarga ajratish oqibatida, 1902 yilda Rensom Olds tomonidan konveyer metodi ishlab chiqdi hamda avtomobilarni yig’ish zavodida joriy etdi. Yangi metodning avtomobil sanoatiga olib kirilishi oqibatida ishlab chiqarish yillik mahsulot 425 tadan 2500 donagacha o’sdi. Bu metodni Genri Ford yanada mukammallashtirib, avtomobil qimlarini yig’ishga ketadigan vaqtini 20 martagacha qisqartirdi va avval AQSh, keyinchalik butun dunyo avtomobil sanoatiga tarqaldi.

2. Ma’muriy boshqaruv maktabi. Ushbu yondoshuv fransuz olimi va muxandisi, ilmiy boshqarish nazariyasi, menejment fani asoschilaridan biri A. Fayol nomi bilan bevosita bog’liq bo’lib, 1920 - 1950 yillar oralig’ida olimga tegishli qarash (g’oya)lar boshqaruvda keng miqyosda joriy qilina boshlandi. A. Fayol alohida mehnat belgi(qism)larini emas, balki tashkilotga butun bir tuzilma sifatida yondoshadi va korxonani aql (ongli) boshqarish printsiplari, menejment vazifalari, menejment tizimlarini mukammallashtirgan tarzda mehnat unumdorligini oshirishga erishdi.

3. Insoniy munosabatlар maktabi 1924 yildan boshlab shakllana boshladi. Bu maktabning asosi va fundamental asoslari AQShlik psixolog Elton Meyoning «Xotorn tajribalari» bilan bog’liq*. «Western Electric» kompaniyasida o’tkazilgan tadqiqotlarda, kichik ishlab chiqarish korxonasi xodimlariga e’tibor qaratish,

xodimlarning manfaatlari haqida g'amxo'rlik qilish oqibatida mehnat samaradorligini o'sishi kuzatilgan. Bunday munosabat ishchilar tomonidan rag'batlantiruvchi omil sifatida qabul qilingan va ijobiy munosabatlarni shakllantirish asosida mehnat unumidorligi oshgan. 1950 yildan miqdoriy yondoshuv rivojiana boshladi. Bu yondoshuvning asosiy mohiyati guruh va tashkilotlarni boshqarishda matematik metodlardan, shuningdek, ish jarayonlarini tahlil etish, matematik modellarni ishlab chiqish metodlari qo'llanildi.

Tashkilot boshqaruvi tizimiga aynan mos model yaratib bo'lmasada, lekin matematik apparatni qo'llash natijasida boshqaruv jarayonini chuqur bilish va ayrim iqtisodiy natijalarini bashorat qila olish imkoniyati oshadi.

4. Boshqaruvga jarayon sifatida yondoshish ta'limotida esa tashkilot hayotiga murakkab va dinamik jihat sifatida qaraladi hamda boshqaruv uzviy bog'liq vazifalarni bajarishning uzluksiz jarayoni deb tushuniladi. Bunday vazifalar sifatida: rejalashtirish, tashkil etish, topshiriqlar berish (ma'muriy boshqaruv), motivlashtirish, rahbarlik, koordinatsiya, nazorat, tadqiqotlar, muloqot, baholash, qaror qabul qilish, personal tanlash, muzokaralar olib borish va vakolat berish kabilar sanab o'tiladi. Tizimli va vaziyatli yondoshuv orqali esa tashkilotda amalga oshayotgan jarayonlar, ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi hamma ishtirokchilar o'rtasida sababiy aloqa mavjudligi, tashqi muhit va vaziyat xodim xulqidagi hal etuvchi omil ekanligini tushunish imkoniyati paydo bo'ladi.

5. Ishlab chiqarish jarayonida insonga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi yana bir yondoshuv – **«inson kapitali» nazariyasi** bo'lib, bunga muvofiq korxonadagi ishchi kuchi kapital sifatida, masalan pul tarzida idrok etiladi. Ushbu nazariya doirasida personal boshqaruviga oid holatlar va tasdiqlar biznesmenga tushunarli bo'lgan iqtisodiy atama va kategoriyalarda bayon etiladi. Bu ta'limotga binoan, inson kapitali odatda pul birligida o'lchanadi.

Zamonaviy yondoshuvlardan biri - **inson resurslarini rivojlantirish kontseptsiyasi** bo'lib, bunda tashkilot manfaati yo'lida xodimning o'z tashabbusi bo'yicha samarali mehnat kilishi uchun yaratiladigan sharoitlar markaziy masala deb qaraladi. Tashkilot personalini rivojlantirish omili sifatida xodimlarning ehtiyojini aniqlash va qondirish, ularning kasbiy va shaxsiy kamolotga erishishi uchun shart-sharoit yaratish g'oyasi yotadi.

Aniqlangan ehtiyojlar majmuasiga har tomonlama ta'sir etish natijasida ishchining mehnatga ijobiy yondoshuvi va samarali mehnati ta'minlanadi. Keltirib o'tilgan asosiy boshqaruv kontseptsiyalari o'z davriga xos bo'lgan personal boshqaruv uslublarini ifodalaydi. Hatto ayni paytda ham turli tashkilot va rahbarlar sanab o'tilgan yondoshuv elementlarini o'z faoliyatida qo'llab keladilar.

Tashkilot rahbari mavjud iqtisodiy ahvol, qo'l ostidagi xodimlar xususiyatiga asoslangan holda turli yondoshuvlardan birontasiga urg'u berishi, tashkilot manfatidan kelib chiqib, u yoki bu yo'nalish modellarini jamoalar boshqaruviga tatbiq etishi mumkin. Ammo, ko'zlangan maqsadga tashkilotdagi personalning faol ishtiroki orqali erishmoqchi bo'lgan rahbar, iloji boricha o'z xodimlarida tashabbusga moyillik, ish natijasi uchun yuksak mas'uliyat uyg'ota olishi lozim. Aynan shu maqsadni ko'zlagan rahbar iloji boricha inson resurslari deb nomlanuvchi yondoshuvga asoslanishi o'rinnlidir.

Zamonaviy psixologiya ham iloji boricha insonni aynan shu nuqtai-nazarda

tushunishga va shaxs kamolotini uning ichki zahiralarini uyg'otish orqali erishishga intiladi.

Psixologiyaning boshqaruvda tutgan o'rni: Boshqaruv haqida umumiylar tushuncha. Fanda boshqaruv tushunchasi tizimning o'z hayot faoliyatini ta'minlash jarayoni sifatida tushuniladi. Bunday tizimlar qatoriga biologik, texnik, ijtimoiy tuzilmalar kiradi. Boshqaruv tuzilma sifatida: boshqaruvchi va boshqariluvchi bo'laklarga ajratiladi.

Boshqaruv o'z tasarrufidagi boshqariluvchi bo'lakka muntazam, rejali va maqsadga yo'nalgan tarzdagi ta'sir kuchiga ega. Bunday o'zaro faoliyat tizimning ishchanlik qobiliyatini ta'minlaydi. Boshqaruvdagi tadqiqotlar, kibernetika fani yuzaga kelishi tufayli jadal sur'atlar bilan rivojlanib, murakkab tuzilmani boshqarishning ilmiy asoslangan tavsiyalari amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Boshqaruv bilimlari ko'p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomondan, tuzilmaning yaxlitligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi. Shu o'rinda boshqaruvning ikki asosiy vazifasi farqlanadi: maqsadga yo'naltiruvchi va tashkiliy vazifalar.

Maqsadga yo'naltiruvchi vazifa tuzilmani yanada mukammallashtirish maqsadiga yo'naltiradi. Tashkiliy vazifa esa tuzilmaning maqsadga erishishdagi ichki tartibi va uning turli qismlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlaydi.

Yuqoridagi asosiy ikki boshqaruv vazifasi qator vazifalar orqali amalga oshadi. Masalan, maqsadga yo'naltiruvchi vazifani ado etishda faoliyat tarkibiga:

- natijani prognozlash;
- maqsad sari faoliyatni rejalash;
- amalga oshirish motivatsiyalari kiradi.

Maqsadga yo'nalgan faoliyatni amalga oshirish esa tashkiliy vazifalar orqali ta'minlanadi. Bu sohadagi asosiy vazifalardan biri faoliyatni nazorat etish va kuchlarni safarbar etishdir. Umuman olganda nazoratni amalga oshirish boshqaruvning ikkala vazifasi uchun ham umumiy bo'lgan universal xususiyat bo'lib, u boshqaruvning har qanday jarayonida doimiy qayta aloqani ta'minlab turadi. Boshqaruv fanidagi asosiy tushunchalardan biri qayta aloqa tushunchasi bo'lib, bu ibora tuzilmaning o'z maqsadi sari intilishi qay yo'sinda ketayotgani va qanday jihatlarni o'zgartirish, yanada mukammallashtirish haqida ma'lumot olishni anglatadi.

Yuqorida qayd etilgan boshqaruvning ikki asosiy vazifasini alohida talqin etish juda shartli bo'lib, aslida ular ajralmas va yagona jarayonlardir. Rahbarlik boshqaruv faoliyati sifatida. Har qanday boshqaruv ushbu jarayonning mukammal tarzda idora etish ehtiyojini sezadi. Shu maqsadda, tuzilma mas'ul boshqaruvchiga ega bo'lishi lozim. Tashkilotni tuzilma sifatida qabul qilarkanmiz, uning rahbari boshqaruvning aynan ikki asosiy vazifasini ta'minlovchi shaxs sifatida tushuniladi. Tashkilot miqyosida tahlil qilinganda yuqorida qayd etilgan asosiy vazifalar quyidagicha ifoda etiladi:

Maqsadga yo'naltiruvchi vazifa - tashkilotni ma'lum maqsadga olib boruvchi vazifalarni mujassamlashtiradi. Tashkiliy vazifa - tashkilot turli bo'limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Rahbar ado etishi zarur bo'lgan asosiy vazifa va vazifalar tasviriy ravishda quyidagicha ifodalangan

Boshqaruv vazifalari va uning tarkibiy qismlari:

Rejalashtirish vazifasi: Natija kanday bo'lishi haqidagi tasavvur, unga erishish bosqichlari va uslublar. Asosiy tamoyili - boshqaruvchi va boshqariluvchi sub'ektlarni muvofiqlashtirish.

Nazorat etish vazifasi: Tashkilot faoliyati, uning faoliyatini ta'minlovchi mablag' va rusurslar haqidagi ma'lumotlarni saqlash, boshqaruvning ta'sirchanligi haqidagi axborotlarga ega bo'lish. Nazoratning asosi – hisob-kitobdir hamda nazorat jarayonidagi real faoliyatni rejaga solishtirib borishdan iboratdir.

Siyosiy-huquqiy vazifa: Tashkilot xodimlarining jamiyatda qabul qilingan qonun va huquqlar doirasida faoliyat yuritishlarini nazorat etadi va ta'minlaydi.

Ijtimoiy vazifa: Ijtimoiy hodisalar (turli kasb faoliyati va ularga haq to'lash tafovutlari, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy himoyaga muhtoj xodimlarning mavjudligi.

Rag'batlantirish vazifasi: Ijro harakatlari me'yorda o'tishini ta'minlashdan iborat bo'lib, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish vositalarini o'z ichiga oladi. Boshqaruv maqsadi va vazifalari boshqaruv munosabatlarini keltirib chiqaradi va Boshqaruv psixologiyasi aynan shu munosabatlar tarkibini o'rganadi.

Boshqaruv psixologiyasining maqsadi - tashkiliy tizimlarning samaradorligi va hayot sifatini oshirish yo'llarini ishlab chiqish.

Hozirgi davrda boshqaruvning psixologik talqini. Boshqaruv psixologiyasi odamlar va odamlar guruhlarini boshqarish jarayonining psixologik qonuniyatlarini o'rganadi. Boshqaruv sohasida rahbarlik kengroq - ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarni tartibga solish va muvofiqlashtirish faoliyati sifatida tushuniladi. So`nggi yillarda inson omiliga e'tiborning ortib borishi va ilm-fanning rivojlanish munosabati bilan boshqaruv psixologiyasi masalasiga xam qiziqish kuchaydi. Shu sababli psixologiyaning maxsus bo`limi - boshqaruv psixologiyasi paydo bo`ldi. Boshqaruv psixologiyasi psixologiyaning bir tarmog'i bo'lib, u o`z navbatida boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo`lgan muammolarni shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o`rganadi.

Boshqaruv muammolari psixologiyadan tashqari, yana boshqa fanlar tomonidan ham o`rganiladi. Bular tarix, iqtisod, falsafa, huquqshunoslik va boshqa fanlar. Bu fanlarni o`ziga xos tomonidan o`rgansa, psixologiya esa sof psixologik tamondan o`rganadi.

Boshqaruv ilmi quyidagi ko`rinishlarga bo`linadi.

1. Boshqaruv nazariyasi
2. Boshqaruvni tahlil qilish
3. Boshqaruv uslublari to`g`risidagi bilim
4. Boshqaruv to`g`risidagi bilim

Boshqaruv psixologiyasining predmeti: Boshqaruv psixologiyasining predmeti jamoalarga rahbarlik qiluvchi mansabdor shaxslarning faoliyati, boshqaruv psixologiyasi esa murakkab bilimlar tizimidir. Asosiy boshqaruv vazifalarini bajarishda amalga oshiradigan rahbarlar (menejerlar) faoliyati, bu boshqaruv psixologiyasining predmetidir. Boshqaruv psixologiyasining predmeti ijtimoiy yoki mehnat jamoalariga rahbarlik qiluvchi mansabdor shaxslarning faoliyati,

boshqaruv psixologiyasi esa murakkab bilimlar tizimidir. Boshqaruv psixologiyasi boshqaruv maqsadi va vazifalarni amalga oshirish davomida boshqaruv jarayoni sub'ekti va ob'ekti o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro munosabatni talqin etadi. Bu munosabatlar tizimining tashkiliy qismlari o'zaro itoatdaligi bilan xarakterlanadi. Ma'lum bir boshqaruv tizimi ichida amal qiluvchi itoat tamoyili boshqaruv fanida **subordinatsiya** (lotinchadan subordinatio — bo'ysunish) deyiladi. **Subordinatsiya** iborasi orqali tizimning markazlashganligi nazarda tutiladi. Subordinatsiyadan kelib chiquvchi munosabatlar tashkilot xodimlari xulqida itoat va ijro etish shakllarini nazarda tutadi. Subordinasiyaning ma'nosi — mehnat jamoasi, tashkilot, muassasa ichidagi turli darajadagi xodimlar o'rtasida munosabatlarning belgilangan qoidalariga rioya qilish demakdir.

Subordinasiya boshliq va bo'ysunuvchi o'rtasidagi hurmatga asoslangan munosabatlarni, boshliq tomonidan xodimlarga buyruqlar, buyruqlar berishning maxsus tartibini, shuningdek ularni bajarish natijalari to'g'risida bo'ysunuvchilarga hisobot berish tartibini ta'minlaydi. Bundan tashqari, subordinasiya qoidalari yuqori turuvchining harakatlari ustidan shikoyat qilishning maxsus me'yorlari (tartib-qoidalari)ni tartibga soladi. **Subordinatsiya - bu** nafaqat raxbar va xodim, balki katta va kichik xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ham tartibga soluvchi tizim, ya'ni egallab turgan lavozimni anglatadi.

Ammo, boshqaruv tajribasi nafaqat boshqaruvchilar va itoatdagi xodimlarning o'zaro munosabatini, balki ma'lum bir darajada turuvchi va toifasi jihatidan teng bo'lgan tashkilot a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni ham o'rganadi.

Boshqaruv tizimining ushbu qismlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zaro moslashtirish, ular o'rtasidagi hamjihatlik shakllarini yanada yuqori darajaga ko'tarish koordinatsiya (Ish, faoliyat va h.k. ni bir-biriga muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish.) jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv jarayonidagi rahbar xodim munosabatlarida subordinatsiya va koordinatsiya munosabatlari tashkilot miqyosidagi vertikal va gorizontal munosabatlarni farqlash ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Demak, vertikal munosabatlar o'zaro itoatdagi xodimlar o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlardan iborat bo'lsa, gorizontal muloqotlar o'zaro koordinatsiyani, ya'ni tizimning teng va mustaqil qismlari o'rtasidagi munosabatlarni nazarda tutadi. Bundan tashqari, boshqaruv munosabatlari o'zining rasmiy va norasmiy ko'rinishiga ham ega.

Rasmiy munosabatlar xizmat majburiyatlariga asoslanadi, norasmiy munosabatlar esa tashkilot miqyosida xizmat qiluvchi xodimlar o'rtasidagi ixtiyorilik va o'zaro xohishga tayanadi. Shu munosabat bilan, boshqaruv psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri yuqorida ta'kidlangan munosabatlarni yanada mukammallashtirishdan iboratdir. Boshqaruv psixologiyasining boshqa turkum vazifalari boshqaruv metodlarini shakllantirish bo'lib, ushbu tadbir tashkilotning samarali faoliyatini ta'minlash maqsadidagi ta'sir etish imkoniyatlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tashkilot personaliga ta'sir etish uslublarini uch guruhga bo'lamiz:

- 1) ma'muriy ta'sir
- 2) moddiy ta'sir
- 3) ma'naviy shakllarda ta'sir etish.

Bu uslublarning har birida ma'lum o'ziga xos psixologik mazmun shakllanadi va boshqaruv psixologiyasi fan sifatida bu ta'sirlarning xodimga ta'sirchanlik imkoniyatini tadqiq etadi.

Yuqoridagi kabi ta'sir etish choralarini orasida xodimlarni bajaradigan mehnatga ishtiyoq uyg'otish (motivatsiya berish) masalasiga ko'p ahamiyat beriladi. Boshqaruv ob'ektiga ta'sir etuvchi quyidagi uslublaridan iborat:

1. Bevosita

2. Bilvosita ta'sir turlari mavjud.

Boshqaruv psixologiyasida **ob'ekt** bu boshqariladigan tizim, **sub'ekt** esa boshqaruvchidir.

Boshqaruv psixologiyasidagi asosiy tushunchalardan biri, boshqaruv sub'ekti va ob'ekti masalasi sanaladi.

Bevosita boshqaruv jarayonini ko'z oldimizga keltirsak, boshqaruv **sub'ekti deb rahbarni, ob'ekt sifatida esa xodimni** va **mehnat jamoasini** tasavvur etishimiz mumkin. Ammo, rahbar o'z faoliyatini tashkil etishi va o'z-o'zini boshqarishi uni nafaqat boshqaruvning sub'ekti, balki ob'ekt sifatida ham tushunish zaruratini qo'yadi.

Rahbarning kasbiy mukammallashuvi, o'z-o'zini boshqarish malakalarini egallashi, tashkilot va xodimlar boshqaruvidagi asosiy mavzulardan biriga aylanadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, boshqaruv psixologiyasining predmeti sifatida, boshqaruv jarayonidagi **inson faoliyati** tushuniladi.

Hozirgi davrda boshqaruvning psixologik talqini, uning mohiyati va mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa boshqaruv psixologiyasining mexanizmlarini tadqiqot qilish muammolari, uning nazariy asoslari, yetakchi vazifalari o'zaro aloqadorligi, o'zaro munosabatlarning ob'ektivligi va sub'ektivligi hamkorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Agarda mazkur jarayonda "uyg'unlik hukm sursa, jamoa yoki muayyan tizimda o'zaro tushunu, barqarorlik, mahsuldarlik ro'yobga chiqadi. Bu ijtimoiy-psixologik hodisalar, holatlar, vaziyatlar, muammolar yechimi ko'p jihatdan boshqaruv psixologiyasi materiallariga, uning ijtimoiy-amaliy tizimiga, tadrijiylikka bevosita bog'liq. Huddi shu boisdan mazkur fan sohasini o'rganish davr talabi, sivilizatsiya taqozasi, jamiyat taraqqiyoti, ravnaqining zaruriyatidir.

Boshqaruv psixologiyasi asoslarini puxta egallash orqaligina har bir insonda yuksak his-tuyg'ular, mehnatga ijobiy munosabat, ijtimoiy faollik, komfort hislarini shakllantirish mumkin. O'zini-o'zi anglash milliy ong kabi yuksak tuyg'ularni qaror toptirish orqali mehnatsevar, vatanparvar kishilarni shakllantirish joiz. Bozor iqtisodiyotining birmuncha murakkab mexanizmlari qay yo'sinda ishlashini tushunib yetish, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olish uchun nimalar qilish kerakligini anglash, unga to'g'ri yo'l topa bilish mumkindir.

Hozirgi ijtimoiy muhitda shaxslararo munosabatlar silsilasida "birdamlik ruhi" va "mushtaraklik tuyg'usi" singari hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishning samarali usullari va uslublari psixologiya fanida ishlab chiqilgan. Huddi shu nuqtai nazarga binoan ijrochi, amalga oshiruvchi inson fikrlashga ojiz robot emas, balki individual maqsad va manfaatlarga erishish yo'lida o'zining muayyan ijtimoiy ehtiyojlari

majmuasiga ega bo'lgan o'ziga xos shaxs sub'ektidir, degan ta'rifni berish bilan birga u ziddiyatli zot ekanligiga asoslanib menejerga (boshqaruvchiga) jiddiy e'tibor qaratishni hamda uning jamoadagi faoliyati darajasiga asoslanib jamoaning unga nisbatan munosabatini shakllantirish va aksincha holatlarni o'rganishga e'tibor ortayotganligini ta'kidlash maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda boshqaruv (boshqaruv) to'g'risida quyidagi umumiyat tomonidan qabul qilingan fikrlar mavjud bo'lib, quyida uning shakliy ifodasi berilgan.

Boshqaruv psixologik asoslari fanini o'qitishning maqsadi - psixolog, sotsiolog talabalarda boshqarishning o'ziga xos murakkab muammolarini bilishga nisbatan intilishni kuchaytirish, ularda amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq uyg'otishga qaratilgandir.

Hozirgi davr talabalasi ertangi kunda boshqaruv tizimining hodimi, kichik, o'rtta va katta jamoalar rahbari, korxona yoki firma faoliyatining turli tomonlarini boshqarish bo'yicha loyiham, tadbirlar ishlab chiquvchi yuksak saviyali mutaxassis bo'lib yetishadi.

Buning uchun boshqaruv psixologiyasining amaliy ko'nikmalari bilan qurollanish mutlaqo shart.

Aynan, biz yuqorida bayon qilingan holatlar boshqaruv nazariyasini asoslarini tashkil etuvchi umumiy tushunchalar majmuasidir. Jahon psixologiyasi fanida xalq xo'jaligi tarmoqlarini tashkil qilish va ularni boshqarish jarayonida "inson-texnika" tizimidan tashqari "inson-inson" ("inson-tabiat", "inson-obraz" singari yondashish bundan istisno) munosabatlari muhim ahamiyat kasb etishi, uning tahlili ko'p jihatdan sotsial psixologiyaning empirik ma'lumotlariga asoslanishi muayyan darajada yoritilgan.

Amaliy, tatbiqiy xususiyatlari ma'lumotlar menejer shaxsiyatining gultojisidir.

Ishlab chiqarish jamoalari va moddiy mahsulot yaratmaydigan muassasalarining hodimlarini sotsial psixologik jihatdan idora qilishning jabhalarini tadqiqot qilishda mazkur fanning metodologiyasi va xalq xo'jaligini boshqarishning umumiy qonuniyatlariga asoslangan holda faoliyatni uyshtirish, omilkorona yo'lga qo'yish yuksak samaralar beradi. Psixologiya faniga "boshqaruv" tushunchasi davlat, jamiyat, jamoat, ishlab chiqarish va texnikani boshqarish tizimidan, ya'ni kibernetikadan kirib kelgan bo'lib u hozirgi davrda insonning xulqi, xususiyatlari, ruhiy holatlari bilishning jarayonlari, ommaviy, jamoaviy va ruhiy harakatlarni boshqarish ma'nosini bildiradi.

U hozirgi davrga kelib: "inson-inson", "inson-jamoa", "jamoa-inson", "jamoa-jamoa" munosabatlarining boshqaruv imkoniyatlarini tekshirishni taqozo qiluvchi istiqbolli, mustaqil, maxsus sohalarga o'z predmeti ko'laminu yanada kengaytiradi. Natijada boshqaruv yangi qonuniyatlar, mexanizmlari, omillari, ijtimoiy manbalari. shaxslararo munosabat uslublari, yakka shaxsning ijtimoiylashuvi xossalari, menejer va tobe kishilar yoki hodimlar o'zaro muomalasining maromi, tekshirishning o'ziga xosligi, uslubiyatning takomillashuvi, nizoli va ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqilona yechimini topish, mazkur jarayonda iliq, psixologik muhitning roli, uning ob'ektiv va sub'ektiv ahamiyati, mahsulot samaradorligini oshirishning imkoniyatlariga doir empirik va nazariy metodologik materiallarni toplash uchun qulay shart-sharoit yuzaga keladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, boshqaruv psixologiyasi xo'jalikni yoki

muassasani boshqaruvning ijtimoiy-tarixiy printsip (tamoyil) lariga va qonun (qonuniyat) lariga bevosita asoslanadi. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Demokratik detsentralizm (mahalliy boshqaruva ustuvorligi);
2. Boshqaruvda yakkaboshchilik;
3. Siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy rahbarlikda (ma'muriyatda) xo'jalik yuritishning birligi;
4. Xo'jalik yuritish hisobining oqilligi;
5. Boshqaruvning rejalligi;
6. Ommanning boshqaruv jarayonida faol qatnashuvi;
7. Hamkorlik faoliyatining ishtirokchilarini ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirish;
8. Kadrlarni tayyorlash, tanlash va joylashtirish jarayonida psixodiagnostika tizimiga asoslanish.

Boshqaruv psixologiyasining predmeti ta'rifi bo'yicha bir qancha shakldagi mulohazalar mavjud bo'lsa-da, lekin ularning birontasi ham uning tub ma'nodagi xususiyati va mohiyatini ochish imkoniyatiga ega emas. XX asrning 60-70 yillarda berilgan ta'riflar xilma-xil bo'lib, ular sohaning yo'nalishi mazmunini chuqurroq yoritilishiga qaratilgandir. Ushbu fikrimixni dalillash maqsadida ayrim ma'lumotlarga murojaat qilamiz va ularni tahlil etishga (sharhlashga) intilamiz.

Jumladan, birinchi ta'rif: "Boshqaruv psixologiyasining predmeti - rahbar (menejer) kadrlar va ijrochilarning psixologik xususiyatlari, yaxlit tizimdag'i hamkorlik faoliyatida ularning o'zaro aloqasini o'rganishdir". Uning navbatdagi (ikkinci ta'rif): "Boshqaruv psixologiyasining predmeti - guruh va ommanning psixologik xususiyatlari, ularning shaxs ongiga va xulqiga ta'sirini tekshirishdan iboratdir". Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, ularning hech biri boshqaruvning psixologik mohiyati va uning tadqiqot ko'lamin ochish, talqin qilish qudratiga ega emas, huddi shu boisdan bunday ijtimoiy psixologik holat o'z navbatida ilmiy izlanish va tekshirish ko'lamin keskin toraytirishga olib keladi, oqibat natijada sohaning mavqeい, uning xalq xo'jaligidagi roli yanada pasayadi.

Hamkorlik faoliyatining mazmuni, uning bosqichlari (fazalari, shakllari), shaxslararo munosabatlarning o'zaro ta'sir xususiyatlari, insonda ijtimoiylashuvning tezlashuvi, ongning rivojlanish bosqichlari, "inson-texnika" tizimi bilan bog'liq, bir talay muammolar tadqiqot predmetidan chetda qolib ketish xavfi tug'iladi. Yuqorida fikrlarni to'laroq xaspo'shslash, izohli talqin qilish maqsadida ayrim ma'lumotlardan namunalar keltiramiz va ularni tahlil qilishga intilamiz:

- o'zaro hamkorlik faoliyatida shaxsiyatga oidlilik muammozi;
- shaxs va guruhning (rahbar va tobe kishilarning) motivatsion, emotsional jabhasi;
- shaxs va jamoaning bilishga oid (kognitiv) munosabatlari;
- shaxs va jamoaning nazorat qilish (regulyativ) jabhasi va uning o'ziga xosligi;
- menejer faoliyatining o'ziga xos psixologik xususiyatlari;
- menejerning tarbiya sub'ekti, ya'ni sub'ektiv ta'sir o'tkazish omili ekanligi;
- menejerning siyosiy faoliyatning egasi ekanligi;
- menejerning statusi, roli huquqi, uning vazifasi, imtivozi, ta'sir etuvchi vositalari;
- menejerning boshqaruv uslubi va ularning turlari bo'yicha tasnifi;
- hamkorlik faoliyatida kommunikatsiya, uning turlari va shakllari;

- rahbar ehtiyojini qoniqish darajalari va mezonlari;
- shaxslararo munosabat turlari va ularning psixologik tavsifi;
- jamoatchilik fikri va jamoaviy kechinmalarining o'zaro munosabati;
- shaxslararo munosabatlar iyerarxiyasi ("men", "sen", "u", "biz", "siz", "ular");
- o'zini-o'zi hurmat qilish - mavaffaqiyat - talabgarlik; - psixologik muhit, o'zaro moslik-jipslik;
- boshqaruv faoliyatining vazifalar tahlili;
- boshqaruv faoliyatining tuzilishi va tarkibining o'zaro munosabati, uyg'unligi;
- boshqaruv faoliyatining muhandislik va psixologik jabhalari;
- menejer psixikasiga va shaxsiga lavozim taqozo etuvchi talablar;
- ijrochilarning psixologik xususiyatlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar;
- rasmiy muloqotning psixologik muammolari;
- "rahbar-ijrochilar" muloqotining (muomalasining) psixologik jabhalari;
- sotsial-psixologik holatlarni boshqarishning vositalari va metodlari;
- nizoli (ziddiyatli) vaziyatlar, ularning oldini olish va bartaraf g'ilish usullari;
- nizo - nizoli vaziyat - bmojaro o'rtasidagi uzviy ijtimoiy-psixologik bog'liqlik;
- menejer shaxsining sotsial-psixologik xususiyatlari;
- menejer qobiliyatlarining tavsifi va ularning o'zaro uyg'unligi kabilari.

Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarga asoslangan holda boshqaruv psixologiyasining predmetini aniqlash mumkin. Bizningcha, unga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq: "Hamkorlik favoliyatida shaxsning xulqiga va ongiga guruhiy (ommaviy) ta'sir o'tkazishning psixologik xususiyatlarini, menejer bilan ijrochi o'rtasidagi muomala maromini tekshirish, shaxslararo munosabatlar bosqichlari (shakllari) hamda emotsiyal holatlarini tadqiq etish, rahbarning psixologik muhitini ta'minlash bilan bog'liq faoliyat uslubi va uning mexanizmlarini tadqiq qilish boshqaruv psixologiyasining predmetidir". Bundan tashqari mazkur psixologiya sohasining predmeti tarkibiga amaliy va nazariy ko'nikmalarni egallash xususiyatlari, idora qilishning qonuniyatları, jamoadagi psixologik moslik, jipslikni ta'minlovchi omillar va mexanizmlarni o'rganish singari bir qator muammolarni kiritsa bo'ladi. Shu boisdan boshqaruv psixologiyasi predmetini cheklash, uning birlamchi va ikkilamchi atamalari asosiy va yordamchi, bevosita va bilvosita yo'llari hamda vositalari yuzasidan mulohaza yuritish rejalashtirilgan g'oya yoki maqsadni amalga oshirish jarayonga sun'iy to'siq vujudga keltiradi.

Boshqaruv psixologiyasi umumiy psixologiya fanining boshqa sohalari bilan uzviy bog'liqlikda o'zi to'plagan ma'lumotlarini chuqur va atroflicha ilmiy jihatdan oqilona, omilkorlik bilan tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Umumiy psixologiya, sotsial psixologiya, mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, yosh psixologiyasi, kichik guruh psixologiyasi, muomala psixologiyasi singari sohalar bilan jips aloqa qilgan holda psixologik holatlar, munosabatlar, ommaviy harakatlar, shaxsga ta'sir o'tkazish bo'yicha o'zini-o'zi, guruhn ni va jamoani boshqarish, unda psixologik iliq muhitni ta'minlash, hamkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, shaxslararo munosabatlarning yuksak darajasini vujudga keltirish, nizoli, ziddiyatli, modaroli ijtimoiy vaziyatlarning oldini olish imkoniyati tug'iladi.

Ana shu sababdan boshqaruv psixologiyasi uchun umumiy psixologiya sohasida erishilgan yutuqlar, to'plangan nazariy va amaliy ma'lumotlar, fiziologik va psixofiziologik mexanizmlar, qonuniyatlar hamda o'zgarishni vujudga keltiruvchi,

harakatlantiruvchi kuchlar, ijtimoiy-tarixiy omillar, murakkab ichki va tashqi bog'lanishlar, takomillashish bosqichlari (yo'llari, vositalari, shakllari, betakrorligi, o'ziga xosligi), shaxsning ontogenetik xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi manbalar, sabablar, hamkorlikning tarkibiy qismlari to'g'risidagi ilmiy, amaliy axborotlar majmuasi muhim ahamiyat kast etadi. Shuning bilan birga insonning ichki reguliyativ vazifalari (motiv, motivatsiya, his-tuyg'u, murakkab kechinmalar, anglashilgan holatlar), bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tasavver, hotira, tafakkur, hayol, ijodiyot, intellekt), ongning takomillashuvi, shaxslararo munosabatning manbalari (diqqat, nutq), shaxsning individual-topologik, ya'ni biologik shartlashgan xususiyatlari, kamolot bosqichlari va ularga ta'sir etuvchi irsiy belgilar, ijtimoiy muhit, ichki ruhiy zahira va imkoniyatni ruyobga chiqarish, ijtimoiy faollik hamda mustaqillik muammolariga, asoslariga, ma'lumotlarga suyanish o'z navbatida boshqaruvni maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlaydi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Boshqaruv psixologiyasi psixologiya fanining qanday sohasi.
2. Boshqaruv psixologiyasi faning predmeti
3. Boshqaruv psixologiyasi faning maqsadi
4. Boshqaruv psixologiyasi faning vazifalari
5. Boshqaruv psixologiyasi faning ob'ekti
6. Boshqaruv psixologiyasi faning pshakllanish tarixi

Mustaqil ish va referat uchun mavzular.

1. Boshqaruv psixologiyasi psixologiya fanining qanday sohasi ekanligin asoslab bering.
2. Boshqaruv psixologiyasi faning predmeti nimala tashkil etadi
3. Boshqaruv psixologiyasi faning maqsadi ilmiy asoslab bering
4. Boshqaruv psixologiyasi faning vazifalarinei sanab bering
5. Boshqaruv psixologiyasi fanin gob'ekti nimalar tashkil etadi
6. Boshqaruv psixologiyasi faning shakllanish tarixi haqida nimalrni bilasiz
7. Boshqaruvchi shaxsini yoriting
8. Rahbar va liderning farqlari
9. Rahbar va liderlikni o'rganuvchi nazariyalar
10. Boshqaruv psixologiyasi faniga nega ehtiyoj sezildi?

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati.

1. Махмудов И.И. Башкарув психологияси: Ўкув қўлланма/Масъул мухаррир: А.Холбеков.-Т.:ДЖКД “Рахбар” маркази, “YUNAKS-PRINT” MChJ, 2006.
2. Боймуродов Н.Рахбар психологияси. Олий таълим, халк таълими соғлиқни сақлаш, ўрта маҳсус касб-хунар таълими бошқармаларининг маъмурий ходимлари учун қўлланма,- Т.: “Янги аср авлоди”, 2007.
3. Nazarov A. Boshqaruv psixologiyasi.T. 2021.
4. Jabborov X. Rahbar ma'naviyati.T. 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. - T.: O'zbekiston, 2016. -56 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 108 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
5. Берестова Л.И. Социално-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя. М.. 1994.
6. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. Oliy ta'lim, xalq ta'limi sog'lijni saqlash, o'rta maxsus kasb-xunar ta'limi boshqarmalarining ma'muriy xodimlari uchun qo'llanma.- T.: "Yangi asr avlod'i", 2007.
7. Мескон М.Х., Алберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. М., 1992.
- Петрунин Ю.Ю. Борисов В.К. Этика бизнеса: Учеб, пособие. М.. 2000.
8. Психология менеджмента / Под ред. проф. Н.С. Никифорова. СПб.. 1997.
9. Секач М.Ф. Психологическая устойчивость руководителя. М.. 1997.
- Сиягин К). В. Руководител организатсии и его команда (теоретиче-ская модел). М., 1996.
10. Станкин М. Психология делового человека: Самоучител. М., 2003. Стил человека: психологический анализ / Под ред. А. Либина. М

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.psychology.uz
5. www.nutq.intal.uz
6. www.psychology.net.ru
7. www.gleforg Djordj Lukasning Ta'limning fondi
8. www.newhorizons.org Ta'limning Yangi ufqlari
9. www.rhecherswithoutborders.org Chegarasizo'qituvchilar
10. www.thelearningweb.net Ta'lim tarmog'i
11. www.inetlibrary.com Internet kutubxona

2 - MA'RUZA.

RAXBARLIK PSIXOLOGIYASI.

BOSHQARUVDA LIDERLIK VA RAHBARLIK USLUBLARI

REJA:

1. Rahbar shaxsi
2. Boshqaruv uslubi
3. Liderlik va boshqaruv
4. Rahbarlik muloqoti va uning bosqichlari

MAVZU YUZASIDAN TANYACH SO'ZLAR:

Rahbar shaxsi, boshqaruv uslubi, liderlik va boshqaruv, rahbarlik muloqoti va uning bosqichlari, boshqaruv qarorlarni qabul qilish, muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari, rahbar va oila

Rahbar shaxsi

Rahbar shaxsi haqida fikr yuritilganda, avvalo rahbar so'zining mazmuniga, uning faoliyatiga, vazifalari haqida qizqacha to'xtalib o'tish kerak bo'ladi. Sababi hozirgi paytda jamiyatda barcha sohalarda rahbarlik faoliyati bilan mashg'ul insonlarni uchratamiz va ular o'z ulubi, faoliyat ko'lami bilan bir-biridan farq qiladi. Rahbar avvalo shaxs sifatida, shuningdek, o'z kasbi taqozosi bilan o'z xodimlari, o'rinnbosarlari bilan muloqot jarayonida turli insonlar bilan muloqot qiladi. **Rahbar** - o'ziga berilgan vakolat doirasida odamlar uchun ishni belgilaydigan kishi. Rahbarning asosiy vazifalari:

Rejalashtirish - maqsadlarni belgilash va ularga erishishning eng yaxshi yo'llarini topish jarayoni. Ushbu jarayonning natijasi aniq va real harakatlar rejasidir.

Eng yaxshi mutaxassislar ko'pincha rahbar sifatida tayinlanadi: eng yaxshi sotuvchi savdo bo'limi boshlig'i, eng yaxshi shifokor bo'lim boshlig'i, eng yaxshi dasturchi esa jamoa rahbari bo'ladi. Bu, qoida tariqasida, to'g'ri - rahbar o'z qo'l ostidagilar nima qilayotganini tushunishi kerak, shunda u jamoaning obro'siga ega bo'lishi va uning ishini yanada samarali nazorat qilishi mumkin. Ammo bu erda aniq muammo paydo bo'ladi: u qanday boshqarishni bilmaydi. Buning uchun jamoaning ishlashiga aralashish emas, balki yordam berishni psixologik tomonidan tushunishi, o'rganishi muhim.

Shaxs tushunchasi psixologiya fanida alohida o'rinni egallaydi va asosiy psixologik talqinlar shaxs mavzusi atrofida amalga oshadi. Shaxsning turli ta'riflari mavjud, lekin bu tushunchani to'laroq aks ettiradigan quyidagi o'rinli: «**Shaxs** bu - o'zining bilimi, hissiyoti va munosabatlari orqali tashqi olamni o'zgartira oluvchi sub'ekt, insondir»

E'tibor berilsa, ushbu ta'rifda shaxsga xos uchta jihatlar sanab o'tiladi:

- 1. Bilish;**
- 2. Hissiyot;**
- 3. Munosabat.**

Shu uch guruhga kiruvchi xislatlar yagona maqsadga, ya'ni tashqi olamni insonning o'z ehtiyojiga binoan o'zgartirishga qaratilgan. Ishlab chiqarish sharoitida inson hulqini tushunish va uni boshqarish uchun shaxs tabiat haqida ma'lum bir ma'lumotga ega bo'lish kerak. Tashkilotda shaxs o'zgalar bilan munosabatga kirishar ekan, demak, u turli ijtimoiy guruhlar faoliyatida qatnashadi. Shu munosabat bilan shaxs a'zo bo'lgan guruh va jamoalarga xos psixologik qonunlarni ham tahlil etish zarurati tug'iladi. Ushbu bo'limda esa aynan rahbar shaxsi, uning muvaffaqiyatli boshqaruv faoliyatini uchun xos va zarur xislatlar haqida to'xtalib o'tamiz. Boshqaruv jarayonini psixologik tahlil etish masalasi, avvalambor, rahbarning faoliyatini takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun rahbarga qo'yiladigan talablar, ularni bajarishga moyillik va boshqaruv faoliyatini to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxs xususiyatlarini o'rganish zarurati tug'iladi.

Rahbarga xos shaxs xislatlari. Rahbar shaxsi tushunchasi unga xos bo'lgan xususiyatlarni uch guruhga bo'lib o'rganish taklif etilgan:

1. Biografik tavsif
2. Qobiliyat
3. Rahbarga xos shaxs xislatlari

Rahbar shaxsining biografik jihatlariga uning yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeい va ma'lumoti kiradi.

Rahbar yoshi. Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning rahbar yoshiga bog'liqligi rivojlangan mamlakatlar tadqiqotlariga asoslanadi. Aniqlanishicha, Yaponiya qayta ishlab chiqarish yirik kompaniyalari rahbarlarining o'rtacha yoshi 63,5 bo'lsa, shu toifa amerikalik rahbarlarning yoshi 59 da ekan3. Yaponiya yirik kompaniya rahbarlarini o'rganishda uchraydigan va taajjublanarli jihatlardan biri, ularning yoshi ulug'lidir.

Ba'zi bir tashkilotlarda (masalan, «Soni korporation») kompaniya prezidentining yoshi 65 deb cheklangan bo'lsa-da, lekin ko'pgina avtomobil sohasidagi firma rahbarlarining yoshi 75 va undan yuqoriligi ajablanarli hol emas. Umuman olganda, Yaponiyada xodimning korxonaga bir umr yollanish tajribasi qo'llanadi. Ma'lum bo'lishicha, yuqori bo'g'in rahbarlarining ko'pchiligi o'z tashkilotida 30 yildan ortiq ishlaydi. Bu sohada o'tkazilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, katta yoshli rahbarlar, agar ularning sog'ligi ko'ngildagiday bo'lsa, ushbu tashkilot uchun katta tajriba manbaidir. Rahbarning ulug' yoshi haqida gapirar ekanmiz, nafaqat uning biologik jihat, balki, ijtimoiy tomoni, hayotiy tajribasini ham nazarda tutishimiz darkor. Zero, «Qari bilganni pari bilmas», deb xalqimiz beziz aytishmagan. Biroq, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyaning kirib kelishi, ularni o'zlashtirishda ma'lum mahoratni talab qiladi.

Afsuski, hozirgacha kompyuterda ishslashni o'rganolmayotgan katta yoshli rahbarlarni uchratish qiyin emas. Shu jihatdan olganda, aksariyat holatlarda yosh rahbar tashkilotga ilg'or texnologiya va kreativlik olib kiruvchi faktor sifatida qabul qilinadi. Yosh rahbar boshqaradigan tashkilotdagi xodimlarning o'rtacha yosh ko'rsatkichi ko'pincha past bo'ladi. Yoshlik davri (30-35 yosh atrofida) bu yangilik va kashfiyotlarga moyillik, ijodiylik, qo'rmaslik va o'zguruvchan muhitga moslashuvchanlik bilan ifodalanadi. Afsuski, bunday tashkilotda katta yoshdag'i (40-

45 dan yuqori) xodimlarga, hatto, shubha bilan qarash holatlari ham uchrab turadi.

Lekin, aniqlanishicha, inson 35-55 yoshlarida o'z kasbining mohir ustasiga aylanadi, o'z sohasidagi bilimni yaxshi egallaydi va ixtirolarni joriy etishga o'zida ishtiyoq sezadi. Shu bilan birga, unda vaziyatni sovuqqonlik bilan tahlil etish, vazminlik kayfiyati shakllanadi. Albatta, hamma yosh rahbar ilg'or texnologiya tarafdori va shunga moyil deb aytish qiyin, lekin yoshlarga zamonaviylik xos. Bu esa o'z navbatida, yosh rahbarning zamonaviy va ilg'or ishlab chiqarish uslublariga murojaat etish ehtimolini kuchaytiradi.

Xalqimizda, yoshi katta bo'lsa ham ko'ngli yosh degan ibora bor. Demak, zamonaviy rahbar yoshidan qat'i nazar ilg'or texnologiyalar tarafdori, tashkilot miqyosida zamonaviy ishlab chiqarishni joriy etishga qobiliyatli bo'lishi lozim. Bu esa o'tish davri talabidir.

Rahbar jinsi. Inson jinsi, uning ayni bir rolga amal qilishini taqozo etadi. Ayniqsa, bu holat sharq mamlakatlari, hududimiz sharoitida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu hududda erkak va ayolga xos jinsiy ijtimoiy normalar aniq belgilangan. Modomiki shunday ekan, inson amalga oshirayotgan ko'pgina xatti-harakat aynan shu jinsiy rol mezoni ta'sirida idrok etiladi.

Hozir, insonning jinsiy mansubligiga qaramay, kasb yoki lavozim pog'onasida katta imkoniyatlar paydo bo'layotganini ko'ramiz. Mamlakatimizda tadbirkorlik va davlat boshqaruvi sohasida ayollarga katta yo'l ochilgan. Ammo, shunga qaramay, rahbar so'zi ko'pincha erkak jinsi bilan ifodalanadi va negadir, ayol rahbar idora etadigan sohalar, jumladan, maorif, sog'liqni saqlash, aholiga xizmat ko'rsatishdan nariga o'tilmaydi.

Haqiqatdan ham ayolning u yoki bu sohada boshqaruv lavozimini egallashi, ko'p jihatdan, bu soha ayollarga mosmi yoki erkaklargami degan savolga bog'liq bo'lib qolgan. Bir qator tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, erkak va ayol aralash ishlaydigan guruhda ko'pincha erkaklar tashabbusni o'z qo'llariga olar emish. Tadqiqotchi Ye.Xollander tadqiqotlariga ko'ra, guruh doirasida hal etiladigan vazifani yechishda erkaklar ko'proq maqbul yo'l topa olishadi, ayol va erkaklardan iborat aralash guruhda esa ustunlikka intilishadi.

Tadqiqotchining tushuntirishicha, erkaklarga xos bunday xatti harakat, ko'p jihatdan, jamiyatda o'rnatilgan normalar va erkaklar xulqiga oid ustanovka, ya'ni kutuvlardan kelib chiqadi. Bunday ustanovkalar asosidagi standartlar atrofdagilarning bo'layotgan voqe-a-hodisalarni idrok etishiga ham katta ta'sir etadi. Masalan, psixolog R.Rays o'tkazgan tajribada quyidagi manzara kuzatiladi: tajriba davomida, harbiy o'quv yurti kursantlarida ayollarga nisbatan ma'lum (unchalik ijobiy bo'limgan) ustanovka shakllantirilgan. Shundan so'ng, kursantlarni uchtadan qilib ikki guruhga bo'lishgan va laboratoriya sharoitidagi tajribada qatnashishga taklif etishgan. Ikki guruh kursantga ikki rahbar – biri erkak, ikkinchisiga ayol boshchilik qilgan.

Guruhi ma'lum bir murakkab vazifalarni hal etishgan va yechim davomida rahbar faol o'rinni egallagan. Aniqlanishicha, ayol kishi rahbarlik qilgan kursantlar guruhi erishilgan muvaffaqiyatini tasodifga yo'yishgan, erkak rahbar bo'lgan guruhdagi kursantlar esa muvaffaqiyatda aynan rahbarning qobiliyatini yetakchi deb ko'rsatishgan. Mazkur tajriba shundan dalolat beradiki, atrofdagi voqealarni baholashimiz ko'p jihatdan ayni jamiyatda qabul qilingan norma va me'yorlarga bog'liq. Boshqaruv amaliyotida va shuningdek, ba'zi bir adabiyotlarda, erkak rahbar

faoliyati ayol rahbarnikiga nisbatan anchagina samarali degan tasavvur mavjud.

Odatda, bunday fikrga quyidagi dalillar keltiriladi: erkak yorqin ifodalangan mantiqiy fikrlash xususiyatiga ega emish, ayol esa ko'pincha hissiyatga; erkak o'z ishiga fidoyi desak, ayol qimmatli vaqtini oilaga sarflaydi. Chunonchi, erkak turli salbiy ta'sirlarga, stresslarga chidamli bo'lsa, ayol murakab vaziyatda hatto aqlini «yo'qotib» qo'yishi mumkin ekan.

Ammo, hayot buning aksini ko'rsatib turibdiki, ayni payt ishlab chiqarishni samarali boshqarayotgan ayollarni ko'plab uchratish mumkin. Jinsiy tafovutlarni tahlil etishda samaradan ko'ra boshqaruv uslubi haqida gapirsa, o'rinaliroq bo'ladi. Erkak rahbar asosiy diqqat-e'tiborini ishlab chiqarish muammolariga taalluqli vazifalarga qaratsa, ayol rahbar ko'proq jamoaning ijtimoiy-psixologik jihatlariga, psixologik muhitni sog'lomlashtirishga qaratadi, degan xulosalar ham kam emas. Albatta, bu fikr bir qancha bahs va munozaraga sabab bo'lsa-da, endilikda qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishni ham taqozo etayapti.

Xo'sh, aslida erkak va ayol rahbarlar muvaffaqiyatga erishishlarida ma'lum farq, tafovut mavjudmi, degan savolga quyidagi javobni olamiz. Taniqli olima F.Denmark, katta hajmdagi tadqiqotlari asosida shunday xulosaga keldiki, boshqaruv sohalarida muvaffaqiyatga erishishda sezilarli jinsiy tafovutlar kuzatilmas ekan. Ayol va erkak boshqaruvchilarning boshqaruv faoliyatidagi farq shundan iborat ekanki, ayollar jamoadagi insoniy munosabatlarga ko'proq e'tibor beradilar.

Erkak va ayol menejerlarga xos jinsiy psixologik farqning bo'lishi tabiiy, lekin jamoa oldida turgan vazifani bajarish, ko'zlangan maqsadga erishish borasida jinsiy tafovut kuzatilmaydi. Nazarimizda, bu muvaffaqiyatlar sababi jinsga xos bo'limgan omillar bilan belgilanadi. Masalan, shaxsning ko'pgina ishchanlik fazilatlari jinsiy moyilliklar bilan emas, balki ijtimoiy qadriyatlar, xarakterdagи xususiyatlarga asoslanadi. Xusan, insoniy munosabatlarga e'tibor, ko'ngilchanlik, boshqaruvda demokratik tamoyillarga suyanish, ayollarda ko'proq uchraydi va bu ko'rsatkichlar ma'lum ma'noda jamoa faolligiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardir. Bir qator tajriba va kuzatish natijalari yana bir boshqa ma'lumotlarni ham beradi.

Rahbarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, erkak va ayol rahbar o'z uslublarida shunchalik qarama-qarshi jins xususiyatlarini namoyish etadilar. Erkak rahbar erkakka xos xislatdan tashqari ayolga xos ayrim fazilatlarni ham boshqaruv amaliyotida qo'llashini ko'ramiz: ko'ngilchanlik, nozik didlik, intuitsiya... O'z navbatida ayollar ham erkaklarga xos sifatlarni o'z faoliyatlarida qo'llaydilar: mustahkam iroda, qat'iylik, faollik, tirishqoqlik... Demak, boshqaruv samarasini jinsiy mansublik bilan bog'lash noto'g'ridir.

Bu o'rinda boshqa omillar ahamiyatliroq hisoblanadi. Misol uchun intellekt, qadriyatlar, shaxs xususiyatlari, ma'lumot darajasi, boshqaruv sohasidagi tajriba kabi ko'rsatkichlarni keltirish mumkin.

Biografik sifatlarga shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeい va uning ma'lumoti darajasini ham kiritish mumkin. Rahbarlik faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishda status va ma'lumot ham muhim faktor hisoblanadi. Biznes boshqaruvi sohasidagi olim **R.Stogdillning «Boshqaruv qo'llanmasi»da** muvaffaqiyatli rahbarlik va shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy statusi o'rtasidagi bog'liqlik 94% hamda ma'lumoti o'rtasidagi bog'liqlik esa 88% ga teng.

Yaponiyalik tadqiqotchi **T.Kono** olgan natijasiga ko'ra, oddiy yapon menejeri,

muxandislik mutaxassisligi yoki ijtimoiy fanlar bo'yicha universitet diplomiga ega bo'lishi shart. Aksar holatlarda menejerlar ikki mutaxassislik diplomiga ega bo'lsa, bir qator yetakchi ishbilarmon va rahbarlarning biografik ma'lumotlari tahlil qilinganda ularning ma'lumot darajasi yuqori ekanligi ma'lum bo'lgan. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy statusi rahbarlik faoliyatini amalga oshirishida kuchli ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Buning ahamiyati ayniqsa, sharq madaniyati misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yurtimizdagi oddiy fuqarolar rahbar shaxsi deganda nufuzli, o'ziga to'q va to'la-to'kis insonni ko'rishni istashadi. Rahbar mayda iqtisodiy muammolarni bemalol hal qila olishi, katta ijtimoiy aloqalarga molik ekanligi bilan hamda o'z aqliy qobiliyati, tajribasi bo'yicha boshqa xodimlardan yuqori turishi kerakligi ta'kidlanadi.

Rahbarning ijtimoiy-iqtisodiy statusi dastlabki vaqlarda yetakchi rolini o'ynaydi. Keyinchalik esa u haqdagi bo'lgan jamoa tasavvuri rahbarning vazifalarini ado etish qobiliyatiga borib taqaladi. Ammo, shaxs shakllangan muhitning rahbarlikka, shuningdek, oilaviy an'analarning boshqaruv qobiliyati rivojlanishiga ta'sirini o'rganish ham o'ta ahamiyatlidir. Haqiqatan, rahbar oilasida tug'ilish, ulg'ayish davomida ota tajribasini o'zlashtirish dominantlikka, ya'ni ustunlikka moyillikning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Biznes boshqaruvi sohasidagi olim F.Fidler ta'rifi bo'yicha «kompaniya prezidenti bo'lishning eng ishonchli omili – kompaniyaga egalik qiladigan oilada tug'ilishdir».

Lekin, Li Yakokka kabi buyuk menejerning biografiyasи tamoman yuqoridagi ta'rifni inkor etadi. Binobarin, bu shaxs rahbarlikning past qatlamlaridan, uning eng yuqori cho'qqilariga ko'tarildi. Bir qator mashhur tadbirkorlar o'tmishini tahlil etish natijasida aniqlandiki, ularning ko'pchiligi oilada to'ng'ich farzand bo'lib o'sishgan. Darhaqiqat, oilada to'ng'ichlik o'z mavqeiga ko'ra ma'lum mas'uliyat ham demakdir. O'zbek oilalaridagi ko'p farzandli sharoiti to'ng'ich farzandga ota-onaga ko'makchi bo'lish, kichiklarga yetakchilik qilish va nazoratni o'z bo'yniga olishini taqozo etadi. Bu esa shakllanayotgan shaxsning tashkilotchilik va nazoratga bo'lgan imkoniyatini yanada oshiradi, kelgusi faoliyatida o'z-o'zini idora eta olish qobiliyatini shakllantiradi.

Hayot tajribasi. Inson tajribasi va uning boshqaruv faoliyatida namoyon bo'lishi ikki asosiy masala orqali tahlil qilinadi.

Birinchidan, yuqori bo'g'in rahbari uchun boshqaruv tajribasi zarur, shuningdek, ularidan hayotiy tajribaga ega bo'lish ham talab qilinadi.

Ikkinchidan, o'rtalig'ini rahbarida esa o'z sohasi bo'yicha kamida uch yillik tajriba bo'lishi lozim. Bu toifa rahbar tajribasini tahlil etar ekanmiz, asosiy e'tibor kasb sohasiga qaratiladi.

Qobiliyat. Odatda psixologiya fanida qobiliyatning **umumi** va **maxsus** turlari ko'rsatiladi. Umumi qobiliyatlar shaxsning har qanday faoliyatga kirishishida muvaffaqiyat uchun imkoniyat yaratса, maxsus qobiliyat faqat ayrim yo'nalishdagi faoliyat turida muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo'ladi. Mana shunday umumi qobiliyat turkumiga inson aqlini, ya'ni intellektini kiritish mumkin. **Rahbar intellekti** qanchalik yuqori bo'lishi kerak, degan savol, albatta, bahsdan xoli emas. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'ta yuqori intellekt yuksak rahbarlik malakalarini amalga oshirishga xalaqit berar ekan. Shunday deyishning asoslardan biri - qaror qabul qilishda haddan tashqari aql ishlatalish bu jarayonni yanada cho'zib yuborishi mumkin. Shuning uchun boshqa bir qator tadqiqotchilar, rahbarda nazariy aqldan

ko'ra, tajribaviy intellekt rivojlangan bo'lishi kerak, degan to'xtamga kelishadi. Hozirgi kunda ba'zi olimlar emotsional intellekt yuqori bo'lishi kerak deb hisoblashadi. Angliyalik olimlar tadqiqotiga ko'ra, hozirgi kunda ko'pgina yoshlar o'zlariga kerakli mahsulotlarni sotib olishda onlayn tarzda sotib olishni ma'qul ko'rishar ekan. Sababi, ular begona insonlar bilan yuzma-yuz muloqot qilishdan qo'chishar ekan. Yaponiyalik olimlarning kuzatishlaricha, maktab va universitetda yuqori baholarga o'qigan talabalar keyinchalik xizmat davomida unchalik katta lavozimlarga erisholmaganlar. Tadqiqotchi **T. Kono** fikricha bunga sabab, a'lochi talabalarning Yaponiya kompaniyalariga xos bo'lgan guruh tabiatini o'zlashtira ololmaganliklaridadir, yani ularda ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) jarayoni sust kechadi. Aynan tashkilotchilik xislati ko'pchilik menejerlarning lavozimda o'sishlari uchun asosiy omil bo'lgan. Intellektning muvaffaqiyatli boshqaruvga ta'sir etishida ko'pgina oraliq omillar mavjuddir. Ulardan eng asosiyлари - boshqaruvga bo'lgan ishtiyoqning mavjudligi, rahbarlik sohasidagi boy tajriba, shuningdek, yuqori bo'g'in rahbarlari va xodimlar o'rtasidagi ijobjiy munosabat nazarda tutiladi. Yuqori bo'g'inga mansub rahbar o'z boshqaruv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun anchagina yuksak aqliy ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak. Bunday salohiyat kutilmagan vaziyatni tahlil etishda, muammoni hal qilish jarayonida bir necha vazifani parallel ravishda boshqarish zaruratidan kelib chiqadi. Masalan, tashkilotchilik, muammoga oid optimal yechimni taklif etish, tashkilot va jamoa manfaatlari haqida qayg'urish va h.k. Lavozim talablari turli bo'g'in rahbarlari uchun turlicha aqliy salohiyat zarurligini ta'kidlaydi. Yuqori bo'g'in rahbarlari aniq ifodalangan ijtimoiy intellektga ega bo'lishlari shart. Ular tashabbuskor, muloqotga boy, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqega ega, ishga aloqadar tanish-bilishlari ko'p, intuitsiyasi rivojlangan va tashkilot faoliyatining qayerga yo'nalishini tezda payqab olishlari kerak.

Har qanday tashkilotdagi asosiy og'irlikni o'ziga oluvchi o'rta bo'g'in rahbarlarida esa maxsus qobiliyat ko'proq rivojlangan bo'lishi lozim. Ular ishga diqqat-e'tiborli, mas'uliyatli, katta hajmdagi miqdoriy va sifat ma'lumotlarini tahlil etish qobiliyatiga ega shaxslardir.

Shaxsiy sifatlar. Yuqorida aytib o'tilgan umumiyy qobiliyatlar, muvaffaqiyatli boshqaruvni ta'minlovchi zarur shaxs xislatlarini aniqlash, ularni rahbarlikda shakllantirish masalasini muhim qilib qo'yadi. Natijada nafaqat mazkur sifatlarni aniqlash, balki bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni tashkil etish bo'yicha bir qator vazifalarni hal etishni talab qiladi. Bu borada amaliy faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilarning ma'lum qilishlaricha, rahbarlarni baholash kadrlar bilan ishslash masalasining eng nozik qismiga aylangan. Ma'lumki, rahbarlikka oid shaxs xislatlarini aniqlovchi bir qancha psixologik metodlar mavjud bo'lib, ularni muvaffaqiyatli qo'llay olishi bir tomonidan tadqiqotchi malakasiga kelib taqalsa, ikkinchi tomonidan ushbu metodikalarning ishchanligi va olingan ma'lumotlarning haqqoniyligi masalasi turadi.

Masalan, g'arbda ishlab chiqilgan test va so'rovnomalarni mahalliy hududimizga, mentalitetimizga moslashtirish shu vaqtgacha dolzarb bo'lib kelganiga guvohmiz. Muvaffaqiyatli rahbarlikka oid shaxs xislatlarini talqin etarkanmiz, shu mavzu yuzasidan chet el olimlari tomonidan o'tkazilgan ba'zi bir tadqiqot natijalariga murojaat etamiz.

Amerika va Yaponiyalik 1500 menejerlarni o'rganish asosida samarali

rahbarlikka oid quyidagi sifatlar ajratib ko'rsatiladi:

- strategik rejalashtirishga bo'lgan hohishning kuchliligi;
- ishchilarni, mehnat resurslarini taqsimlash bo'yicha maqbul va o'z vaqtida qaror qabul qilish;
- faoliyat doirasini kengaytirish yoki yuksak tartibda mehnat qilish evaziga o'z mas'uliyatini oshirishga intilish;
- xavfli sharoitda ijodiy va ratsional qaror qabul qila olish;
- o'z kuchiga cheksiz ishonch;
- o'z huquqlarini anglash va mas'uliyatni his qilish;
- kezi kelganda qurban berishga ham tayyor turish;
- muloqot malakalarini mukammallashtirishga intilish;
- murakkab va inqirozli vaziyatdagi jarayonlarni tahlil etish va intuitiv tarzda bashorat qila olish;
- mehnatga nisbatan yuksak qadriyat sifatida qarash va unga barcha kuch g'ayratni yo'naltirish;
- aybdorni izlash emas, balki muammoni hal etishga intilish, tavakkaldan qo'rqlmaydigan va mustaqil fikrdagi xodimlar bilan ishlash xohishi;
- amalga oshirilayotgan g'oya va natijalarni ishlab chiqarishga, joriy etishga xuddi shaxsiy mulkdek qarash.

Yaponiyalik va Amerikalik menejerlarni qiyosiy o'rganish natijasida olingan xulosalar shundan iborat bo'ldiki, yapon menejerlari o'z boshqaruva faoliyatida ijtimoiy psixologik jihatlarga ko'proq e'tibor berishar ekan va jamoa faoliyatini tashkil etish qobiliyati yetakchi o'rinda turar ekan. Amerikalik menejerlar esa xodimlarda yakka tartibdagi tashabbusni ko'proq rag'batlantirishar ekan. Ma'lumki, boshqaruvning ko'p sohalarida muvaffaqiyatli rahbarlik faoliyatini ta'minlovchi shaxs xislatlarini aniqlashga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, XX asrning 50 yillarida, har qanday sohada uddaburro rahbar bo'la olishlikka tegishli xislatlar mavzuida ortiq tadqiqotlar o'tkazildi.

Oqibatda, boshqaruvni mukammal ijro etuvchi hamma rahbarlarga xos fazilatlar jamlanganda, 5% sifatlar namoyon bo'ldi.

Bular quyidagicha:

- aql-idrok, murakkab va mavhum (abstrakt) muammolarni yechish qobiliyati o'rtadan baland, ammo juda yuqori bo'lmasligi shart;
- tashabbus, harakatga undovchi ehtiyojni anglash va shunga tegishli salohiyatga egalik;
- o'ziga bo'lgan ishonch, o'z mahoratini va intilishlarini yuqori baholash.

Ammo aksariyat tadqiqotchilar diqqat-e'tiborli markazidagi asosiy xususiyatlardan biri - rahbar shaxsiga xos dominantlik (ustunlik)ka intilishdir. Aynan shu sifat rahbarning tashabbusni o'z qo'liga, jamoaga yetakchilik qilishiga va murakkab vaziyatda mas'uliyatni o'z bo'yning olishiga zamin yaratadi. Shu munosabat bilan tadqiqotchi R. Stogdill qalamiga mansub «Rahbar qo'llanmasi»da dominantlik boshqaruvga zarur sifatlar ro'yxatida birinchi o'ringa qo'yiladi. Dominantlik so'zi bir necha ma'noni anglatadi. Rahbarlik mavzusidan kelib chiqilsa, o'zgalarga ta'sir etish degan bir jumla mazmunan hamma gapga asos bo'ladi. Yuqorida ta'kidlangan ma'nodagi «ta'sir etish» iborasi hissiyot tufayli o'zgalarni o'ziga jalg' etish olish, o'zaro munosabat natijasida o'ziga nisbatan xayrixohlik hissini

yaratishni anglatadi.

Chunki tashkilotning ilg'or faoliyati uchun boshqaruvchi o'z zimmasidagi rasmiy majburiyat va vakolatlarning o'zi yetarli bo'lmaydi. Boshqaruv sohasidagi mutaxassislar G.Kunts va S.O'Donnelning fikricha «agar xodimlar rahbariyat tomonidan o'rnatilgan tartib va qoidalargagina rioya etib mehnat qilganlarida, ular o'zlarining 60-65% imkoniyatlarini ishlata olar va o'z majburiyatlarini bajarib, shunchaki ishdan bo'shamasliklariga bahona topar edilar, xolos.

Xodimlarning qobiliyatlaridan to'la foydalanish niyatidagi rahbar ularda shunga loyiq his tuyg'uni uyg'ota olishi lozim»⁶. Bu yerda gap rahbarning o'z liderlik qobiliyatini namoyish eta olishi, xodimlar orasidagi obro'-e'tibori haqida borayapti.

Tashkilot doirasidagi norasmiy munosabatlar tizimida peshqadam o'rinni egallagan rahbargina o'z xodimlari qobiliyatini 100% jamoa ishiga jalb eta olishi mumkin. Yuqorida zikr etilgan qo'llanmada e'tirof qilingan sifatlardan yana biri, rahbarning o'ziga ishonch hissidir. Sir emas, har birimiz rahbar o'ziga ishongan va ishonmagan hollarda nafaqat qanday ish tutishini, hatto o'zini qanday tutishini ham ko'rganmiz. Baxtga qarshi, o'ziga ishonchi bo'limgan rahbar vaziyat o'zgarishi bilan, o'z qarorini o'zgartirib turadi.

Bunday rahbar qo'l ostida ishlaydigan xodimlar o'z rahbari timsolida suyanchiq ko'rmaydilar, tashkilotda o'tkazayotgan kunlari vaqtinchalikdek tuyuladi. Boz ustiga, bunday rahbar o'zgalar bilan muzokaralar olib borishga ham qodir emas. Chunki o'z shaxsiga va o'z qobiliyatiga ishonmagan odam o'zgalarda ham ishonch uyg'ota olmaydi. Peshqadam rahbarga xos fazilatlardan biri – vazminlik va sabru bardoshlikdir.

Rahbar hissiyotini muvozanatlashganligi, uning ichki dunyosiga xos qaramaqarshi tuyg'ularning tug'yoniga yo'l qo'ymaslikda va kayfiyattdagi sokinlikda ifodalanadi. Ma'lumki, rahbar odamlar orasida va ularga xos turli hissiyotlar og'ushida yashaydi. Binobarin, atrofdagilarning salbiy yoki ijobjiy histuyg'ulari o'zaro kundalik muloqotda tez «yuqish» xususiyatiga ega. Shuning uchun rahbar qaltis va ziddiyatli vaziyatlarda nafaqat boshqalarning hissiyoti ta'siriga berilmaslik, balki atrofdagilarga o'z muvozanati va jilovlangan his-tuyg'usi bilan ta'sir eta olishi kerak. Shaxsning bu faziyalati bir tomondan asab tizimining tug'ma xususiyati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan orttirilgan hayotiy tajribaga bog'liqdir.

Asab tizimining mo'tadilligi uchun rahbar o'z sog'ligi haqida qayg'urishi lozim. Mehnat faoliyatini ratsional tarzda tashkil etish, ya'ni mehnatdagi ijobjiy jihatlarga ko'proq e'tibor berish, noxush vaziyatlarni donolik bilan bartaraf etish, ko'proq yaqin do'stlar davrasida bo'lish, jismoniy tarbiya va foydali mashg'ulotlarga ishqibozlik kayfiyatida vaqtini o'tkazish, har qanday stressga qarshi tura olishni kuchaytiradi, shuningdek, organizmning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklashga xizmat qiladi. Boshqaruv faoliyatini samarali bajarish uchun rahbarga zarur fazilatlardan yana biri - muvaffaqiyatga intilishdir. Rahbar o'z oldiga maqsad qo'ya olishi va uni bajarishga urinishi lozim. Umuman olganda, insonga xos intilishni ikki toifaga bo'lish mumkin:

1) muvaffaqiyatga intilish;

2) mag'lubiyatdan qochish. Biron-bir qiyin va inqirozli vaziyat paydo bo'lganda, ba'zi birlar mazkur vaziyatni hal etish orqali muvaffaqiyatga erishish haqida o'ylasa, boshqa birov esa talofotga uchramaslik g'amida o'zini iloji boricha «ofat»dan olib qochadi.

Bu bir xil vaziyatga ikki xil yondoshuv bo'lib, uning egalari turlichayarakterdag'i insonlardir. Boshqaruvni samarali olib boruvchi rahbar esa aynan biringchi toifaga mansub bo'lgani sababli, u muammolarni tez hal etadi va yanada o'z maqsadi sari oldinga intiladi. Bunday toifa kishisi odatda tavakkalchilikka xam borishi mumkin. Kezi kelganda u katta maqsadni kichik bo'laklarga bo'lib, har bir kichik maqsad ortida turgan natijani oldindan tasavvur etadi. Biroq, bunday omilni hamisha amalga oshirish oson emas. Binobarin, rahbar tavakkalga bora oladigan va xavf-xatardan qo'rqlaydigan xarakterga ega bo'lishi lozim. Mashhur bizesmen va menejer Li Yakokkaning ta'kidlashicha: «Ba'zida tavakkal ham ma'qul, lekin yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatib ketish lozim».7 Maqsadga erishish ishtiyoqi bilan yashaydigan odam doim o'z faoliyat natijalari haqida xabardor bo'lishni istaydi.

Mehnat bilan bog'liq vaziyat esa faoliyatidan ma'lumot olish orqali o'z hayot mazmunini tahlil etish imkonini beradi. Aynan shu toifaga mansub shaxslardan birining aytishicha: «Men uchun biznes faqatgina boyish vositasi emas, boylik orttirish men uchun hech qachon maqsadga aylanmagan. Biznes shuning uchun ham menga rohatbaxshki, u har kun cheksiz muammolarni hal qilish maqsadida aql-idrokimni bir nuqtaga jamlashga undaydi» Bunday ibora ko'pgina tadbirkorlarga xos bo'lib, aniqlanishicha, maqsad yo'lida malakasi yorqin biznesmenlar uchun pul degan narsa unchalik katta qiymatga ega emasdir. Samarali boshqaruv uchun yana bir zaruriy xislat – mas'ullik va vazifani hal etishga qaratilgan ishonch. Iqtisodiy va ijtimoiy qalqish paytida o'z hamkorida ishonch uyg'otish, navbatdagi ishga kafolat berish va boz ustiga, uni uddalash zamonaviy rahbar uchun muhim fazilatdir. Bu jarayonda rahbarlik tadbirkorlik faoliyati bilan uyg'unlashib ketadi va ishonch tushunchasi markaziy o'ringa ko'tariladi. Rahbarning, nafaqat, obro'sini oshiradigan, balki qiyin vaziyatda uni asosiy maqsad yo'lidan yetaklaydigan fazilatlardan biri – mustaqillikdir. Rahbar o'z qarashi, mushohada layoqati va shaxsiy nuqtai nazariga egalikka intilishi lozim. To'g'ri, rahbar o'z hamkasblariga, shuningdek, maslahatchilariga quloq tutishi kerak, lekin qaror va uning ijrosi rahbar zimmasiga yuklatiladi. Shu bois fikrlash va xatti-harakatdagi mustaqillik samarali boshqaruvning assosiy omillaridan biridir. Ammo, mustaqillik qaysarlik kayfiyatiga aylanmasligi lozim. Buning uchun rahbar hamisha o'z tashabbusini tashkilot yoki jamoa maqsadlari bilan uyg'unlashtirib borishi lozim. Navbatdagi zaruriy xislatlardan yana biri muloqotga moyillikdir. Aniqlanishicha, rahbar o'z kundalik faoliyatining to'rtadan uch qismini turli-tuman muloqotga sarflaydi. Muloqotning boshqaruvdagi ahamiyatini ko'zdan kechirar ekanmiz, beixtiyor Li Yakokka esdaliklariga duch kelamiz: «Men avtomobil sohasida bir umr ishlagan odamni bilaman. U oliy ma'lumotli bo'lib, o'zini boshqarish qobiliyatiga ega, shuningdek, ajoyib strateg va o'z kompaniyasining yirik mutaxassisini edi. Lekin, uni hech qachon hech kim yuqori lavozimga tayinlamagan, chunki u o'zga bilan muloqotda bo'lishni bilmas edi»⁶. Shunday qilib, rahbar faoliyatidagi samaradorlikni amalga oshiradigan shaxs xislatlari bilan tanishib o'tdik. Sir emaski, hech bir inson ushbu ro'yxatdagi xislatlar bilan birga tug'ilmaydi. Bularning hammasi insonga ato etilgan layoqat, shuningdek, ijtimoiy-tarixiy yashash sharoitlarining mahsulidir. Bunday xislatlarning rahbar faoliyatida namoyon bo'lishi, shaxsdan mutazam tartib va o'z ustida ishlashni, doimo o'z idrokida namuna yaratish va unga taqlid etishni talab qiladi.

Samarali rahbar qiyofasi. Yuqorida samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shaxs xislatlarini keltirib o'tdik. Bu xislatlarni bilish, rahbar ularni o'zida shakllantirishga intilishi, so'zsiz, uning boshqaruv mahoratini yanada yuqori pog'onalarga olib chiqadi va tashkilotning ko'zlangan maqsadga yo'nalishini tezlashtiradi. Lekin, metodologiya nuqtai nazaridan rahbar shaxsi shunchaki xislat yig'indisidan iborat emas, ayni vaqtda mazkur xislatlarni mujassamlashtirib, uyg'unlashtirib turuvchi yanada shiddatli kuchlar borki, ular ishtirokida xislatlarning ma'lum kombinatsiyasidan iborat rahbar qiyofasi mayjud bo'lishi mumkin. Psixologiya fanida ushbu fikr shaxs strukturasi degan ibora orqali o'z mazmunini topgan. Hozirga kelib psixologiya fanida shaxs strukturasini ifodalovchi turlicha ta'riflar mavjud bo'lib, ularning qiyosiy tavsifini keltirishga hojat yo'q deb, o'ylaymiz. Ulardan eng ahamiyatlisi sifatida quyidagi tahlil bayon etish mumkin. Shaxsdagi barcha psixologik xislatlar va ijtimoiy sifatlar quyidagi tizim shaklida tasavvur etilishi mumkin.



2.1. – ЧИЗМА. ШАХСНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК СТРУКТУРАСИ

Tasvirlangan piramidaning tarkibiy qismlarini qatlamlar deb, qabul qilsak, yuqorida turgan tarkib o'zidan pastda joylashgan qatlamlardan shakl topadi. Demak, ushbu tizimning birinchi pog'onasida turgan «xatti-harakatlar» deb, ataluvchi qatlam birlamchi hisoblanadi va uning asosida shaxsnинг yanada yuksakroq tarkibiy sifatlari shakllana boshlaydi. Yuksak pog'onada turuvchi tuzilmalarning sifati va ifodalanishi pastki o'rindagi qatlamlar sifat mohiyati bilan bog'langan. Shu nuqtai nazaridan qaraganda insonda avval pastki qatlamlar (xattiharakat va ustakovkalar) shakllanadi, so'ngra ular qadriyatlarning shakllanishiga asos bo'ladi, qadriyatlar negizida insonning e'tiqodi shakllanadi va e'tiqodlar majumasi inson missiyasi orqali birlashadi. Endi, shu fikrga asoslangan holda yuqorida tasvirlangan piramidaning tarkibiy bo'laklari (qatlamlari) ustida alohida to'xtalib o'tamiz.

Missiya – eng oliv maqsad bo'lib, inson butun umrini shu maqsadga intilish uchun bag'ishlaydi. Odatda missiya shakllanishi va inson tomonidan anglanishi, uning yetuk yoshlariga to'g'ri keladi. Missiya inson hayotining yo'nalishini ifodalaydi. Odatda har bir inson hayotida o'z missiyasiga ega va hamma gap uni erta yoki kech anglanishidadir. Psixologiya fanida katta o'rin egallagan gumanistik yo'nalish e'tirof etadigan asosiy vazifalardan biri - insonga uning missiyasini anglashda yordam berishdan iboratdir. Mavzuimiz mazmunidan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har bir rahbar o'z faoliyatini qanday missiya orqali ifodalanishini iloji boricha ertaroq anglab olishi lozim. Masalan, missiya sifatida o'z xalqiga xizmat qilish, o'z vatanining ravnaq topishida ishtirok etish yoki butun xatti-harakatini oilasi

farovonligiga bag'ishlash kabi sharaflı burch bo'lishi mumkin. Albatta, bunday iboralar ro'yxati cheksiz va ular har bir shaxs uchun individualdir. Shaxs o'z missiyasini nafaqat anglashi, balki, tashkilot umumiy maqsadi bilan uyg'unlashtirishi lozimdir. Missiya o'z shakliga binoan aniq va ravshan ifodalaniши, shaxsdan «tashqarida» joylashishi, ya'ni tashqi muhit ob'ektlarida mujassamlashgan bo'lishi lozim (masalan, kasbiy yo'nalish, o'zgalar manfaati, xizmat sohasi va h.k.). Missiya o'z mazmuniga ko'ra shaxs e'tiqodlaridan unib chiqadi.

E'tiqod – inson behad ishonadigan g'oya va fikrlar bo'lib, ularni hatto shubha ostiga olish shaxs uchun noo'rindir. Inson tashqi olamdagи voqeа-hodisalarni tahlil qilarkan, ko'p narsalarga o'z e'tiqodi nuqtai nazaridan qaraydi.

Qadriyatlar – eng qimmatli ma'naviy boylik bo'lib, inson uni haqoratlanishi va tahqirlanishidan himoya qiladi, saqlaydi. Odatda qadriyatlarning umuminsoniy, biron ijtimoiy guruh qadriyatları va shaxsiy turlari farqlanadi. Umuminsoniy qadriyatlar inson qayerda yashashidan, boyligidan, mansabidan va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, doim ardoqlanadigan mazmundir, masalan - tinchlik, hayot, ozodlik, birdamlik, mas'uliyat, oriyat. Ijtimoiy guruh qadriyatları bir guruh insonlar uchun qadrli va boshqa bir guruh tomonidan e'tiborsiz ma'naviy boylik bo'lib, milliylik, yoshlik va keksalik, oilaviy, siyosiy, hududiy oriyentirlardan iborat. Shaxsiy qadriyatlar deb, ayni shaxsga tegishli qadriyatlarning o'ziga xos majmuiga aytildi. Har bir insonning ichki dunyosida sanab o'tilgan qadriyatlarning hamma guruhi mavjud. Yuqorida sanalgan uch guruh qadriyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvofiqlikni belgilaydi. Agar shaxsiy qadriyatlar ro'yxatida umuminsoniy va guruhiy qadriyatlar yetakchi bo'lsa, insonning jamiyatdagi o'rni va hayoti nihoyatda yengil va ravnaqlidir. Aks holda, inson ichki dunyosida uchraydigan turli guruh qadriyatları o'rtasidagi nomuvofiqlik shaxsda ichki tug'yon va nizoni keltirib chiqaradi.

Ustanovka – bu ibora psixologiyada inson xatti-harakatining anglanmagan programmasi sifatida tushuniladi. Inson doimiy bajaradigan xatti-harakat dastavval anglanilgan holda amalga oshadi va u takrorlangani sari beixtiyor, avtomatlashgan holatga o'tib boradi. Aynan shunday anglanilmagan harakat rejasi ustanovka deb ataladi. Xodimdagи maqbul harakatlar muntazam takrorlanishi natijasida unda maqsadga muvofiq faoliyat ustanovkasi shakllanadi. Binobarin, xodimning doimiy faoliyati va xulqini kuzatgan holda unda qay mazmundagi ustanovkalar ustuvor ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Piramida shaklida tasvirlangan shaxs tizimining asosiy psixologik mazmuni shundan iboratki, inson hayotining mazmuni bo'l mish missiyasi va e'tiqodi, pastki qatlamda turuvchi qadriyat va ustanovkalar asosida shakllanadi. Qadriyat esa, o'z navbatida, inson qadrlovchi oriyentir sifatida ustanovkalarning rivojlanish natijasidir. Qatlamlar o'rtasidagi bunday bog'liqlik inson faoliyatiga ma'lum ma'no kiritadi va hatto inson ichki dunyosini bir butun, yaxlit tarzda tushunish imkonini beradi. Gap shundaki, komil insonning hayotidagi hamma qatlamlar bir-biri bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Demak, uning qilayotgan ishlari qadriyatlariga mos keladi, e'tiqodiga va hayotidagi asosiy maqsadi bo'l mish missiyasiga qarshi chiqmaydi. Rahbar o'z xodimini sinchkovlik bilan kuzatishi orqali, uning shaxsidagi qatlamlar o'rtasida uyg'unlik yoki ziddiyatni ilg'ashi mumkin. Rahbarning bunday nazarga ega bo'lishini yana bir sharti - xodim ruhiyatidagi qatlamlar ziddiyatiga tashkilot miqyosida shakllangan muhit ham sabab

bo'ladi. Demak, tashkilotda shakllangan normalar nosog'lom bo'lsa, xodim nosamimiylar harakatlarga yo'l qo'yadi va u o'z e'tiqodi va qadriyatlariga zid chiqishi mumkin. Yuqorida keltirilgan shaxs strukturasiga asoslangan holda zamonaviy rahbarni tavsiyalar ekanmiz, unga xos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jihatlar haqida ham gapirib o'tish lozim bo'ladi.

Aynan shu jihatlar insonning missiya va e'tiqod qatlamlarida mujassamlashgan holda samarali rahbarning negizini tashkil etadi. Rahbar e'tiqodining, yetakchi qadriyatining jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifalar bilan uyg'unlashganligi, uning faoliyati samarasini belgilaydi. Shuning uchun boshqaruv lavozimiga kadrlarni qo'yish hamda rahbar kadrlarni baholash jarayonida e'tiqod sohalarini birlamchi deb qabul qilinsa va bu mezonga asosiy e'tibor qaratilsa, o'rinni bo'lardi. Demak, darr talabi bilan, rahbarning siyosiy boshqaruvga qobiliyati dolzarb masalaga aylanadi. Albatta, bunday qobiliyat rahbarning ma'muriy-xo'jalik majburiyatidan bir oz chetlanish deb o'ylanishi mumkin. Lekin, mamlakatimizning hozirgi rivojlanish bosqichi, xo'jaligimizning umumjahon iqtisodiyoti bilan integratsiyasi, investitsiyalar sohasidagi hamkorlik masalasi zamonaviy rahbarni xo'jalik muammolari doirasida cheklanib qolmay, balki atrofdagi voqealarni kengroq idrok etishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy rahbar nafaqat tashkilotni iqtisodiy cho'qqiga yetkazuvchi shaxs, balki, targ'ib etilayotgan davlat siyosatini mehnat jamoasi ongiga yetkazuvchi faol hamdir.

Yuqoridagi matndan quyidagi fikrlar kelib chiqadi: rahbarlarni tayyorlash va malakasini oshirish mobaynida iloji boricha shaxsning o'zo'zini anglashi, o'z e'tiqodi va qadriyatlarini hayoti davomida aniq ifodalash choralarini haqida bilim va ko'nikmalar shakllantirish lozim. Axir, aynan, ichki poklik, samimiylilik va inson tabiatining yaxlitligi o'zgaga ta'sir etishdagi asosiy kuch sifatida maydonga chiqadi. Rahbarni tayyorlash, uning malakasini oshirish bilan bog'liq har qanday tadbir oxiroqibatda rahbar shaxsi, uning boshqaruv mahoratini takomillashtirish, o'zgalarga ta'sir etish ko'lamenti kuchaytirish maqsadini qo'yadi. Ushbu bo'lim yakunida samarali boshqaruvni amalga oshirishda xalaqit beruvchi shaxs xislatlari haqida gapirib o'tmoqchimiz va quyida ularni ichki to'siqlar deb nomlaymiz:

Samarali boshqaruvga to'sqinlik qiluvchi shaxs xislatlari.

Biznes boshqaruvi sohasidagi olimlar M. Vudkok va D. Frencis bir qancha menejerlar faoliyatini o'rganib va quyidagi ichki to'siqlar menejer faoliyatining samarasini pasaytiradi, deb hisoblaydilar:

1. O'z-o'zini boshqara olmaslik. Rahbar hayoti hayajon va zo'riqishlarga to'la. Bunday sharoitda xulqda aniq maqsadning yo'qligi nafaqat jamoa faoliyatiga, balki rahbarning sog'ligiga ham salbiy ta'sir etadi.

2. Shaxsiy qadriyatlarning shakllanganmaganligi. Rahbar doim qaror qabul qilish vaziyatida bo'ladi. Vaholanki, qaror samarasi shaxsiy qadriyatlar, kasbiy va hayotiy tamoyillarga asoslanadi, ularning shakllanganligi rahbar faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Masalan, zamonaviy boshqaruv samaradorlik, xodim imkoniyatlarini ochishga ko'mak, tashkilotga yangilik olib kirishga moyillik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Mustahkam qadriyat va tamoyillarga asoslanmagan rahbar beqarorlik va maqsad yo'lida irodasizlikni namoyon etadi.

3. Shaxsiy maqsadning aniq ifodalanmaganligi. Zamonaviy rahbar muhimni nomuhimdan ajrata olishi, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay bilishi

kerak. Tashkilot maqsadini chuqur anglash yo'lidagi birinchi qadam rahbarning o'z shaxsiy maqsadlarini yaxshi tushunib yetishidir. O'z maqsadini aniq bilgan rahbargina uning faoliyatiga qo'yilayotgan talablarni jonu diliga singdira olishi mumkin. Shaxsiy maqsadning noaniqligi tashkilot manfaati yo'lidagi maqsadlarni ham anglab olishga xalaqit beradi. Aniq maqsadning yo'qligi shaxsning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini pasaytiradi va demak, bunday rahbar, o'zgalarning muvaffaqiyatini ham his eta olmaydi.

4. Kamolotga intilishning yo'qligi. O'z ustida ishslashdan bosh tortgan rahbar qaltis vaziyatdan o'zini olib qochadi, o'z imkoniyat va qobiliyatini rivojlantirish ustida ishlamaydi, tavakkalga bormaydi va eski, odat tusiga kirgan xatti-harakatlari dorasidan chiqolmaydi.

5. Muammoni yecha olmaslik. Ayrim rahbar muammo ustida sifatli, muntazam va aql-zakovat bilan ishlay olmaydi. U vazifa maqsadini aniqlash, ma'lumot to'plash, rejalashtirish va nazoratni amalga oshirish malakasiga ega emas. Natijada hal etilmagan masalalar to'planadi va rahbarning muammoni hal etish imkoniyati cheklanib qoladi.

6. Ijodiy yondoshuvning yetishmasligi. Ixtiroga moyilligi bo'limgan rahbar yangi g'oyalarni taklif etolmaydi, o'zgalarda mehnatga bo'lgan ijodiy yondoshuvni uyg'ota olmaydi. Bunday rahbar tajribadan, jamoa hayotiga yangilik kiritishdan o'zini chetga oladi yoki yangiliklar ustidan kuladi. Yuksak ijodiylik to'siqni yengib o'tishni va qiyinchilikka bardosh berib maqsadga intilishni taqozo etadi.

7. Itoatidagi xodimlarga ta'sir etolmaslik. Rahbar o'z qo'li ostidagi xodimlarga ta'sir etishi lozim. Lekin, ayrim rahbar o'z xodimlariga suyanolmaydi va buning o'rniga ular haqida salbiy fikrda yuradi. Bunday rahbar o'z intilishida muntazam emas, atrofdagilar bilan yaqin muloqotga kirishmaydi va o'z ichki dunyosini yaxshi ifoda etolmaydi.

8. Boshqaruv faoliyati xususiyatini yaxshi bilmaslik. Boshqaruv faoliyati samarasi haqida ma'lumotga ega bo'lmas ekan, rahbar o'z malakasini shakllantira olmaydi. Boshqaruvga o'z yondoshuvini tahlil etolmaydigan rahbar fikr va topshirig'ini ham xodimga tushuntirishi qiyin. Bunday rahbar xodimlari u haqda nima deb o'ylashi bilan qiziqmaydi, o'z xodimlarini tashabbusga chaqirishi mushkul, ayniqsa topshiriqlar berishga qiynaladi.

9. Boshqaruv malakasining sustligi. Tashkilotdagi xodim va rusurslarni boshqarish uchun ko'pgina ko'nigmalar zarur bo'lib, ularni rahbarlik qobiliyatları deyish ham mumkin. Boshqaruv sust bo'lgan jamoada vaqtini behuda o'tkazish, xodimlarning o'z imkoniyati darajasida ishlamasligi, mehnatdan qoniqmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Bunday guruhda rol taqsimoti sust, mehnatni tashkil etishda behudalik ko'p, o'zaro munosabatlar esa – qoniqarsiz. Bunday jamoada rahbarning mehnati qadrlanmaydi va psixologik muhit sog'lom emas.

10. Itoatidagi xodimlarda mehnat malakasini shakllantira olmaslik. Har bir rahbar vaqtiga bilan ustoz sifatida xodimga ish xususiyatini o'rgatadi. Xodimning kasbiy qobiliyatini rivojlantira olmaydigan rahbar, o'z jamoasi mehnatini yuksak darajaga olib chiqolmaydi. Bu holda xodim o'z mehnati natijasi haqida rahbardan hech qanday fikr eshitmaydi, rahbarning bahosi va tavsiyasi rasmiy tus oladi.

11. Jamoa tashkil etishdagi sust qobiliyat. Maqsadga erishish uchun rahbar, xodimlar bilan birlashishi va ularning malakasidan foydalanishi lozim. Ishchi guruhi

malakali va unumli jamoaga aylanmasa, rahbar mehnati qiyin kechadi va faoliyati ham unumsiz bo'ladi. Bunday jamoalarda unumli mehnat mexanizmlari shakllanmaydi va nosog'lom muhit hukm suradi.

Boshqaruv uslubi

Boshqaruv uslubi ta'rifi. Rahbar va xodim munosabatlari, guruhdagi psixologik muhit, mehnat jamoasi faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan rahbar qo'llaydigan boshqaruv uslubiga bog'liq. Boshqaruv uslubi – rahbarning o'z xodimlariga nisbatan, ular orasida ishni tashkil etish bo'yicha qo'llaydigan odatiy xatti-harakatlari majmuasidir. Hozirga kelib boshqaruv fanida boshqaruv uslubini farqlashga turli yondoshuvlar mavjud bo'lib, ularning hech biri boshqaruv vaziyatiga mos keluvchi mukammal bir uslubni tavsiya etolmaydi. Har bir uslub albatta bironta cheklanishga ega. Quyida rahbarlik uslubiga turli yondoshuvlar haqida qisqacha izoh berib o'tamiz va bu matndan rahbar o'z faoliyatida uchraydigan vaziyatdan kelib chiqqan holda, muvofiq keluvchi usullar majmuasidan birontasini qo'llash haqida xulosa chiqarishi mumkin. Tizimli yondoshuv tamoyiliga asoslanish boshqaruv uslubi mavzusiga bir muncha to'la tahlil berishi mumkin. Bunga binoan, qo'llanilayotgan boshqaruv uslubi tashkilot hayoti, uning oldiga qo'ygan maqsad va birlamchi ravishda amalga oshirilayotgan vazifalariga mos kelishi kerak. Тизимли ёндошувга биноан rahbar o'zi boshqarayotgan tizimni yaxshi bilishi, uning holatini to'g'ri baholashi, kelajakdagi qiyofasini tasavvur eta olishi hamda o'zgarishlarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi xodimlarni faollikka jalb eta olishi lozim. Zamonaviy boshqaruvga oid fanlarda boshqaruv uslubini turli nuqtai nazarlarda turib yoritiladi. Quyida ularning qisqacha izohini berib o'tamiz.

An'anaviy yondoshuv. Boshqaruv uslubini farqlashdagi an'anaviy yondoshuvlardan biri Kurt Levin tomonidan kiritilgan tipologiyaga asoslanib, bunda rahbarlikning avtoritar, demokratik va liberal uslublari farqlanadi.

Avtoritar uslubda rahbar hamma boshqaruv qarorlarini o'z qo'liga oladi, qaror ijrosini qattiq nazorat ostiga oladi va yo'l qo'yilgan xatolar yuzasidan beshafqat jazolash shahdini namoyish etadi va xodimga inson sifatida qiziqish bilan qaramaydi. Bunday sharoitda, doimiy nazoratning mavjudligi iqtisodiy jihatdan yuqori ko'rsatkichni ta'minlaydi. Lekin, psixologik nuqtai nazardan bunday uslubda qator kamchiliklar kuzatiladi:

- 1) xatoga yo'l qo'yish ehtimoli oshadi;
- 2) tashabbusni, xodimlarning ijodiy faoliyatini so'ndirish, ixtiolar joriy etishning sekinlashuvi, xodimlarning sustligi;
- 3) xodimlarning ishdan, jamoadagi mavqeidan qoniqmasliklari;
- 4) nosog'lom psixologik muhit natijasida jismoniy va ruhiy zo'riqishlar oshishi va sog'liqka salbiy ta'siri. Bunday uslub rahbar va xodim orasidagi kasbiy malakalar farqi kattaligida, qattiq intizom va itoatgo'ylik zarur bo'lgan sharoitda maqsadga muvofiq va o'zini oqlashi mumkin (avariya holatlari, inqirozli, urush sharoitlari va h.k.). Yangi xodimlar ishlaydigan jamoada bunday boshqaruv uslubi moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir etadi, yosh xodimda kasbiy malakalar sekin shakllanadi.

Demokratik uslub, ba'zan sheriklik, hamkorlikka asoslangan boshqaruv uslubi ham deb ataladi. Bunday uslub hukm surgan jamoada boshqaruv qarorlari xodimlar

bilan muhokama qilish orqali, ularning fikri va tashabbusini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Shuningdek, qaror ijrosining nazorati ham rahbar, ham xodimlar tomonidan amalga oshiriladi, rahbar xodimga shaxs sifatida qaraydi, uning ehtiyoj, manfaat va qiziqishlarini inobatga oladi. Boshqaruv pog'onalarida qaror qabul qilish «pastdan tepaga» qarab boradi, ya'ni avval quyi bo'g'in rahbarlaridan yig'ilgan fikrlar asosida yuqori bo'g'inda qaror ishlab chiqiladi. Rahbar jamoadagi norasmiy liderga tayanadi va kezi kelganda uning faolligi uchun ham imkoniyat yaratadi. Hamkorlik tamoyiliga asoslangan rahbar vazifani bajarishning aniq ko'rsatmasiga nisbatan umumiy yo'nalishni belgilashni ma'qul ko'radi, hamda xodimning o'zi ijro etish rejasini ishlab chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Demoratik uslub eng samarali boshqaruv vositalaridan hisoblanib, uni qo'llashda to'g'ri qaror qabul qilish ehtimoli oshadi, mehnat samaradorligi ta'minlanadi, bajarilayotgan ishdan va jamoaga a'zolikdan qoniqish o'sadi, guruhning ahilligi oshib psixologik muhit ijobiylashadi. Bunday jamoada odatda mavjud yechimlarga tanqidiy ko'z bilan qarovchi, xatoliklarni aniqlovchi xodim va bu xatoliklarni bartaraf etish yo'llarini taklif etuvchi mutaxassis hamkorligi mavjud. Bu tavsiflardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, demokratik tamoyilga asoslangan jamoalarning ham bir necha darajasi bo'lishi mumkin. Birlamchi darajadagi jamoalar asosan mehnat vazifasini bajarishga yo'nalgan bo'lsa, yuksak pog'onadagi jamoalar xizmat maqsadidan tashqari shaxslararo munosabatlarni ijobiylashtirish bo'yicha faollikka ham egadirlar. Demokratik uslubni amalga oshirish rahbarning aqliy, tashkiliy va kommunikativ qobiliyatni yuqori rivojlangan sharoitda o'rinnlidir.

Liberal uslubda jamoada demokratik tamoyillar hukm suradi, xodimga butkul erkinlik beriladi, u o'z xizmat vazifalarini belgilaydi va ijro etish vositasini tanlaydi, guruhda xulqni nazorat etish deyarli kuzatilmaydi. Bunday uslub yuqori ijodiy kuchga ega bo'lgan va ishlab chiqarish jarayoni benuqson yo'lga qo'yilgan jamoada qo'llanilishi mumkin. Ammo, bunday uslub noo'rin qo'llanilganda guruhning har bir a'zosi tashabbuskor bo'lishi bilan birga, ularni ma'lum maqsad sari yo'naltiruvchi kuch jamoada bo'lmaydi, qabul qilingan qarorlar nazorati sust bo'lgani uchun ular bajarilmay qolib ketishi ham mumkin. Natijada xodimlar o'z mehnatidan va rahbariyatdan qoniqmaydi, ish samaradorligi past, jamoada hamkorlik yo'q, bir-biri bilan kirishmaydigan guruhlarga bo'linish ehtimoli ko'payadi va guruhlararo ochiq yoki yashirin nizo yuzaga keladi. Yuqorida sanab o'tilgan rahbarlik uslublari har bir rahbar faoliyatida u yoki bu darajada namoyon bo'ladi va ayrim rahbarda bu uslublarga xos belgilar aniq ko'rinsa, ikkinchisida sust ko'zga tashlanadi. Ba'zi bir rahbar biron uslubga moyilligini anglasa, ikkinchisi o'z xulqida aniq bir uslub belgilarini ajrata olmaydi. Shunga muvofiq ravishda psixologik tavsiyalarda rahbar shaxs sifatida uslubdan o'zini ajrata olishi va uslubdan foydalanishni ixtiyoriy darajaga olib kela olishi maslahat beriladi. Aynan shunday qobiliyatga ega bo'limgan ayrim toifa rahbarlariga «tartibsiz (mantiqsiz)» boshqaruv uslubi xos deb aytish mumkin. Bunday rahbar bir uslubdan ikkinchisiga, ikkinchisidan uchinchisiga va aksincha harakatlarni pala-partish amalga oshiradi va o'z xulqi bilan guruhdag'i ziddiyatni yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy yondoshuvlar. Boshqaruv uslubiga an'anaviy yondoshuvdan tashqari qator zamonaviy g'oyalar ham kirib keldiki, ularni bilish rahbarlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan situativ, ya'ni

vaziyatga oid rahbarlik uslubi haqida ma'lumot berib o'tishni lozim deb topamiz. Bu g'oya boshqaruv sohasidagi olimlar P. Xersi va K. Blanded tomonidan ilgari surilgan bo'lib, boshqaruvning u yoki bu uslubini qo'llash xodimlar va jamoaning psixologik rivojlanganligiga, kasbiy barkamolligiga bog'liqidir. Mualliflarning fikricha, mutaxassisning kasbiy malakasi qanchalik yuqori bo'lsa rahbar uni shunchalik kamroq boshqarishi va hissiy jihatdan qo'llab kuvvatlashi talab etiladi va aksincha. Xodim qanchalik yuqori malakaga va ruhiy yetuklikka erishgan bo'lsa, rahbarning nazorati va aralashuviga shunchalik kamroq zarurat tug'iladi. Bunday yondoshuv asosida to'rt darajali boshqaruv vaziyatlari farqlanadi va bu vaziyatlarning har biriga o'ziga xos rahbarlik uslubi talab etiladi.

Vaziyatga oid rahbarlik uslubi

Xodimning, jamoaning rivojlanganlik darajasi	Boshqaruv xatti-harakatlari
Quyi daraja Past malakali va yalqov xodimlar: «ishlashni yoqtirishmaydi, kasbni bilishmaydi»	<p>Avtoritar ko'rsatmalar</p> <ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Nimani va qay tarzda bajarish haqida aniq ko'rsatmalar berish lozim <input type="checkbox"/> Ishni doimiy nazorat qilish <input type="checkbox"/> Zarur bo'lganda jazolash, yomon va yaxshi ishga diqqatni qaratish, ishning ijobiy natijalarini taqdirlash
O'rta daraja Assosiy ko'nikmalarga ega bo'lsa ham hali tajriba yetarli emas, harakatchan va vijdonli: «Ishlashni xohlashadi, lekin qanday ishlashni bilishmaydi»	<p>«Ommaviylashtirish»</p> <ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Yo'riqnomा va ko'rsatmalar umumlashgan tarzda beriladi (maslahat, yordam berish, mustaqil harakatlarga imkoniyat yaratiladi) <input type="checkbox"/> Tez-tez nazorat qilib turish lozim <input type="checkbox"/> Hurmat bilan mehribonlarcha munosabat <input type="checkbox"/> Muloqotlar (xarakterdagi ijobiy tomon larga e'tibor qaratiladi, umumiyl manfaat lar aniqlanadi) <input type="checkbox"/> Kerak bo'lganda buyruq berish lozim <input type="checkbox"/> Ijobiy xulqni taqdirlash va zarur bo'lganda jazolash

Yaxshi daraja Ishning ko'p tomonlarini bajarishga oid asosiy malaka va ko'nikmalarga ega - «Ishlashni bilishadi va xohlashadi»	<p>Boshqaruvga jalb etish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Ayrim masalalar bo'yicha xodimlar bilan maslahatlashish <input type="checkbox"/> Xodimlarning tashabbusini, ularning fikr va takliflarini taqdirlash. <input type="checkbox"/> Mas'uliyatga ko'proq o'ren qoldirish lozim <input type="checkbox"/> To'g'ri ko'rsatmalar berish va nazoratni chek lash <input type="checkbox"/> Xodimlarning o'z-o'zini nazorat etish tizimini yaratish kerak <input type="checkbox"/> Maqsad qo'yilsin, lekin unga qanday erishish vositasi ko'rsatilmasin <input type="checkbox"/> Ko'proq muloqotda bo'lism lozim <input type="checkbox"/> Faollikni, tashabbus va yaxshi mehnatni taqdirlash kerak
Yuqori daraja: Yuksak malakali, tashabbuskor, mas'uliyatli mutaxassislar	<p>Vakolatni berish</p> <ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Muammoni muhokamaga qo'yish, maqsadni aniqlashtirish, o'zaro kelishuvni shakllantirish <input type="checkbox"/> Muammoni mustaqil ravishda hal etish uchun zarur huquq va vakolat bilan ta'minlash lozim <input type="checkbox"/> Ishga aralashishdan kochish kerak <input type="checkbox"/> Xodimlarga o'zlarini boshqarishlari va nazorat etishlariga erishish lozim <input type="checkbox"/> Agar murojaat etishsa yordam berish <input type="checkbox"/> Iltimoslarga jiddiy qarash

Keyingi yondoshuv «ikki tizimli tipologiya» yoki «Boshqaruv matritsa»si deb ataladi va unda rahbar o'z faoliyatida namoyon etuvchi ikki asosiy yo'nalish:

1) Xizmatga yo'nalganlik yoki

2) Xodimlar bilan munosabatga yo'nalganlik asosida besh toifa rahbarlar farqlanadi. quyidagi chizmada vertikal o'q bo'yicha rahbarning xodimlarga yo'nalganligi o'sib borish tarzida ko'rsatilgan, gorizontal o'q bo'yicha esa xizmat vazifalariga yo'nalganlik ko'rsatilgan.

Partisipativlik uslubi. Tashkilot boshqaruvidagi yana bir uslub – partisipativlik deb atilib, unda rahbarning tashkilot maqsadiga erishish yo'lida xodimlar bilan gorizontal yo'nalishdagi munosabatlarni rivojlantirishi tushuniladi. Mutaxassislar aynan partisipativlikni eng samarali uslublar qatorida ko'radilar. Bu uslub rahbarning quyidagicha xulqida namoyon bo'ladi:

1. Rahbarning xodimlari bilan muntazam fikr almashuvi.
2. Rahbar va xodim munosabatidagi ochiqlik va samimiylilik.
3. Xodimlarning tashkiliy qarorlar qabul qilishga jalb etilganligi.
4. Rahbar o'z burch va huquqlarining ma'lum qismini xodim zimmasiga o'tkazishi.
5. Tashkilot vazifalarini rejalashtirish va amalga oshirishda xodimlarni jalb etish.
6. Mustaqil qaror qabul qila olish huquqiga ega bo'lgan maxsus guruhlar tuzish

(masalan, «sifat nazorati guruhi»).

Rivojlangan mamlakatlar menejerlari quyidagi hollarda partisipativlik strategiyasiga murojaat etadilar:

□ Xodimlar saviyasining yuqoriligi sharoitida, qaror qabul qilishni asta-sekin markazlashmagan tarzda amalga oshirish maqsadida.

□ Qaror samarali ijro etilishi zaruriyatida (yaponiyaliklar karorni sekin kabul kilishadi, lekin qaror ijrosi juda tez amalga oshiriladi).

□ Quyi bo'g'in rahbarlari va xodimlar malakasini oshirish mexanizmi yaratilganda.

□ «Yangiliklarni joriy etish» yuzasidan takliflarni ko'paytirish maqsadida. Ta'kidlanayotgan partisipativlik uslubi jamoadagi hamkorlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi va xodimning tashkilot manfaati yo'lidagi jonbozligini ta'minlovchi assiy uslublardan biri hisoblanadi. Lekin, partisipativlik uslubini har qanday rahbar ham, har qanday sharoitda qo'llay olmaydi. Xo'sh qanday vaziyatda ushbu uslubni qo'llash kulay? Amerikalik tadqiqotchilar B.Bass va D. Barretta fikricha, bunday vaziyatda uch omilni hisobga olish lozim: birinchidan - rahbar shaxsini, ikkinchidan - xodimlarni, uchinchidan - guruh oldida qanday vazifalar turganligini. Partisipativlik uslubini qo'llay oladigan rahbar shaxsi haqida gapirsak, u avvalambor, o'ziga ishongan inson, yoshi katta, ma'lumot darajasi ham yuqori, xodimidagi tashabbus va intilishni qadrlaydi, undan ijodiy yondoshuv va qadriyatlarga sodiqlikni kutadi. Xodimga tegishli bo'lgan xarakter xislatlari ko'p jihatdan bu uslubni qo'llash doirasini kengaytirishi mumkin. Bu toifa xodimlarga quyidagi xislatlar tegishlidir: yuksak bilim va malakaga ega bo'lish, mustaqil fikrlashga intilish, ijodiy salohiyatga egalik, ishga katta qiziqishning mavjudligi hamda istiqboldagi maqsadga yo'nalganlik, jamoada teng munosabatlarga intilish. Bunday xodim uchun uning tashkilot hayotiga qo'shayotgan ulushini baholash mezoni – hamkasabalar fikridir. Bunday xodim odatda tashkilotda yuqori mavqega ega. Partisipativlik uslubini qo'llash imkoniyatining uchinchi manbai – guruh oldida turgan vazifadir. Bu vazifa quyidagi tavsiflarga ega bo'lganda ushbu uslub orqali maqsadga erishish mumkin:

a) masala yechimlari ko'pligi, agar uni har xil yo'llar bilan hal etish imkon bo'lsa;

b) nazariy tahlil talab etuvchi va yuksak maxorat orqali hal etiluvchi;

v) uni bajarish uchun o'rta me'yordagi ichki zo'riqish talab etilsa. Lekin partisipativ uslubni qo'llashga ba'zi bir omillar to'siqlik qiladi. Xususan:

a) rahbar o'z vakolatlarini xodimlar bilan bo'lishishni istamaganda;

b) xodim kasbiy maxoratining pastligi, o'z kuchiga ishonmasligi, biron ishni mustaqil bajarishdan cho'chishi;

v) tashkilotda ma'lumot almashuvi yomonligi natijasida zarur qaror ishlab chiqish imkoniyatining yo'qligi;

g) ijtimoiy rag'batlantirish sustligi natijasida hamkorlik munosabatlari shakllanmaganligi;

d) vazifani bajarish uchun sarflanadigan vaqtning kamligi; ye) vazifaning hal etilishi avtoritar uslubni talab etadigan alohida vaziyatlarda.

Maqbul uslubni izlab. Umuman olganda, boshqaruv uslublari mavzusi doimo rahbar va xodim, rahbar va jamoa munosabatlarining tarkibiy qismi sifatida tushunilishi lozim. Shuning uchun ham rahbarning xodimlar bilan umumiyl maqsad sari borishida nafaqat rahbar tanlaydigan uslub, balki xodimlarning xulq-atvori ham

yetakchi rol o'ynaydi. Bu degan so'z – rahbar biron uslubga moyilligini bildirib, uni qo'llashi boshqaruvga bir tomonlama qarashdir. Vaholanki, rahbar jamoa holati va vaziyatdan kelib chiqqan holda u yoki bu uslubga murojaat etadi. Uslub umumiylar maqsad yo'lida borayotgan rahbar va xodim munosabatlarining o'zaro muvofiqlashuvi jarayonidir. U yoki bu boshqaruv uslubini qo'llashdan maqsad, tashkilot manfaatini qondiruvchi vazifani iloji boricha tez va samarali bajarishdan iboratdir.

Qo'llanilayotgan uslub bundan keyingi shu kabi topshiriqning kay tarzda bajarilishiga zamin yaratadi va jamoaga vazifani bajarish imkonini beradi. Afsuski, ko'pchilik jamoalar va hatto rahbarlar biron vaziyatni bajarishda doimo eski namunaga murojaat etishga o'rganib qolganlar va bu holat shu kabi vazifani bajarish uslubi deb atalishi mumkin. Lekin yangi vazifa takrorlanmas bo'lib, uning doimo biron yangi jihatlari mavjud va bu vaziyatda eski namunadan, uslubdan foydalanish maqsadga erishishni to'la-to'kis ta'minlay olmaydi.

Demak, uslubni qotib qolgan, doimiy vosita emas, balki o'zgaruvchan, rivojlanuvchan va dinamik jarayon sifatida tushunish o'rinnlidir. Mavzu bilan tanishish davomida o'quvchilarda «qaysi uslub yaxshi?» degan savol ko'p tug'iladi. Bunga javoban aytamizki, rahbar uslubdan yuqorida turishi lozim, u uslublarni yuqoridan «tomosha» qila olishi va vaziyatga muvofiq keladiganini tanlab qo'llay bilishi lozim. Lekin, bunday ta'rif ham o'zining cheklanishiga ega. Rahbar u yoki bu uslubni qo'llar ekan, doimo guruh ustidan nazorat etish, uni «etaklash» vazifasini oladi. Bu esa jamoa faolligini, uning tashabbusini boshqarishdir. Beixtiyor, deyarli afsonaga aylangan voqeа esga tushadi. Aytishlaricha, AQShning bir yirik kompaniyasi bir vaqtning o'zida hamma filiallaridagi yuqori bo'g'in rahbarlarini mehnat ta'tiliga chiqarib yuborgan.

Boshqaruv uslublarining kommunikativ imkoniyatlari.

Rahbar avtoritar boshqaruv uslubini qo'llar ekan, u tashkilotning rasmiy tizimini ta'minlashga assosiy e'tiborini qaratadi. Bu uslubda ma'lumot faqat vertikal yo'llar orqali keladi, xodimning mas'uliyat chegarasi aniq bo'lib, har qanday xato qattiq jazolanadi, shaxsiy munosabatlar iloji boricha rasmiy tus oladi va hissiyotga o'rin qolmaydi. Demokratik boshqaruv uslubida jamoadagi do'stona munosabatlar rivojlanadi, rahbar guruh faolligi tarafdori, rasmiy tizimda shaxsiy manfaatlar xam nazarda tutilib, muloqot yuritishga keng yo'l ochib beriladi. Liberal boshqaruv uslubida esa rahbar jamoadagi norasmiy tizimni rivojlantiradi va muvaffaqiyatga erishishda rasmiy, ma'muriy shakldan ko'ra jamoaning norasmiy munosabatlari ustun qo'yiladi. Tashkilotda yangi kommunikatsiya tarmoqlari yaratilishiga keng yo'l ochiladi va hatto bunday tashabbus ijobiy baholanadi. Xodimlar ish me'yorini o'zları o'rnatishadi va uning bajarilgani uchun o'zları mas'uldirlar. Xodimlar o'rtasida hamkorlik munosabati ustun turadi. Jamoa tavakkalga mushohada bilan bemalol boradi, har qanday qiyin vazifani ham yengil bajaradi. Yuqorida aytib o'tilgan uch xil boshqaruv uslubi jamoada turlicha muhitni yaratadi. Avtoritar rahbarlik uslubida guruhda hokimlikka intilish namoyon bo'ladi, mansabga ruju qo'yiladi, demokratik uslubli jamoada xodim uni tan olishlarini, hurmat va obro' qozonishni istaydi va nihoyat, liberal uslubli jamoada muvaffaqiyatga erishish istagi ustun bo'ladi.

Liderlik va boshqaruv

Lider so'zining izohiga oid. Umuman olganda adabiyotda «lider» so'zini «etakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ko'p uchraydi. O'yashimizcha, «etakchi» atamasi «lider»ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. «Etakchi» so'zi guruhga munosabat sifatida, uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug'iladi. Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida aynan shu ikki ibora – «peshqadam» va «etakchi» so'zları majmuasi lider mohiyatini to'la ifodalashi mumkin. Nazarimizda, «Etakchi» so'zi shaxsning guruhnı yetaklashga, boshchilik qilishga bo'lgan ishtiyoqi mavjudligidan kelib chiqadi. «Peshqadam» iborasi esa ma'lum fazilatlarga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtiyoriga ko'ra o'zi ishongan odam borayotgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu xolat «lider» iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur. Liderning bu xususiyati uning hissiy jozibadorligida, o'zgalarni o'ziga jalb etish fazilatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, «lider» so'zini faqat «etakchi» atamasi bilan almashtirish liderlik holatining psixologik talqinini tor doiraga kiritib qo'yadi. Ushbu mulohazadan kelib chiqqan holda qo'llanmamiz matnida «lider» so'zidan foydalanishni ma'qul deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, «lider» so'zidagi izohiy ma'noni anglab olish o'zbek kitobxonasi uchun tanish holdir.

Liderlik va rahbarlik. Mehnat jamoasidagi har bir xodim guruhda o'zining mavqeiga ega. Bu mavqe rasmiy yoki norasmiy tarzda qo'lga kiritilgan bo'lishi mumkin. Rasmiy mavqe xodimning mansab pog'onasidagi o'rni va uning lavozimidan kelib chiquvchi vakolatlari bilan ifodalanadi. Har qanday xodim o'z hamkasabalarini bilan o'zaro munosabatda bo'lar ekan, turli omillar ta'sirida bu munosabatlar hissiy rang ola boslaydi. Hissiyotga asoslangan munosabatlar ikki ko'rinishda - yoqtirish (simpatiya) va yoqtirmaslik (antipatiya) sifatida shakllanadi. Shunday xodimlar ham borki, ular o'zining ma'lum xislatlari bilan jamoaning ko'pchilik a'zolarida simpatiya uyg'ota oladilar va ular guruhning norasmiy tizimida yuqori mavqeni egallaydilar. Psixologik talqin bo'yicha, jamoaning rasmiy tizimida yuqori mavqeni egallovchi xodim rahbar bo'lib hisoblansa, norasmiy tizimda yuqori mavqeni egallovchi shaxs esa - liderdir. Liderlik holati, odatda, guruhning norasmiy munosabatlar tizimida amalga oshadi. Biron-bir shaxsning lider darajasida tan olinishi unga hissiy yaqinlikni, uning ish bilan bog'liq bo'lgan qator fazilatlarini yuqori baholashni va ushbu shaxsning guruh manfaatlariga e'tiborliligini anglatadi. Lider - guruhning hamma a'zolari tomonidan tan olingan shaxs. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihat - guruh manfaatini har narsadan ustun qo'yish, doimo guruh oldiga qo'yilgan vazifani yechishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir. Mehnat jamoasidagi lider avvalambor o'zining ishchanlik xususiyatlari

bilan farqlanib turadi, chunki, u aynan mehnat faoliyati tufayli boshqalardan ajralib ko'zga tashlana boshlaydi. Bundan tashqari, lider, guruh manfaatini himoya etar ekan, kezi kelganda rasmiy munosabatlar tizimiga va rasmiy doiralar manfaatiga ham zid chiqqa oladi. Natijada, jamoada rasmiy rahbar va norasmiy lider o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi mumkin. Korxona manfaatidan kelib chiqsak, jamoadagi rasmiy rahbar va norasmiy tizimda shakllanuvchi lider bir shaxs orqali ifodalaniши eng maqbul holdir. Zamonaviy psixologiya fani, o'z yutuqlari orqali, liderga xos fazilatlar tabiatи va unga erishish yo'l-yo'riqlari haqida yetarlicha ma'lumot bera oladi. Shu munosabat bilan liderga xos bo'lgan jihatlarni uch toifaga kiritishimiz mumkin: 1) jamoa manfaatlariga yo'nalganlik; 2) kasbiy mohirlik, har qanday muammoli vaziyatda qiyinchilikni o'z bo'yniga olish va ishni oxirigacha hal etishda tashabbuskor bo'lish; 3) emotsiyal, hissiy jalb etuvchanlik xislatlari. Yuqorida sanab o'tilgan xislatlar majmuasining ketma-ketligi ham o'z mantiqiga ega. Tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, hissiy jalb etuvchanlik odatda lider shaxsda juda yorqin ko'zga tashlanishi shart emas ekan. Shaxsda bu ko'rsatkichning o'rtta me'yorda mavjudligi, uni liderlik darajasida tan olinishi uchun yetarlidir. Lekin insonga xos hissiy jozibadorlik ko'rsatkichi pastligi ish yuzasidan o'tadigan muloqot va muzokaralarga salbiy ta'sir etishi mumkin. Rahbarning muloqot sirlarini yaxshi bilishi orqali atrofdagilarda o'zi haqida ijobiy taassurot uyg'ota olishi ushbu ko'rsatkichni oshirishdagi asosiy vositadir. Rahbarlik tayinlanuvchi lavozimdir, liderlik esa hamfikrlar tomonidan ko'tarilgan shaxs mavqeidir. Agar rahbar va lider o'rtasidagi farqga e'tibor beradigan bo'lsak, ko'pgina jihatlarni sanab o'tishimiz mumkin. Masalan, rahbar xodimlarga ega bo'lsa, liderning hamfikr tarafdoshlari mavjud, rahbar tayinlansa, lider jamoa a'zolari orasidan ajralib chiqadi, rahbar o'z hokimiyatiga asoslansa, lider esa obro'siga tayanadi. Rahbar o'z majburiyati bo'yicha tashkilot manfaatini birinchi o'ringa qo'yadi va shu xususiyat unga rasmiy tus berib, jamoa oldida liderga nisbatan uni bir muncha «zaif» holatga qo'yadi.

Rahbarlik muloqoti va uning bosqishlari

Rahbarlik muloqotining xususiyati. Rahbar faoliyatining asosiy qismini muloqot jarayoni tashkil etadi. Qabul qilingan qarorning ijrosini ta'minlash, xodimlar va tashkilot faoliyatini tashkil etish, nazorat va xodimlar faoliyatini rag'batlantirish jarayonlari ham muloqot orqali amalga oshadi. Psixologiya fanida shaxsiy va ish yuzasidan muloqot turlari farq qiladi. Ushbu matnda asosan ish yuzasidan bo'ladigan muloqot tabiatи va uni shakllantirish imkoniyatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Boshqaruv muloqoti – xodimlarni ma'lum tomonga yo'naltirish maqsadidagi o'zaro ma'lumot almashinuvi jarayonidir. Boshqaruv muloqoti quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Buyruq va topshiriq uzatish, xodimga u yoki bu maslahatni berish;
2. Vazifa, topshiriq qanday ado etilganligi haqida «qayta aloqa», ya'ni hisobotni qabul qilish;
3. Itoatdagи xodimlarga vazifa qanday bajarilganligi haqida baho berish.

Muloqotni mohirona olib boruvshi rahbarda o'z vazifalarini samarali tarzda tashkil etish imkoniyati oshadi. Xodimlarga ta'sir etish, ularga g'ayrat bag'ishlash, tashkilot maqsadi sari yetaklash kabi tashkiliy vazifalar ham malakali muloqot orqali ta'minlanadi. Rahbarning muloqot malakasini ifodalovshi asosiy jihat uning muloqot sohasidagi faolligi bo'lib hisoblanadi. Ushbu faollikkning maqsadga yo'nalganligi,

anglangan tarzda va erkin ijro etilishi insonnning muloqot jarayonini qanshalik mohirlik bilan amalga oshirishini ifodalovshi asosiy belgilardir. Rahbar muloqot jarayonining ishki qonunlarini bilishi juda muhimdir. Muloqot jarayonini boshqarishga oid vosita va uslublar muloqot texnologiyalari iborasi orqali ifodalanadi. Aynan shunday texnologiyalarni o'zlashtirish va vaziyatga oid ravishda qo'llash muloqotning erkinligini ta'minlaydi. Muloqotning ishki qonunlariga oid quyidagi fikrlar ish yuzasidan bo'ladigan o'zaro munosabatlar doirasini yanada kengaytirish va o'zgalarga samarali ta'sir etish imkonini yaratadi. Shu munosabat bilan, muloqot jarayonini boshqarish imkonini beruvshi shartlardan biri uni bosqishmabosqish amalga oshirishdir.

Rahbar boshqaruvi jarayonida muloqot tadbirini tashkil yetar ekan bu jarayonni rahbarlik muloqoti deb atash mumkin. To'la-to'kis va me'yorida tashkil etilgan rahbarlik muloqoti quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Aloqa/kontakt o'rnatish.
2. Masalani muhokama qilish.
3. Yechim variantlarini izlash.
4. Qaror qabul qilish.

Ijobiy natijaga olib keluvchi rahbarlik muloqoti ta'kidlangan bosqichlarning aynan shunday ketma-ketligida amalga oshadi. Aniqrog'i, muloqot jarayonining samarali o'tishi, ko'p jihatdan, shu bosqichlarni navbatma-navbat amalga oshirish bilan bog'liq. Bu shartni ta'minlash esa, avvalambor, rahbar zimmasiga yuklatiladi, chunki boshqaruv muloqotini yo'naltirish asosan uning imkoniyati doirasidadir. Endi, yuqorida sanab o'tilgan bosqichlar xususida batafsil to'xtalib o'tamiz. Rahbarlik muloqotini shakllantirishdan asosiy maqsad - rahbar bu jarayon orqali o'z xodimlari bilan amalga oshirishi lozim bo'lgan muammolarni hal etadi. Masalan, yangi yil kechasi oldidan biron-bir xodimni ishxonada navbatchilikda qoldirish va umuman, korxona miqyosida xodimni bevosita mas'uliyati doirasiga kirmaydigan biron-bir ishga jalb etish kabi muammoli vaziyatlarni ko'plab qayd etishimiz mumkin. Albatta, bunday tashkilotchilik vaziyatlarini hal etishning eng oddiy usuli mavjud. Jumladan, oddiygina bir buyruq bilan xodimni deyarli har qanday ishni zimmasiga olishga majbur etish mumkin. Ammo, ishning natijasi qanday bo'lishi, vazifani bajarishga xodimning qanchalik sidqidildan munosabatda bo'lishi, topshiriq sifatini hal etadigan asosiy omildir.

Shuning uchun taklif etilayotgan boshqaruv muloqoti modelida xodimning vazifaga mas'uliyatini oshirish, unda topshiriq natijasi ijobiy bo'lishiga kuyunchaklik hissini kuchaytirish nazarda tutiladi.

Rahbarlik muloqoti bosqichlari tavsifi. Ish yuzasidan amalga oshadigan boshqaruv muloqoti xodim bilan kontakt o'rnatishdan boshlanadi. Bu bosqichni amalga oshirish jarayoni rahbarning ikki savolga javob olishidan iboratdir:

1. Qarshimdag'i odam kim?
2. U qanday holatda?

Mana shu ikki savolga olingan javob mazmuni birinchi bosqich qancha puxta bajarilganligi haqida dalolat beradi. Rahbar shu ikki savolga batafsil javob olgan taqdirdagina, u ikkinchi bosqichni amalga oshirishga kirishishi mumkin. Javoblar esa rahbar qarshisidagi xodimning muloqotga tayyorligini ifodalashi lozim. Birinchi bosqichni amalga oshirishda rahbardan kuzatuvchanlik, o'tkir zehn va mazkur

odamning xatti-harakatiga qarab, uning ichki holatini aniq bilish qobiliyati talab etiladi.

Masalan, aloqa o'rnatish bosqichidagi birinchi savolga javob berar ekan, rahbar qarshisidagi odam haqida quyidagi bilimlarni bilishi va nazarda tutishi zarur

- 1) yoshi;
- 2) mutaxassisligi, kasbi;
- 3) shu tashkilotda necha yildan beri ishlayotganligi;
- 4) oilaviy ahvoli;
- 5) qobiliyati (qaysi vazifani yaxshi bajaradi-yu, qaysi birini uddalay olmaydi);
- 6) sog'ligi haqidagi ma'lumot va h.k.

Ushbu axborotga ega rahbar har qanday topshiriqni xodimga ishonch bilan topshirishi va ijobiy natija kutishi mumkin. Yuqoridagi savollarga javob olish uchun rahbar muloqot boshlanishidan avval suhbatdoshi haqida iloji boricha ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Kontakt o'rnatish bosqichining birinchi savoliga olingan javoblar rahbarni bo'lajak muloqotga tayyorlaydi, suhbatdoshning kuchli va zaif tomonlarini avvaldan tasavvur etishga imkon yaratadi. Kontakt o'rnatish bosqichining ikkinchi savoli suhbatdoshning ichki holatini aniqlash, suhbat chog'ida uning ichki kechinmalari haqida boxabar bo'lishni taqozo etadi. Qarshimizdagi odamning tashqi qiyofasi – tana holati, yuz mimikasi, qo'l-oyoq harakatlari va ovoz intonatsiyasi – bularning hammasi insonning hozirgi holati haqida ma'lumot beradi va u suhbatning asosiy qismiga o'tishga tayyormi yoki yo'qligi belgisidir. Suhbatdoshning tashqi qiyofasidagi bu ko'rsatkichlar odatda muloqotning noverbal, ya'ni so'zsiz jihatlarini tashkil etadi va kishining ichki holati haqida haqqoni ma'lumot beradi. Noverbal signallar, aksariyat hollarda ixtiyoriy boshqarish doirasidan chetda bo'lib, odamning haqiqiy his-tuyg'ulari, niyat va xohishlari ko'rsatkichi desak, xato bo'lmaydi. Masalan, ikki qo'lni ko'krak oldida qovushtirib, oyoqlarni tizzaga ustma-ust qo'yish yopiq holatni anglatadi va bu holat suhbatdoshning muloqotdan o'zini chetga olishi deb talqin etilishi mumkin. Aksincha, qo'llarning yon atrofda joylashishi, kaftlarning ochiqligi va oyoqni kerib sal oldinga engashib turish/o'tirish suhbatdoshga va muloqot mazmuniga xayrixohlikni anglatadi.

Suhbatdoshning ochiq yoki yopiq tana holati muloqot davomida o'zgarib turuvchi ko'rsatkich bo'lib, suhbat mazmuni qanday o'tayotganligiga qarab u bizga ochiq bo'lishi, va agarda suhbat unga noqulayliklar tug'dirganda esa yopiq pozani egallashi mumkin. Masalan, ikki yaqin do'st muloqotini kuzatsak, ularning tana harakatlarida yopiqlik alomatlari deyarli ko'rinxayrildi. Ularning o'zaro xayrixohlik holati nafaqat tanasida, balki o'rtadagi masofaning yaqinligida, o'zaro suhbatdagi muloyim tovush Faol tinglash davomida shaxs faolligining asosiy uch jabhasi namoyon bo'ladi. Bular quyidagilar:

- diqqatning suhbatdoshga yo'nalganligi – vizual, ya'ni ko'z kontakti, gapiruvchiga hurmat, sabr-toqat, tinglashga tayyorlik;
- faollik – maqsadga yo'nalganlik, qayta aloqa, tushunarli bayon etish, odob-intizom;
- xayrixohlik – ustunlikka intilmaslik, o'z hissiyotini nazorat etish, ma'lumotni e'tiroz bildirmay qabul qilish, salbiy hisning yo'qligi, optimal nutq tempi. Muloqotning ikkinchi bosqichidagi asosiy xususiyat – muammo mazmuni yuzasidan bir xil tasavvurning shakllanishiga va suhbatdoshlarning bir-birini tushunishiga

erishishdir. Ammo, muloqot davomida qator to'siqlar mavjudki, ular suhbatdoshdan kelayotgan ma'lumotni to'la tushunishga xalaqit beradi. Ma'lumot almashuvi bosqichlarini yodda tutish va unga muvofiq keluvchi faol aqliy harakatni qo'llash to'siqlarni muvaffaqiyatli yengib o'tishni, ma'lumot yo'qolishini iloji boricha kamaytirish imkonini beradi.

Muammo mohiyati aniqlangandan so'ng, uning yechimini topish lozim. Shunga binoan, muammoni hal etish maqsadidagi muloqot jarayonining uchinchi bosqichi – muammo yechimini izlash ham muhim o'rin tutadi. Bu bosqich haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lish maqsadida nizo vaziyatidagi besh xil harakat uslubini eslashimiz mumkin. Ma'lumki, nizoli vaziyatda inson besh xil harakat uslubidan birini tanlashga o'z moyilligini bildiradi.

Bu harakat uslubi quyidagilar:

1) raqobat – masala aynan rahbar aytganiday hal bo'lishi kerak;

2) yon berish – rahbar xodim ta'kidlayotgan yechimni qabul qiladi;

3) kompromiss – masala ikkala tomonni ham qisman qoniqtiradigan yechim orqali hal etiladi, lekin asosiy manfaatlar qondirilmaydi.

4) masalani muhokama etishdan qochish, ya'ni turli bahona bilan masalani hal etuvchi uzil-kesil yechim qabul qilinmaydi;

5) hamkorlik – ikkala tomonni qoniqtiruvchi yechim izlanadi va bu izlanish davomida rahbar o'z xodimi manfaati haqida qayg'uradi, xodim esa rahbar va tashkilot manfaatini nazarda tutgan holda o'z muammosi yechimini izlaydi.

Muloqotda idrok jarayoni. Muloqot jarayonida boshqalarga ta'sir etish imkoniyati o'z haqimizda ijobiy taassurot uyg'ota olishimizga bog'liq. Ijobiy munosabatlar shakllangan sharoitda o'zgaga ta'sir etish imkoniyati katta bo'lib, o'zimiz haqimizda ijobiy taassurot uyg'otish mexanizmlariga taalluqli fikrlarni bayon etib o'tish lozim. Psixologiya fanida o'zgada ijobiy yoki yoqimli taassurot uyg'otish simpatiya deb ataladi, salbiy yoki noxush taassurot qoldirish esa antipatiya deyiladi. Xo'sh, suhbatdoshda biz haqimizda simpatiya uyg'onishi uchun nima qilish kerak? Buning uchun ikki shaxs muloqotga kirishganda ularning o'zaro munosabatlaridagi ko'zga ko'rinas ba'zi bir xususiyatlarni tahlil qilib o'tish o'rnlidir. Aynan shu «mayda» xususiyatlar ko'p jihatdan o'zgada simpatiya uyg'otish manbaalari bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR.

Seminar maShg'ulotlarida muhokama qilinadigan savollar.

- ✓ Rahbar shaxsi
- ✓ Boshqaruv uslubi
- ✓ Liderlik va boshqaruv
- ✓ Rahbarlik muloqoti va uning bosqichlari

Mustaqil ish va referat uchun mavzular.

1. Rahbar shaxsi
2. Boshqaruv uslubi
3. Liderlik va boshqaruv
4. Rahbarlik muloqoti va uning bosqichlari

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Махмудов И.И. Бошқарув психологияси: Укув кулланма/ Мас’ул мухаррир: А.Холбеков. - Т.:ДЖКД “Рахбар” маркази, “YUNAKS-PRINT” МChД, 2006.
2. Боймуродов Н. Рахбар психологияси. Олий та’лим, халк та’лими согликни саклаш, урта махсус касб-хунар та’лими бошқармаларининг ма’мурий ходимлари учун кулланма,- Т.: “Янги аср авлоди”, 2007.
3. Nazarov A. Boshqaruv psixologiyasi.T. 2021.
4. Jabborov X. Rahbar ma’naviyati.T. 2019.

5. Qo’shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. - Т.: O‘zbekiston, 2016. –56 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. – Т.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –Т.: O‘zbekiston, 2017. – 108 b.
9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Т.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
10. Берестова Л. И. Социално-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя. М.. 1994.
11. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. Oliy ta’lim, xalq ta’limi sog‘liqni saqlash, o‘rta maxsus kasb-xunar ta’limi boshqarmalarining ma’muriy xodimlari uchun qo‘llanma.- Т.: “Yangi asr avlodi”, 2007.
12. Мескон М.Х., Алберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. М., 1992. Петрунин Ю.Ю.. Борисов В.К. Этика бизнеса: Учеб, пособие. М.. 2000.
13. Психология менеджмента / Под ред. проф. Н.С. Никифорова. СПб.. 1997.
14. Секач М.Ф. Психологическая устойчивость руководителя. М.. 1997. Синягин К). В. Руководител организатии и его команда (теоретическая модель). М., 1996.
15. Станкин М. Психология делового человека: Самоучител. М., 2003. Стил человека: психологический анализ / Под ред. А. Либина. М

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.psychology.uz
5. www.nutq.intal.uz
6. www.psychology.net.ru
7. www.gleforg Djordj Lukasning Ta’limning fondi
8. www.newhorizons.org Ta’limning Yangi ufqlari
9. www.rhecherswithoutborders.org Chegarasizo‘qituvchilar
10. www.thelearningweb.net Ta’lim tarmog’i

BOSHQARUVDA LIDERLIK VA RAHBARLIK USLUBLARI

REJA:

- 1.Liderlik mohiyati. Liderlik nazariyasi.
2. Liderlik yo'llari. Liderchining shaxslilik xususiyatlari kontsepsiysi.
3. Rahbarning ishbilarmonlik va shaxslilik xususiyatlari.
4. Liderning xususiyatlari haqidagi kontseptsiyalar talqini, tahlili. Liderlik uslublari.
5. K.Levinning liderlik uslublarihaqidagi g'oyalari.

MAVZU YUZASIDAN TANYACH SO'ZLAR:

Liderlik, shaxslilik xususiyatlari, kontsepsiya, ishbilarmonlik, tahlil

Xulq va xatti-harakatni kuzatish va qayd qilish metodi. Odatda rahbar va uning qo'l ostidagi hodimlar hulqini kuzatish bir necha vaziyatlarni tahlil qilish yoki tashqi ko'rinishga ega bo'lgan hodisalarga e'tibor berish tizimi doirasida amalga oshiriladi. kuzatishning ob'ektlari faoliyat, muomala, sport, tajriba jarayonlari bo'lib hisoblanadi hamda xulqning tarkibiy hismlari u yoki bu tarzda ularning har qaysisida o'z ifodasini topadi. Masalan, rahbar yoki xodimning faoliyatini bajarish jarayonida tashqi va ichki ko'rinishdagi xatti-harakati xoh u verbal, xoh noverbal ifodalanishidan qat'i nazar individ munosabatini bildiradi.

Faoliyat jarayonidagi har xil lahzalarning o'ziga xos tarzda kechishini kuzatish qayd etish manbaida belgilanishi, kompyuterga kiritilishi orqali aks ettirilishi lozim. Xulqdagi nazokat, me'yoriy odob maromlariga rioya qilinishi, undan ham ustuvor, hatto kuzatuvchini haytarga soluvchi daqiqalar tassurotini u yoki bu yo'sinda qayd ettirilishi ijobiy kechinmalarni ifodalasa, qaltislik, xohishning mavjud emasligini aks ettirish salbiy voqelik tariqasida yozib qoldirilishi maqsadga muvofiq.

Muomala jarayonidagi shaxslararo munosabatlar ko'rinishi ularning maromida, o'ziga xos hurmat negiziga qurilishi yoki fikrlar nomutanosibligi, stress, affekt holatlarni keltirib chiqarishligi to'g'risidagi real voqeliklar psixologik ma'lumotlar olish manbai tariqasida qayd qilinishi ayni muddao bo'lib hisoblanadi. Tajriba almashish, faoliyatni sifatli bajarish, ortiqcha xattiharakatlarni sodir etish jarayonini kuzatish orqali rahbar yoki xodim to'g'risida psixologik ma'lumotlarni qayd qilish mumkin. Odatda kuzatish materiallari aniq yozib qo'yish, kommunikatsiya sifatida uzatish, kompyuter dasturiga kiritish shaklida mujassamlashtiriladi.

Eimprik metodlardan tashqari rahbar va uning qo'l ostidagi xodimlar psixologiyasini o'rganish aniq apparatlar yordami bilan amalga oshiriladi, ular odatda xronometrik apparatlar deb nomlanadi. Apparat nimaga mo'ljallanganligiga qarab muayyan o'yriqnomada (instruktsiyada) ko'rsatilishicha rioya qilingan holda tadqiqot ishlari o'tkaziladi. Sinaluvchilarning sezgisi, idroki, vaqt reaktsiyasi, diqqat ko'lami, xotirasining turlari, tiplari, ekstrovertivlik, introvertivlik xususiyatlari, kasbga yarog'liligi, kasbiy mayllari, nutq sur'ati va shaxslilik fazilatlari aniq, dhech bir sub'ektiv kechinmalarga, omillarga asoslanmagan holda o'lchash jarayoni amalga oshiriladi. Xronometrik apparatlar tomonidan olingan psixologik hodisalarni aks ettiruvchi ma'lumotlar o'ziga xos tarzda tahlil qilingandan keyin muayyan mezonlarga suyangan holda shaxs strukturasiga taalluqli xislatlar umumlashtiriladi, ularning determinatorlari aniqlanadi, binobarin, rahbar yoki xodim to'g'risidagi psixologik tavsifnama yaratiladi. Ma'lumotlarning aniqliligi bilan xronometrik apparatlar boshqa

toifadagi metodlardan keskin tafovutlanib turadi.

Xuddi shu boisdan olingen materiallar ishonchlilik darajasi yuqoriligi bilan muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv psixologiyasi fan asosini tashkil qiladigan metodlar qatoriga voqelik va hodisani oqilona hal etish metodi kiradi. U quyidagi tarkiblardan tashkil topgandir: fotoapparat, kinoapparat, videokamera, magnitafon.

a) fotoapparat orqali turli hil vaziyatlar, shaxslararo munosabatlar, alohida shaxsning timsoli, ish joyining sur'ati, umumiy peyzaj aks ettiriladi. Huddi shu bois ob'ektiv holat foto ob'ektivda o'z ifodasini topadi. Olingen voqelikning aksi o'zini aniqlik darajasi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin tasvir harkatsiz bo'lganligi tufayli "jonli", "vaziyatbop", takroran aks ettirish imkoniyati yo'qdir. Voqelikning yorqin tasviri psixologik omil tariqasida ilmiy material rolini o'ynaydi;

b) kinoapparat va videokamera o'zining qamrovi kengligi, jonli harakatlar majmuasi ekanligi bilan faktik ahamiyat kasb etadi. natijada rahbar kadr va xodimlarning har xil vaziyatlardagi ko'rinishi, ish ustidagi holati, bo'sh vaqt taqsimlash, hordiq chiqarish va boshqa ijtimoiy hodisalarni yoritib berish to'g'risida ma'lumotlar toplash hamda umumlashtirish imkoniyati tug'iladi. tasvirning alohida elementlarini tahlil qilish orqali psixologik materiallar yig'ish mumkin;

v) magnitafon lentasiga (tasmasiga) yozib olingen verbal munosabatlarning ifodasi faktik material sifatida voqelik mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. bunda shaxslararo munosabatning sur'ati, ritmikasi, chastotasi, vokal holati aniq aks etgan bo'ladi.

Odamlarni o'rganish, sonlardan xabardor bo'lish, o'zaro ta'sir o'tkazishni aniqlash, shuningdek, psixologik muhit yuzasidan ma'lumot olish magnitafon yordami bilan amalga oshiriladi. Umuman olganda, faktik materiallarning ob'ektiv vositalari hisoblanmish jonli va jonsiz texnika vositalari rahbar kadrlar hamda ularning qo'l ostidagi kishilar to'g'risidagi psixologik holatlar, hodisalar, sifatlar, qonuniyatlar bo'yicha ma'lumotlar toplash, tahlil qilish, baholash imkonini beradi.

Inson psixikasini o'rganishda undagi funktsional holatlarni (fiziologik vazifalarni) qayd qilish metodi quyidagi apparatlar yordami bilan amalga oshiriladi: tomir urish, harorat o'lchash, qon bosimi, teri galvanik reaksiya, elektromiogramma, EEG va boshqalar. Rahbar kadr va xodim fiziologik holatlarini tekshirish jarayonida ularning psixologik xususiyatlari va o'zgarishi yuzasidan ma'lumotlar olish, ularni umumlashtirish hamda muayyan darajada xulosaga kelish imkoniyta tuqiladi.

Olingen ma'lumotlar ham normal, ham patologik holatlar yuzasidan mulohaza yuritishga asos bo'ladi. Shuningdek, ularning kasbiy layoqati, kasbiy yarog'liligini tashxis qilish uchun materiallar toplashga sharoit yaratadi. Insonning salomatligi, ishchanligi, reaksiyalarga hozir javobligi, imkoniyati to'g'risida muayyan material yig'ish va uni psixologik jihatdan tahlil etish shaxs omilini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Menejer bilan individual suhbat metodi. Vaziyat, sharoit, muhit omillaridan kelib chiqqan holda menejer bilan suhbatlashish uning ayrim psixologik xususiyatlarini o'rganishga imkon yaratadi. Suhbat muayyan mavzu, muddat, maqsad, vazifa, tayyorlangan savollar tizimi kabi tarkiblarga asoslangan holda amalga oshirilishi mo'ljallanadi. suhbat menejerning roziligi bilan amalga oshiriladi va ikki xil variantni qo'llash nazarda tutiladi: standart holda tor ma'hodagi mavzu bo'yicha fikr almashish evaziga shaxsning ayrim psixologik xususiyati, fazilati to'g'risida

ma'lumot olish mumkin; nostandard, ya'ni keng ko'l damdagi hodisalar yuzasidan mulohazalar yuritish, mushohada qilish tufayli menejerning psixologik jihatidan o'rganish. Birinchi variantda cheklangan mavzu atrofida fikr yuritish orqali chuqurroq ma'lumot olish imkoniyati mavjud, chunki diqqat-e'tibor faqat yagona ob'ektga yo'naltirilgan bo'ladi.

Huddi shu bois shaxs tuzilmasiga kiruvchi ayrim ma'lumotlar to'laroq aks etadi, lekin menejerning yaxlit psixologik portretini yaratish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ikkinci variant har xil mavzular yuzasidan fikr almashish orqali menejerning saviyasi, dunyoqarashi, xarakter xislati, fikr yuritish xususiyati va nutqiy qobiliyati bo'yicha psixologik ma'lumot olinadi. Uning kasbiy tayyorgarligi, xodimlariga munosabati, yuksak tuyg'ulari yuzasidan material yig'ishda individual suhbat muhim ahamiyat kasb etadi. Suhbat jarayonini qayd etish psixologik printsiplarga rioya qilingan holda amalga oshirilsa, uning ilmiylik darajasi yanada ortadi. Menejer faoliyatini o'rganishning asosiy metodlaridan biri - vaziyat, shaxsiy fikrni aniqlashga yo'naltirilgan intervyudir. Intervyu ijtimoiy psixologiyaning eng ommalashgan metodi hisoblanib, u o'z navbatida standart va nostandard turlariga ajratiladi. Har ikki turdan farqli o'laroq uning modifikatsiyasi mavjud bo'lib, vaziyatni va shaxsiy fikrni aniqlashga yo'naltirilganligi bilan boshqalaridan tafovutlanib turadi.

Vaziyatni baholash yuzasidan menejerni bildirgan mulohazalarining mantiqiy jihatdan asoslanganligi uning dunyoqarashi, salohiyati, intellekti darajasidan darak beradi. bu narsaga boshqacha urg'u bilan yondashilganda, eng avvalo vaziyatni osoyishta tahlillash, ortiqcha tashvish, xadak, bezovtalanishga berilmaslik, unga emotsiyal emas, balki ratsional (aqlan) munosabatda bo'lish uning atrofidagi xodimlarda ishonch tuyg'usini uyg'otadi. Ishlab chiqarish bilan bog'liq iqtisodiy holat, u yoki bu tarzdagi tanglik, shaxslararo munosabatdagi muammolar, umumjamoa fikridagi ziddiyat o'ziga xos psixologik vaziyatni vujudga keltiradi. Ana shu vaziyatning yechimiga oqilona yo'l topish menejerning topqirligi, tashkilotchilik qobiliyati, irodasining kuchliligini bildiradi. Intervyu menejer nutq yordami bilan yuqorida vaziyatlarga nisbatan birdirilgan fikrlarning majmuasini aks ettirishga imkoniyatiga ega.

Inson faoliyatida nutq va tafakkur birligi muhim ahamiyat kasb etib, shaxsning mustaqilligi, mantiqan teranligi, aql-zakovatning pishiqligi, hozirjavobligi, egiluvchanligi, fikrning chuqurligini aks ettiradi. Huddi shu bois mustaqil fikrlash, shaxsiy qarash, pozitsiya, o'ziga xos g'oya singari aqliy faoliyat tarkiblarini aniqlashning eng samarali yo'li intervyudan foydalanishdir. Intervyu ma'lumotlari magnitafon tasmasiga, tekshiruvchi qayd qilish daftariga mujassamlashtiriladi. Eng muhim tomoni shundaki, intervyuni takroran tahlil qilish, uning ichidan zarur alomatlarni ajratib olish imkoniyati mavjuddir. Xullas, vaziyat va shaxsiy mustaqil fikrlashni tekshirishda, ularga muayyan javob topishda intervyu metodi muhim rol o'ynaydi. Menejerning psixologik xususiyatlarini o'rganishda o'ziga o'zi hisobot berishi tadqiqot metodi sifatida qo'llanilib kelinadi. O'ziga o'zi hisobot berish turli xususiyatli inson omilini ochishga xizmat qiladi. Fikrlar majmuasi sifatidagi hisobot yoki jamiyat va tabiatga nisbatan munosabatning yig'indisi ob'ektiv va sub'ektiv faktorlarning aks etishi menejer faoliyatiga shaxsiy baho berish, ya'ni o'zini o'zi baholashdan iboratdir.

Menejerning o'ziga o'zi hisobot berishi bir necha vaziyatlarni qamrab oladi,

birinchidan, bo'lib o'tgan voqeliklarga ijobiy yoki salbiy munosabatini bildirish, ikkinchidan, baholash jarayonidagi internal va eksternal nazorat vazifasini roli, uchinchidan, xatolarni keltirib chiqaruvchi sabablarini aniqlash, to'rtinchidan, nuqsonlarning oldini olish haqidagi mulohazalar, beshinchidan, faoliyat, muomala, xulq-atvor samaradorligini oshirish yuzasidan o'y-fikrlar va hokazo. Menejerning monologik yoki dialogik tarzdagи o'ziga o'zi hisobot berishi uning xarakter xislatini, maslagini, irodaviy sifatlarini, shaxsiy xususiyatlarini muayyan yo'nalishda ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun har qanday shakldagi hisobot shasxning o'ziga baho berishga qaratilgan bo'lib, ob'ektiv va sub'ektiv baholashni o'zida aks ettiradi. O'zi va o'zgalar to'g'risidagi mulohazalarning muayyan tarzda mujassamlashuvi yakka shaxsning o'ziga munosabatini hamda qo'l ostidagilarga nisbatan baholashini ifodalaydi.

Menejer va uning qo'l ostidagi (tobe) kishilarning o'zaro munosabatlarini aniqlashga mo'ljallangan metodlardan biri - varqa yoki anketadir. Varaqa yoki anketa metodi ochiq, yopiq va shkala shakllardan tashkil topgan bo'lib, sirtdan baho berish, munosabat bildirish, xohishni aks ettirish kabi psixologik mezonlar yordamida turli xususiyatdagi empirik materiallarni to'plash imkonini beradi. Anketa o'zining xususiyatiga binoan tekshiriluvchilardan ro'y-rost fikr bildirishni, ba'zan nomsiz (shaxsning ismi, sharifsiz) axborot uzatishni taqozo etganligi tufayli ob'ektivroq ma'lumot olish imkonini yaratadi. Varaqa ijtimoiy xususiyatlari vaziyatlarni, munosabatlarni, individual qarashlarni tekshirishda foydalaniadi, uni tarqatish oson va statistik hisoblash esa o'ng'ay kechadi. Xuddi shu boisdan materiallar ko'lami kengligi, ishtirokchilar miqdori kattaligi bilan boshqa metodlardan birmuncha ajralib turadi.

Varaqa savollariga "ha" yoki "yo'q", shuningdek "q" yoki "-" alomatlar yordami bilan javob qilinadi. Ba'zi hollarda bir nechta vaziyatdan faqat bittasini belgilash talab etiladi, goho bir savol xilma-xil pozitsiyadan kelib chiqib yondashilganligi sababli ishonchlilik darajasi yuksak, aniq bo'lishini ham ta'minlaydi. Eng keyingi variantdagi varaq shkalalar orqali fikrlar mujassamligini gavdalantiradi.

Menejer uchun uning o'z imkoniyatlarini ochishga qaratilgan anketadan tashqari, unga qaratilgan (yo'naltirilgan) varaq ekspert baholash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspert baholashga yo'naltirilgan anketa har xil vaziyatlarni o'rganishga mo'ljallanganligi tufayli qo'l ostidagi (tobe) kishilar tomonidan uning muomalasi, faoliyati samaradorligi, xulq-atvori xususiyati, shaxsiy, irodaviy, emotsional, kognitiv, reguliyativ xislatlari yuzasidan munosabat bildirish, baho berish orqali xarakterologik, etnopsixologik materiallar to'plashga imkon yaratadi. qo'l ostidagi xodimlarni baholash tizimi o'zining ob'ektivligi bilan boshqa mezonlar majmuasidan tafovutlanadi. Ayniqsa baholash sirtdan o'tkazilishi empirik ma'lumotlar ishonchliligi, validligi, reprezentativligi ko'rsatkichlariga kafolat beradi.

Menejerning varaqaga bergen javoblari yig'indisi bilan ekspert bahosi natijalari umumlashtirilsa tekshiruvning ilmiylik darajasi yanada ortadi. Xodimlarning o'zaro munosabatlarini o'rganishga qaratilgan anketa o'z yo'riqnomasiga binoan turlicha vaziyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, guruh yoki jamoadagi munosabatlar majmuasi bo'lmish psixologik muhit mohiyatini ochadi, jiipslik, hamdardlik, o'zaro hurmat, empatiya, attraktsiya, simpatiya, hamkorlik, o'zaro yordam, praksik yuksak his-tuyg'ular holatini tavsiflaydi. Boshqaruv psixologiyasi

asoslari kursida ekspert baholash metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspert baholash metodining mohiyati shundan iboratki, menejer faoliyati, shaxsiyatiga beriladigan tashqi baho hamkasabali, yordamchilari, qo'l ostidagi hodimlari, jamoatchilik tomonidan amalga oshiriladi.

Ekspert baholash keng qamrovli bo'lib, u o'z ichiga menejerning turli sohadagi faoliyati yutug'i (muvaffaqiyatsizligi), shaxslararo munosabati maromi, odobi (takti), shaxsiy fazilatlari (illati), hissiy kechinmalari, irodaviy sifatlari, fikrlash uslubi, qaror qabul qilish taktikasi va strategiyasi kabi ijtimoiy psixologik jabhalarni qamrab oladi. Ekspert baholashning muhim tomoni shundan iboratki, aksariyat hollarda mazkur jarayon ob'ektivlik xususiyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, u tanqidiy yondashuvni o'ziga mujassamlashtiradi, muayyan darajada qat'i dalillash unda ustuvorlik qiladi. Masalan, menejerning kim ekanligi uning qo'l ostidagi hodimlar, xizmatchilar tomonidan baholanishi aksariyat hollarda aniq, haqchil, odilona hamda umumlashgan tarzda amalga oshiriladi. Bu masalani yanada oydinlashtirish uchun test savollari, so'rovnama singari tekshirish, sinov mezonlaridan foydalaniladi. Menejer yoki mutaxassisni "o'rta ishchan yoki iste'dodli" deb baholash ekspertlarning umumiyligi fikrlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Ko'pchilikning unga nisbatan iliq, samimiy (g'arazgo'y) munosabati oqillikni o'zida aks ettiradi. Ekspert baholash metodini qo'llash orqali rahbar kadr yoki xizmatchilar to'g'risida muayyan darajada ma'lumotlar to'plash imkoniyati tug'iladi va ularning asosida psixologik tavsif yaratilishi mumkin. Shuning bilan birga insonlarda uchraydigan nuqsonlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga zamin hozirlanadi. Boshqaruv psixologiyasi sohasi uchun menejer yoki oddiy mutaxassisning faoliyat maxsuli tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Huddi shu sababdan rahbar kadr yoki yetakchi mutahassis faoliyatining mahsuli (ish rejasi, hisoboti, ish yuritish yo'rig'nomasi, jihozlashdagi yuksak didligi, mahsulot sifati, qurilish maydonchasining ko'rinishi, hujjatlarni rasmiylashtirish holati, texnikaga shaxsiy munosabatining ifodasi va hokazo) ni tahlil qilish natijasida ularning qobiliyati, tashkilotchiligi, fikrlash uslubi, nafosatiligi, yuksak hissiy kechinmalariga egaligi, xarakterologik xususiyati, ijodkorligi to'g'risida diagnostik hususiyatli ma'lumotlarni umumlashtirish mumkin. Mazkur ma'lumotlar tekshirilayotgan odamlarning shaxsiy fazilatlari individual xususiyatlari yuzasidan muayyan darajada xulosa chiqarishga imkon yaratadi. Faoliyat mahsulini tahlil qilish individual, guruhiy va jamoaviy shaklda olib borilishi mumkin. Faoliyat mahsulining har qaysi alohida tahlil qilinsa va baholansa uning anqlik ko'rsatkichi yuqori bo'ladi. alohida menejer faoliyatiga berilgan baho umumlashtirilishi orqali yaxlit shaxsning psixologik portreti yoki timsoli (tasviri, obrazi) vujudga keladi. Umumlashgan tavsiflar majmuasi shaxs to'g'risida ma'lum ma'lumotlar olishiga sharoit tug'diradi. Menejer uchun faoliyat va muomala xususiyatlari tekshirishda tabiiy eksperiment metodidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiyligi psixologiya fanida qo'llaniladigan tabiiy eksperiment metodi menejer faoliyati va muomala jarayoni kechishining ob'ektiv tarzda baholash uchun xizmat qiladi.

Umumiyligi tamoillarga binoan kuzatiluvchi, o'rganiluvchi, tekshiriluvchi odamlar tajriba vaziyatidan behabar bo'lishligi lozim, aks holda uning holisonaligi pasayadi, samaradorligi ko'rsatkich qiymati esa qadrsizlanib boradi. Menejer faoliyati kechishining (ish boshidan to ohirigacha) ma'lum maqsad, muayyan bosqichlarning

ro'yobga chiqishiga asoslangan holda tekshirilishi uning ishga munosabati (faolligi, serg'ayratligi, qat'iyatligi, uyushqoqligi, mas'uliyatligi, jiddiyligi, rejaliligi, sobitqadamliligi, maqsadga yo'nalganligi, mehnatsevarligi va hokazo), ish o'rni, quroli, rejası, yaqqolligi (kundaligi yoki istiqbolligi) ko'rsatkichiga ehtiyoj sezish yetuklikdan dalolat beradi.

Har kungi grafik bo'yicha mehnat faoliyatini tashkil qilish va uni boshqarish muayyan darajada qayd qilib borish orqali shaxsning xususiyatlari, ish uslubi, kasbiy ko'nikma va malakalari bo'yicha ma'lumot olinadi. Shuningdek, vaqt ni idrok qilish, axborotlarni hotirada saqlash, fikr yuritish, fahm-farosat, berval va noverbal nutqdan foydalanish va uni qo'llash texnologiyasi, ish yuritish taktikasi, inson texnika munosabatini ro'yobga chiqarish sur'ati, tembri, chastotasi bo'yicha psixologik ma'lumotlar to'planadi. Ma'lumotlarni to'plash va ularni sifat, miqdor jihatidan tahlil qilish tabiiy sharoitda kechgan faoliyatning o'ziga xosligi hamda uni amalga oshiruvchi shaxsning fazilatlari, motivatsion emotsiyal, irodaviy, kognitiv, reguliyativ xususiyatlari aniqlanadi.

Ularni (ma'lumotlarni) umumlashtirish natijasida insonning psixologik tasviri, ichki kechinmalari ilmiy mezonlar yordamida yahlit holga keltiriladi. Shaxslararo yoki guruhlararo munosabat xususiyatini tekshirishda muomalaga kirishish va uning tabiiy sharoitda kechishini kuzatish, vaziyat va uning yechimini topish, o'ziga xos ravishda omillar harakatlanuvini qayd qilish maqsadga muvofiq. Muomalaning kommunikativ, interaktiv, pertseptiv tarkiblari yuzasidan ma'lumotlilik (bilimga egalik) muloqot mohiyati, shakli, maromi, vazifasi, vaziyati, muammosi va uning yechimini topishda sheriklar (muomaladoshlar) ning huquqiy tengligi muomala barqarorligini ta'minlaydi.

Muomaladoshini hurmat qilish, uning imkoniyatini ob'ektiv baholash, erkin samimiy fikr almashish, biri ikkinchisiga kamroq ta'sir o'tkazish natijasida o'zaro tortilganlik holati yuzaga keladi. Muomalaning barqarorligi, uzlucksizligi, ko'tarinkiligi, sheriklarning (muloqotga kirishuvchilarning) bir-birini tushunuviga va o'zaro qabul qiluvchanligiga bog'liq. Muomalaning kechishiga uning vazifalarini to'g'ri amalga oshish sharoiti bilan tavsiflanadi. Muomalaning tashqi (eksternal) va ichki (internal) ifodasi menejer bilan hodim o'rtasidagi fikr almashuv muloqotdoshlarning nutqi qobiliyati, ta'sir o'tkazish imkoniyati, kasbiy nazokati, xulq-atvori, fikrlash darajasi, insonni inson tomonidan idrok qilishning odilligi, oqilligi to'g'risida psixologik ma'lumotlar to'planadi. Mazkur ma'lumotlar ishonchliligi tekshiruv yoki eksperiment jarayonining tabiiy ravishda kechishida o'z ifodasini topadi.

Fikr uzatish va uni qabul qilish kezida o'zaro nazokatlilikka rioya qilishlik va o'zaro tushunuv, o'zaro hurmat, o'zaro simpatiya, hatto empatiya tuyg'ulari mavjudligidan dalolat beradi. Menejer (xodim) psixikasini o'rganishda tabiiy eksperiment metodidan foydalanish va bunda shaxsning faoliyati hamda muomalasiga alohida e'tibor berish boshqaruv psixologiyasi asoslari sohasini amaliy, nazariy ahamiyatini oshiradi, shaxslararo munosabat uslubi, maromi, maqomi takomillashuviga olib keladi. Rahbar (menejer) va tobe kishilar (xizmatchilar, xodimlar) psixikasini o'rganishda laboratoriya eksperimenti metodi muhim rol o'ynaydi.

Eksperimentning laboratoriya shakli (ko'rinishi) umumiyl psixologiya fanida

qanday qo'llanilgan bo'lsa, huddi shu maqsadni o'rganishga o'rganishga xizmat qiladi. Unda farqli o'laroq aksariyat hollarda qiyosiy tavsifini berishga mo'ljallanadi, natijada o'zaro mutanosiblik (har jihatdan), o'zaro intilish uyg'unligi aniqlanadi. Laboratoriya sharoitida tadqiqot maqsadi qatnashchilariga oshkora qilinadi, fan uchun holis yordam berish zarurati tushuntiriladi.

Laboratoriya eksperimenti ikkita negizga suyangan holda tekshiruvi ishini amalgalashiradi; portativ metodikalar (yangi va mumtoz) va mahsus asboblar (apparaturalar) yordami bilan menejer yoki alohida hodim o'rganiladi. Ushbu metodikning o'ziga xos tomoni shundaki, unda vaziyat, mahsus sharoit hotirjamlikka putur yetkazadi, buning oqibatida bezuvtalanish, hovotirlanish vujudga keladi, olingan natijalar aniqligi sub'ektiv omillar bilan aralashadi, muammoli, suniy vaziyatlar tabiiylik alomatlariga salbiy ta'sir o'tkazadi. Laboratoriya sharoitidagi shaxs xadik xis etishi tufayli hayajonlanish oqibatida mavjud ruhiy imkoniyatlarini to'la-to'kis ro'yobga chiqara olmaydi. Lekin tabiiy eksperimentga qaraganda samaradorligi, ishonchliligi, validliligi, reprezentativligi bilan bir necha barobar ustuvorlikka ega. Laboratoriya sharoitida testlar, ishbilarmonlik o'yinlar, boshqatirma topshiriqlar va boshqa tadqiqot shakllari yordami bilan insoniy bilish jarayonlari, individual-tipologik xususiyatlari, faoliyat, xulq, muomala sifatlari o'rganiladi. Bunda proyektiv metodikalar, rasmi testlar, tugallanmagan gap, ijodiy (kreativ) fikrlash kabi bir qator portativ metodlarni ishtirokchilarda sinab ko'rish ijobiy natijalar beradi. Laboratoriya sharoitida sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarini, shaxsning individual-tipologik xususiyatlarini, asab tizimini, fiziologik mexanizmlarni aniq elektron asboblar yordami bilan o'lchash mumkin.

Bundan tashqari, kasbiy moyillik, kasbiy layoqat, kasbiy yarog'lilik ham asboblar bilan aniq va takroran o'lchash imkoniyatiga ega. Boshqaruvin psixologiyasi kursi bo'yicha ma'lumotlar to'plashda muammoli va sun'iy qiyinlashtirilgan vaziyatni qo'llash eksperimental metodi muhim rol o'ynaydi. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish va uning yechimini topish metodi sinaluvchining aql-zakovati ko'rsatkichi, ijodiy izlanishi, aqlning chuqurligi, teranligi, mahsuldarligi, tezligi, hissiy kechinmalarini idora eta olish imkoniyati, shaxsning intervertligi ekstravertligi xususiyatlari, xavotirlanish (bezovtalanish) darjasini yuzasidan ham nazariy, ham amaliy materiallar yig'ishga mo'ljallangan.

Odatda muammoli vaziyatni tabiiy sharoitda yaratish muayyan bosqichlar orqali yechimini topish tufayli amaliyligini barqarorlashtiradi: a) muomma mohiyatiga kirish; b) muammo yechimini izlash uchun vositalar, yo'llar tanlash; v) saralangan usullar, vositalar va yo'llarni tatbiq etish; g) yechimning to'g'rilingini tekshirish. Muammoli vaziyatlar xilma-xil holatlarga, mavzularga bag'ishlangan bo'lib, aniq vaqt oralig'ida uni hal qilish, yechish amalga oshiriladi. Masalan, "Ishlab chiqarishning iqtisodiy omilini barqarorlashtirish mumkinmi?", "Xodimlar o'rtasida ko'nimsizlikning oldini olish uchun nima qilish kerak?", "Jamoada fidoiylik to'yg'usini qanday shakllantirish mumkin?" va hokazo. Muammo individual va guruhiy tarzda hal qilish yo'llari mavjud bo'lib, yuzaga kelgan sharoit, holat va vaqt birligiga binoan har xil usullar tatbiq etiladi. muammoli vaziyatning yechimi qat'iy va mutlaq bo'lishi shart emas, ko'pincha nisbiy xususiyatga asoslangan holda unga yondashiladi. Vaziyatlar to'g'risida amaliy tajribalar va nazariy xulosalar malakasi oshib borish tufayli yechimini torpishga kamroq vaqt sarflana boshlaydi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR.

- ✓ Liderlik mohiyati. Liderlik nazariyasi.
- ✓ Liderlik yo'llari. Liderchining shaxslilik xususiyatlari kontsepsiysi.
- ✓ Rahbarning ishbilarmonlik va shaxslilik xususiyatlari.
- ✓ Liderning xususiyatlari haqidagi kontseptsiyalar talqini, tahlili. Liderlik uslublari.
- ✓ K.Levinning liderlik uslublarihaqidagi g'oyalari.

Mustaqil ish va referat uchun mavzular.

1. Liderlik mohiyati. Liderlik nazariyasi.
2. Liderlik yo'llari. Liderchining shaxslilik xususiyatlari kontsepsiysi.
3. Rahbarning ishbilarmonlik va shaxslilik xususiyatlari.
4. Liderning xususiyatlari haqidagi kontseptsiyalar talqini, tahlili. Liderlik uslublari.
5. K.Levinning liderlik uslublarihaqidagi g'oyalari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari.- T., 1994
2. Grimak L.P. Rezervi delovedeskoy psixiki.- M., 1990
3. Klimov Ye.A. Osnovi psixologii.- M., 1998
4. Kovalev V. I. Motivi povedeniya i deyatel'nosti. - M., 1988
5. Merlin V.S. Leksii po psixologii motivov deloveka.- Permü, 1971
6. Nasinovskaya Ye.E. Metodi izudeniya motivasii lidnosti. - M., 1988
7. Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn.- Kn.1.- M., 1998
8. Praktideskaya psixodiagnostika. Metodiki i test.- Samara, 1998
9. 10. Xekxauzen X. Motivatsiya i deyatel'nostü T. 1,2. M., 1986

Mavzu yuzasidan internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar ro'yhati:

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psycho.all.ru
3. www.psychology.net.ru
4. www.psy.piter.com

3 - MA'RUZA. BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARI

REJA:

1. Majlislar o'tkazish texnologiyasi
2. Vaqtni boshqarish
3. Boshqaruvda nazoratni takomillashtirish
4. Insoniy munosabatlar boshqaruv omili sifatida

MAVZU YUZASIDAN TANYACH SO'ZLAR:

Vaqtni boshqarish, boshqaruv texnologiyalari, boshqaruvda nazoratni takomillashtirish, insoniy munosabatlar

Shaxsiy motivatsiyalash uslublari.

Xodimlar motivatsiyasini boshqarish mavzusi yuzasidan o'tkazilgan tahlil o'zgalarni motivatsiyalash masalasiga bag'ishlandi. Ammo, boshqaruv psixologiyasida o'z-o'zini motivatsiyalash degan ibora ham borki, u ko'proq o'z faoliyatini yanada takomillashtirish ustida ishlayotgan turli bo'g'in rahbar va xodimlarga tegishli. Rahbar faoliyatida shunday holatlar ham bo'ladi, qachonki u biron mansabni egallab asta-sekin ishga qiziqishini yo'qota boshlaydi, hatto lavozimiga ham sovuqqonlik bilan qarab, uni saqlab qolish uchun kurashmaydi. Bu holatning sababi turlicha bo'lishi mumkin.

Quyida shu sabablardan bir nechta sanab o'tiladi va shu holatni ijobiy tomonga o'zgartirish yuzasidan tavsiyalar beriladi. Rahbarning o'z ishiga qiziqishi so'nishining sabablaridan biri – bir lavozimda uzoq vaqt qolib ketishdir. Rahbarda mehnat motivatsiyasini susaytiruvchi omillardan yana biri uning salomatligi, aniqrog'i turli kasalliklarga duchor bo'lishidir.

Oilaviy muhitdagi inqirozli holatlar ham rahbarni asosiy ishidan chalg'itadi va mehnatga bo'lgan shijoatini susaytiradi. Mehnat jamoasi a'zolarining rabbarga qarshi turishlari guruhni boshqarishdan ko'ngilsovushiga olib keladi. Sanab o'tilgan omillar (albatta, bu qatorni yanada davom ettirish mumkin edi) ta'siriga berilmashlik ko'p jihatdan rahbarning o'zini boshqarish qobiliyatiga bog'liq va psixologik mohiyatga ega ba'zi bir tadbirlarni qo'llash asosida inson o'z-o'zini motivatsiyalab, mehnat faoliyatiga bo'lgan shijoatini yanada kuchaytirib turishi mumkin. Tashkilotdagi xodimlar va rahbar motivatsiyasini ta'minlab turishning asosiy shartlari jamoadagi mehnatni tashkil etish masalalariga kelib taqaladi.

Tashkilotda to'g'ri yo'lga qo'yilgan kadrlar siyosati qator sohalarni hisobga olishi lozimki, bu yo'nalishdagi faollilik nafaqat tashqi motivatsiya, balki rahbarning o'z-o'zini motivatsiyalash omilidir. Bular qatoriga olimlar quyidagilarni kiritadilar:

- 1) Xodimlarning bir lavozimda ishlayotganligini muntazam tekshirib borish va xodimni taxminan 5-7 yillarda lavozimda o'zgartirish (bu esa albatta bir pog'ona yuqoriga kutarishgina emas, balki shu lavozimga yaqin, ya'ni o'xshash bo'limlar yoki kasblar bo'yicha gorizontal yo'nalishdagi o'zgartirishlarni ham nazarda tutadi).
- 2) Ish mazmuni va uning doirasini yanada kengaytirib borish
- 3) Tashkilot tizimini faollik bilan rejalashtirish, maqsadlarni yanada aniqlab borish hamda tashkiliy tadbirlarning turli-tumanligini ta'minlash
- 4) Tashkilot miqyosidagi ta'lim, malaka oshirish, ijodiy yondoshuv qadriyatlarini faollashtirish
- 5) Tashkilotdagi o'zaro munosabatlarning yangi shakllarini yaratish va tatbiq

etish (masalan, rahbarning xodim bilan suhbat, ma'muriyat va xodimlar o'rtasidagi norasmiy muloqotni ko'paytirish, xodimlarning ish joylariga tez-tez tashrif buyurish va shu uchrashuv vaqtida ular bilan muloqotda bo'lish, tashkiliy masalalarda demokratik tamoyillarga tayanish va shu kabilar). Tashkilot hayotiga shunday rang-baranglikni qo'shish niyatida bo'lgan rahbarning o'zi doimo o'zini-o'zi motivatsiya qilib boradi. Shuning uchun bu tavsiyalar nafaqat xodimlar, balki rahbar manfaatida ham ishlaydi.

O'z-o'zini motivatsiyalashning asosiy uslublaridan yana biri – iloji boricha o'z ruhiy qiyinchiliklari sababini tahlil qilishdir. Olimlarning aniqlashicha, insonning kasb doirasida rivojlanishi uning yoshi o'tishi bilan alohida xususiyatlarni taqozo qilarkan. Xusan, ulg'ayishi bilan insonning tashkilot miqyosidagi roli o'zgarib, rivojlanib borishi tabiiy holdir.

Bunga muvofiq, insonning faol kasbiy hayoti quyidagi yosh ko'rsatkichlarida taalluqli bosqichlarga bo'linishi mumkin:

- 1) Kasbiy shakllanishning boshlanishi (tashkilotga kirish, unda o'z o'rnini topish) - 20-24 yoshlarda.
- 2) O'zini namoyon etish, muvaffaqiyatga erishish, tashkilot tomonilan tan olinishi – 30 yoshlar atrofida
- 3) Yuksak kasbiy mahoratga yetishish, o'z qobiliyatlarini yanada kengroq doiraga tatbiq etish, tashkilotda egallab turgan holatini yanada mustahkamlash – taxminan 35-40 yoshlar
- 4) O'z yutuqlarini, bajargan ishlarining ahamiyatini qayta baholash, hayot yo'lini to'g'ri tanlaganmi yoki yo'qmi haqidagi shubhalarni tahlil etish – 40-50 yoshlar oralig'ida.

5) Mohirlik bosqichi. Bunda yuqori malakali mutaxassis diqqate'tiborini hamkasaba xodimlariga yordam berishga qaratadi, o'z tashkiloti ravnaqi haqida qayg'uradi, boshqaruv mahoratlarini namoyish etadi – 50 yoshdan so'ng va nafaqaga jo'naguncha davom etadi.

Bunday tartibni bayon etishdan asosiy maqsad shuki, ko'rsatilgan bosqichlar almashishi davrida inson o'z hayotida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar tufayli ma'lum qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Yangi davrga o'tish bir tomondan tabiiy rivojlanish natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan yangi va noma'lum vaziyatda faoliyat olib borish hamdir. Shuning uchun, bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish inqirozli bo'lishini bilishning o'zi mana shunday vaziyatlarga tetik qarashni, bu qiyinchiliklar vaqtinchalik ekanligini anglashga yordam beradi va inqrozli oraliqdan ancha ishon bilan yengib o'tishni ta'minlaydi.

Ushbu ta'kid shunday vaziyat o'z-o'zidan o'tib ketishini kutib, qo'l qovushtirib utirish kerak degani emas, albatta. Inqirozli hollarga tushish ehtimolini kamaytirish uchun xodim quyidagi oriyentirlar bilan faoliyat olib borishi tavsiya etiladi:

1. Bugungi kunning tashvishi bilan emas, balki aniq maqsadga intilib yashang
2. Hayotga va mehnatga bo'lgan intilishga oid mas'ullikni o'z bo'yningizga oling. Sizdan boshqa hech kim taqdiringiz uchun mas'ul bo'lolmaydi. Psixologiyada «o'zgalar yordamiga muxtojlikning» hayot davomida orttirilgan holati aniqlangan bo'lib, u insonning boshqalardan yordam kutib yashashida, o'z kuchi va imkoniyatiga yetarli darajada ishonmasligida ifodalandi. Iloji boricha bu holatdan kochishga va hayotingizning barcha jabhalari bo'yicha faol bo'lish uchun mas'uliyatni o'zingizga

oling.

3. Shuni yodda tutingki, insonlar va tashkilotlar aynan qiyinchilik davrida rivojlanadi. Qiyinchiliklar va inqiroz eski uslub ishlamayotganligi belgisi bo'lib, eskicha hayat tarzini o'zgartirish, undan voz kechish zaruratidir. Mavjud qiyinchilik va omadsizliklarga shu yo'sinda qarash imkoniyatimizni yana jonlantirishni, yangi yo'llar izlab yutuq sari intilishimizni taqozo etadi.

4. Mehnatga bo'lgan motivatsiyamiz – hayotga bo'lgan motivatsiyamizning bir qismidir xolos. Bunday ta'rif mehnatga bo'lgan munosabatimizni o'zgartirish uchun yanada yangi imkoniyatlar beradi. Hayotimizga, dam olish sohamizga yangilik kiritish mehnatga oid motivatsiyamizga ham yangilik olib kiradi, uni yanada rang-barang qiladi va demak uning hayotchanligini ta'minlaydi.

Qayd etilgan fikrlar va tadbirlar har bir rahbar va hatto xodimda uchrashi mumkin bo'lgan inqirozli davrlarga xos motivatsiya susayishini qayta jonlantirish, mehnatga yangi shijoat bilan kirishishni ta'minlaydigan holatlardir.

Majlislar o'tkazish texnologiyasi

Ish yuzasidan o'tadigan uchrashuvlar, yig'ilish va majlislar boshqaruvdagagi muammolarni asosiy hal etish vositasi bo'lib hisoblanadi. Bunday yig'ilishlarda nafaqat ishga aloqador masalalar, balki xodimlar munosabatlari psixologiyasiga oid vazifalar ham hal etiladi. Masalan, yig'ilish olib borar ekan rahbar o'zining avtokratlik yoki demokratik tamoyillarga moyilligini namoyish etadi, xodimlar orasida ishonchlilarni ajratish va ularga qo'shimcha mas'uliyat yuklash tadbirlarini amalga oshiradi. Bu esa tashkilot ichidagi yig'ilishlar ko'pqirraliligidan va ularni amalga oshirishda mohirlik talab etishidan dalolatdir. Rahbar ish vaqtining 70% ni yig'ilishlarda o'tkazadi. Afsuski, bunday yig'ilishlarning ko'pchiligi samarasiz bo'lib va buning sababi majlisni tayyorlash va o'tkazish paytida tashkiliy va psixologik xatolarga yo'l qo'yilishidir. Boshqaruv nazariyasida uch xil yig'ilishlar farqlanadi:

1. Ma'lumot to'plashga qaratilgan suhbat. Bu tadbir xodimlar dan hisobot yig'ish uchungina o'tkaziladi. Bunday tarzdagi hisobot yozma matndan ko'ra afzalroq bo'lib, rahbar xohlagan vaqtida aniqlashtiruvchi savollar berishi mumkin. Boshqa afzallik shundan iboratki, hisobot berayotgan xodimni tinglash orqali, boshqalar tashkilotdagi umumiylah haqida to'la tasavvurga ega bo'la boshlaydilar;

2. Qaror qabul qilish maqsadidagi yig'ilish. Bunda ma'lum muammo yuzasidan turli bo'lim mutaxassislarining fikrlarini bir nuqtaga to'plash orqali bahs uyuştiriladi va qaror qabul qilinadi;

3. Ijodiy guruh yig'ilishi. Bunda yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish haqida fikr alamashinadi.

Ish yuzasidan bo'ladigan yig'ilishlar samarali uslub bo'lib, ularda tashkilot xayotiga oid muhim boshqaruv qarorlari qabul qilinadi va ularni ijro etish imkoniyatlari tahlil etadi. Yig'ilishlar samaradorligi asosan korxona boshqaruviga oid ma'lumotlar ishlab chiqish xajmi bilan o'lchanadi. Shartli ravishda shunday deyin mumkin – yig'ilishga qadar mavjud bo'lgan ma'lumotlarni majlis so'ngida to'plangan ma'lumotlarga nisbati bajarilgan ishning samarasini ifodalaydi. Agar ushbu nisbat birga teng bo'lsa, bu yig'ilish befoyda, bekorga vaqt o'tgan va ish uchun xech narsa bermagan hisoblanadi. Yig'ilish shu paytida o'z vazifasini bajargan hisoblanadiki, qachonki unda hal etilmagan ishlarga oid muammolar ko'rilsa va bir kishi uddalay

olmaydigan masalalar ustida mutaxassislar guruhi bosh qotirsalar.

Ish yuzasidan o'tadigan yig'ilishda qatnashuvchilar aniq biron masala yuzasidan to'planishi, ular muhokamadagi masala bo'yicha mutaxassis bo'lishlari lozim. Ish yuzasidan bo'ladijan yig'ilishda masala yuzasidan malakaga ega bo'limgan ishtirokchilarning qatnashishlari maslahat berilmaydi, chunki ularning fikrini eshitish va muhokama etishga sarflanadigan vaqt guruh faoliyatini besamara etadi. Yig'ilishga tayyorgarlik odatda qaror loyihasini ishlab chiqish, ma'lumotlarni qisqa bayonnomma va diagrammalar tarzida yaratish bilan tugallanadi. Muammo yechimining mavjud yechimlari taxmin tarzida ishlab chiqiladi.

Odatda yig'ilish rahbar yoki yordamchilaridan birining ma'rzasidan boshlanadi. Bu ma'ruzada muhokama etilajak masala bo'yicha hamma ma'lumotlar iloji boricha aniq va lo'nda bayon etilishi, agar masalada noaniqliklar bo'lsa bunga ishtirokchilarning diqqatini jalb etish va ularni hal etish yo'llari ifodalanishi lozim. Yig'ilish olib boruvchi guruh fikrini muhokama etilayotgan masala doirasida ushlab turishi, aniqlashtiruvchi savollar berishi lozim.

Lider, ayniqsa, jamoada axloq normalari saqlanishiga e'tibor berishi va malakali mutaxassislar sha'niga biron nojo'ya gap tegib ketmasligiga e'tibor berishi tavsiya etiladi. Yig'ilishlar orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy garovi guruhdagi ijodiylik ruhi bo'lib, bu omilni kuchaytirishning asosiy uslullaridan biri jamoadagi mavjud erkinlik va siqvning yo'qligidir.

Ish yuzasidan o'tadigan yig'ilishlar boshqaruv munosabatlari singari demokratik yoki avtokratik tarzda bo'lishi mumkin. Yig'ilishning demokratik shakli rahbarning kasbiy va psixologik mahorati xodimlarnikidan ustun bo'lgan holatda namoyon bo'ladi. Aynan shunday hxolatda rahbar xodimlari bilan yuzaga keladigan munozarani mutaxassis va tan olingan rahbar sifatida olib borishi mumkin. Avtokratik shakldagi yig'ilishda hamma narsani rahbarning o'zi hal etadi. Bunday tarzda o'tuvchi yig'ilishda xodimlardan yetarli darajadagi ma'lumotlarni olish qiyin va guruhning faolligi yakka rahbarning tashabbusi orqali ifodalanadi, natijada oxirgi qaror uchun mas'uliyat ham uning zimmasiga yuklanadi.

Avtokratlik guruhni faollashtiruvchi uslublar toifasiga kirmaydi. Yig'ilish so'ngidagi eng muhim natija boshqaruv qarorlari va ularni amalga oshirish yuzasidan yangi fikrlarga ega bo'lishdir. Lekin yangi g'oya doimo eskisini inkor etishdir, bunday vaziyat esa o'z navbatida tanqidiy fikrlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun rahbarning vazifasi guruh oldiga qo'yilgan maqsadga muvofiq ravishda guruhiy muhitni boshqarish, vaziyatni keskinlashtirmay maqsad sari yo'naltirishdir. Keskin vaziyatda, qarama-qarshi fikrlar muhitida qabul qilingan qaror uning ijrosini ham qiyinlashtiradi. o'rinsiz fikrlarni muloyim va adovat uyg'otmay rad etish qaror ijrosida tomonlarning birgalikdagi harakatini ta'minlash uchun zamin yaratadi. Boshqaruv qarorlari bilan bog'liq yig'ilishlarni yana bir toifasi guruh yordamida ishlab chiqilgan yoki mavjud qarorni amalga oshirishda yagona yondoshuvni ishlab chiqish bo'lib hisoblanadi.

Boshqaruv qarorlarini amalga oshirishning bu bosqichida dastlab qarama-qarshi fikrga ega bo'lgan tomonlarni maqsad sari hamkorlikda ishslashini ta'minlash asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

Rahbar qaror ijrosini guruhga muhokama uchun taqdim etar ekan, qarorni amalga oshirish bo'yicha vazifalar taqsimotini iloji boricha guruh a'zolari tashabbusi

orqali amalga oshirishga intilishi lozim. Ijro samaradorligining asosiy garovi tashabbus kim tomonida bo'lishidadir.

Rahbar tomonidan tayinlangan ijroning kafolati doimiy rahbar nazorati orqali ta'minlanadi. Agar tashabbus xodimdan chiqsa va o'zi shaxsan vazifa ijrosini qabul qilsa, demak mas'uliyat ham xodim bo'ynida bo'ladi. Yig'ilishni aynan shu yo'sinda olib borish va xodimlarning mas'uliyatni o'zlar qabul qilishlari sharoitini yaratish rahbar oldida turgan asosiy vazifadir.

Albatta, bu kabi yig'ilishlarni olib borish va boshqarish rahbardan ma'lum psixologik yetuklikni talab etadi va iloji boricha avtokratik ko'nikmalardan voz kechishni taqozo etadi. Bunday yig'ilish olib borish texnologiyalaridagi asosiy talablardan biri - har bir taqsimplanayotgan vazifani konkret ijrochi bilan bog'lash va bu majburiyatlarni kog'ozda qayd etishdir. Bu maqsadda flip-chat yoki plastikli doskalar qo'l keladi. Bu qaydlarda ijrochi, u qabul qilgan vazifa, ijro muddati va qanday natija olinishi ko'rsatilishi lozim. Agar ijro bir necha kishi ishtirokida amalga oshirilsa hamkorlikda bo'ladigan xodim va bo'limlarning nomlari ham belgilab o'tilishi maqsadga muvofiq. Bunday tadbir nafaqat qaror ijrosini, balki uning nazoratini va zarur bo'lgan paytda kerakli o'zgartirishlar kiritish tadbirlarini ham yengillashtiradi.

Qarorni ijro etish bo'yicha monitoring yig'ilishlarini muntazam o'tkazibyu borish, taqdirlash va xatolarni bartaraf etish bo'yicha xulosalar chiqarish juda muhimdir. Natijaga erishish yulidagi yig'ilishlar asosiy jihatlaridan biri ishtirokchilarni qay tarzda taklif etishdir. Muhim qaror ishlab chiqishga qaratilgan yig'ilishga ishtirokchilarni rahbar kotiba orqali telefonda taklif etmasligi lozim. Bunday yig'ilishlarga xat yoki maxsus tarzda tayyorlangan yozma taklifnomasi orqali xabar berilgani ma'qul.

Vaqtni boshqarish Ish jarayonida aksariyat holdagi muvaffaqiyatlar biron ishni to'g'ri bajarish evaziga emas, balki shu ishni o'z vaqtida bajarish oqibatida erishiladi. Shuning uchun vaqtdan ratsional foydalanish – kasbiy va ish sohalaridagi muvaffaqiyatning asosiy omilidir. Albatta, vaqt kaytarib bulmas boylik va uni uzaytirib ham bo'lmaydi. Shuning uchun inson ixtiyoridagi yagona imkoniyat vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishdir.

Zamonaviy rahbar uchun eng muammoli masalalardan biri vaqtni yetkaza olishdir. «qani endi sutkada 24 emasu, 34 soat bo'lsa» degan rahbarlar kam emas. Vaqtdan unumli foydalanish yo'lida bir nechta tashkiliy uslublar bo'lib, ularga rioya qilish vaqtimizni tejashga va ma'lum vaqt oralig'ida oldingiga nisbatan ko'proq ish bajarishga erishish imkonini beradi.

Bundan tashqari, kator psixologik omillar xam borki, ularni hisobga olish va balki ular ustida ishslash vaqtdan unumli foydalanish uchun asos yaratadi. Shunday qilib, vaqtdan unumli foydalanish masalasini muhokama etishda ikki asosiy jihatni – tashkiliy va psixologik tomonlarni tahlil etish mumkin. Tashkiliy tomonlar deganda bajarilayotgan ishni rejalshtirish, saralash, hisobga olish kabi tadbirlar nazarda tutiladi. Ish kunini unumli tashkil etishdagi birinchi qadam mavjud vaqtni yetarli emasligi sabablarini aniqlashdan iboratdir.

Buning uchun bir qog'oz olib unga ustun tarzida vaqtingiz tanqisligi sabablarini yozib chiqing. Bu sabablar nimaning oqibati ekanligini tahlil eting. Bu sabablarni keltirib chiqaruvchi muammolarni hal etish yo'llarini izlang.

Vaqtni to'g'ri taqsimlashdagi eng asosiy masalalardan biri kundalik vazifalarni to'g'ri taqsimlashdir. Rahbar o'z ixtiyoridagi vazifalarni turli belgilar va usullarga ko'ra taqsimlashi mumkin. Bular ichida eng samaralisi, bajarilishi lozim bo'lgan vazifaning ahamiyat va tezkorlik mezonlari bo'yicha taqsimlashdir. Mazkur uslubga binoan tashkilot rahbari ixtiyorida bo'lgan vazifalar quyidagi 4 katakka joylashtiriladi.

Ahamiyatli va tezda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar	Ahamiyatli va tezda bajarilishi shart bo'limgan vazifalar
Kundalik ishlab chiqarishda yuzaga keladigan muammolar bo'lib, ular tezda hal etilishi lozim. Bu masalalar tezda hal etilmasa ishlab chiqarish jarayoni to'xtab qoladi.	Tashkilotning istiqboldagi rejalarini belgilash. Strategik rejalashtirish. Tashkilotning 5-10 va hatto 15 yildan keyingi holati va bunga hozirgi kunda qanday qilib taylorlanish kerak. Yangi, xaridortalab mahsulotlar yaratish ustida bosh qotirish
Ahamiyatsiz, lekin darhol hal etiladigan vazifalar	Ahamiyatsiz va bajarilishi lozim bo'limgan vazifalar
Xat jo'natish, telefonga javob berish, faks qabul qilib olish va x.k.	Gaplashib o'tirish, chekish, ish paytida turli o'yinlarga vaqt ajratish

Tashkilot miqyosida amalga oshiriladigan vazifalarning hammasini shu to'rt katakka joylashtirish mumkin. Endi, ushbu katakda ko'rsatilgan ta'riflarni diqqat bilan o'qib chiqing va rahbar sifatida qaysi katakdagi ishlar bilan ko'proq shug'ullanishingizni ayting. Boshqaruva sohasidagi yetakchi mutaxassislar fikricha ushbu kataklardagi vazifalar taqsimoti rahbar lavozimiga qarab quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

Birinchi katak korxona menejeri lavozimida ishlovchi xodim mas'uliyatidan kelib chiqib bajariladigan vazifalar. Albatta, boshqaruva tajribamizga endigina kirib kelayotgan menejer so'zi bizda mavjud bo'lim boshliqlari, uchastka boshliqlari kabi lavozimlarda ishlovchi mutaxassisliklarga mos keladi. Shu jihatdan olganda, menejer ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi xodimdir. Ikkinci katak tashkilot rahbari zimmasiga yuklatiladigan vazifalar majmuidir. Rahbar o'zining asosiy e'tiborini strategik rejalar qurishga, istiqbolda tashkilotni kutayotgan maqsadlarni tanlash ustida bosh qotirishi lozim. To'g'ri, hozirgi zamon o'tish davriga xos iqtisodiyotimiz o'zining ko'p jihatlari bilan rahbar mas'uliyati doirasidagi ushbu ta'riflarga mos kelmasligi mumkin. Lekin, rahbar iloji boricha kundalik tezkor vazifalarni o'zidan ozod etishi va iloji boricha ertangi kun haqida qayg'urishi uning lavozimiga qo'yiluvchi talabdir.

Yuqorida keltirilgan vazifalar taqsimotiga binoan uchinchi katakka xos bo'lgan vazifalar doimo rahbar yordamchisi va kotiba orqali bajarilishi lozim. Rahbar bu kabi ishlarga vaqt sarflashi mutlaqo o'rinsiz. Va nihoyat, to'rtinchi katak nafaqat rahbar, balki tashkilot xodimlarining qanchalik ish bilan bandligi, vaqtini behuda

sarflayotgani ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Demak, har bir rahbar o'z vaqtidan unumli foydalanishi uchun o'z vakolati va zimmasidagi mas'uliyatdan kelib chiqqan holda vazifalarni saralab olishi, o'z mavqeい uchun ahamiyatli va ahamiyatsiz ishlarni bir-biridan ajratib olishi lozim.

Keyingi tashkiliy imkoniyatlardan yana biri – bajarilishi lozim bo'lgan vazifani iloji boricha yordamchilar zimmasiga o'tkazishdir. Rahbar bajarayotgan ishning doimo shunday qismi mavjudki, uni bevosita rahbarning o'zi bajarishi shart emas. Mavjud ishni tarkibiy qismlarga bo'lish va ularni bajarish vakolatini xodimlarga o'tkazish rahbar vaqtini tejashdagи asosiy uslullardan biri. Xatto rahbar ba'zida o'ziga «Shu ishni bajarishim shartmi, bajarmasam nima bo'ladi?» degan savolni berib turishi ham ikkinchi darajali ishlarni assosiylaridan ajratib olish imkonini beradi.


Boshqaruv vazifalarini taqsimlay olmaslik, rahbarning o'z vakolatlari ma'lum qismini qo'l ostidagilarga topshira olmaslik xodimlarga ishonmaslik belgisidir va bunday holat jamoada salbiy muhit shakllanishiga olib keladi.

Chet el biznes boshqaruviga oid adabiyotlarda ko'rsatilishicha istiqboldagi maqsadlarga yo'nalganlik tashkilotning turli bo'g'in rahbarlarida quyidagicha taqsimlanishi lozim ekan: masalan, korporatsiya boshqaruvi raisi 20 yil oldinga qarab tashkilot ishini rejalashtirsa, boshqaruv a'zolari 12-15 yillik istiqbolni ko'ra olishlari kerak va biron soha yo'nalishidagi rahbar, ya'ni menejerlar esa 7 yillik istiqbolni prognoz qilishlari lozim.

Sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra menejerning ish vaqtiga taqsimoti quyidagi tartibga to'g'ri kelar ekan:

- Ishdagi odatiy va kunda qaytarilib turadigan muammolarni yechishga 80% vaqt ketadi va bu sarfalangan vaqt 20% muvaffaqiyatni keltiradi.
- Muhim va strategik muammolarni hal etishga 20% vaqt ketadi, lekin bu mehnat evaziga korxonanining 80% muvaffaqiyatiga erishiladi.

Shunday ta'rifdan kelib chiqqan holda tashkilot turli bo'g'lnlari rahbarlariga xos bo'lgan vaqt ajratish shaklini quyidagicha tasvirlash mumkin:



5.3.2. Чизма. Ташкилотдаги вазифаларни бошқариш ва бажаришга сарфланадиган вақтнинг турли бўғин раҳбарлари орасида тақсимланиши

Rahbarning vaqtini boshqarishi muammoni malakali tarzda aniqlay olish, maqsad va vazifani to'g'ri belgilash, xodimlar o'rtasida ishni taqsimlay olish qobiliyatlariga asoslanadi. Yuqorida sanab o'tilgan tadbirlar ko'proq texnologik mazmunga ega bo'lib, vaqt yetishmasligining psixologik sabablari xam mavjud. Kuyida sanab o'tiladigan shaxs psixologik muammolarini malakali hal etish orqali

rahbar o'z vaqtidan yanada unumli foydalanishda qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin:

1. Doimiy shoshilish. Shoshilinch holatdagi kimsa biron masala ustida to'xtab, batafsil mulohaza yuritolmaydi, manzur qaror qabul qila olmaydi va ko'p hollarda uchraganidek, ushbu masalaga yana va yana qaytish zarurati tug'iladi.

2. Charchash. Doimiy shoshilinch sharoitida uzoq vaqt ishslash natijasida yuzaga keladigan holat.

3. Haddan tashqari ko'p vazifalarni o'z zimmasiga olish.

4. Pala-partishlik. Ishni yomon tashkil etish, rejalashtirmaslik natijasidir. Ba'zi hollarda inson o'z hissiyotini boshqara olmaslik oqibatida xam namoyon bo'ladi.

5. Doimo uyga ish olish. Jismoniy va ruhiy charchoq paydo bo'lishi va natijada ish vaqtida mehnat qilish qobiliyatining susayishida namoyon bo'ladi.

6. Ishni rejalashtirmaslik. Ko'p hollarda bu xislat alohida shaxs emas, balki u ishlaydigan tashkilot muammosi hamdir.

7. Mehnat qilishga bo'lgan motivatsiyaning sustligi. Bu omil ish unumdorligining pastligiga va natijada me'yordagi vazifalarni vaqtida bajara olmaslikka sabab bo'ladi.

8. Iroda sustligi. Diqqatni jamlay olmaslikda, beqarorlikda namoyon bo'ladi. qaror qabul qilishning qiyinligi uning ijrosini ham orqaga cho'zib yuboradi.

9. Ishni bajarishda kasbiy mohirlik – professionalizmning yetishmasligi.

Vaqtdan unumli foydalanishga salbiy ta'sir etuvchi shunday omillar ham borki, ular ko'proq ijtimoiy -psixologik mazmun kasb etadi:

jamoada ijobiy o'zaro munosabatlarni saqlash va rivojlantirishga vazifadan ko'ra ko'proq e'tibor beriladi;

hamkorlikdan ko'ra musobaqa/qarama-qarshi turish siyosati ustunroq turadi.

Vazifani muvaffaqiyatli hal etishga ishonchning yo'qligi yoki kamligi

Vaziyatni qanday hal etish haqida birovning ko'rsatmasini tazyiq ostida qabul qilish

Vazifani qanday hal etish bo'yicha rahbarlikning, yo'riqnomaning shakllanmaganligi.

Demak, vaqtini to'g'ri taqsimlash va ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish insondan ma'lum psixologik bilimlarni bilishni talab qilish bilan birga ushbu muammolar bo'yicha shaxsning o'z ustida muntazam ish olib borishi orqali hal etish imkonyatini beradi. Yuqorida taklif etilganidek, qog'oz va qalam olib qaysi muammolar tufayli vaqt yo'qolishi sabablarini aniqlang va shu sababni bartaraf etish bo'yicha yangi xulq shakllarini o'zingizda rivojlantiring. Bu tadbirni amalga oshirishda kichik bir psixologik mashq taklif etishimiz mumkin.

U yoki bu tadbirga kirishar ekansiz, masalan, tez qaror qabul qilmokchisiz va qabul qilingan qarorga boshqa qaytmoqchi emassiz. hayotingizda ishonchli va tez qaror qabul qilgan biron vaziyatni eslang. Shu vaziyatni eslash orqali o'sha paytdagi holatni qayta paydo qilishga harakat qiling. Ishonchli qaror qabul qilganingizda qanday vaziyatda edingiz, atrofingizda qanday odamlar bor edi, turgan joyingizni ko'z odingizga keltiring, qanday tovushlar kelayotganini eslang va jonlantiring. o'sha vaziyatdagi atrof muhit va tasavvurlarni maksimal darajada qayta tiklash natijasida shu vaziyatga xos bo'lgan hislar yana tiklana boshlaydi. Mana shu qayta tiklangan ishonch hissi bilan mavjud muammoga qarang va yechim o'z-o'zidan, tez kelganini

his etasiz.

Ushbu mavzuni yakunlar ekanmiz, vaqtini samarali boshqarish bo'yicha har bir rahbar va xodim yodda tutishi lozim bo'lgan qoidalarni eslatib o'tmoqchimiz:

1. Vaqtingizni haqiqatan ham juda muhim vazifalarni hal etishga sarflang
2. Kuningizni rejalar bilan to'ldirib yubormang, belgilangan ishlaringiz orasida tasodifiy va tezkor ishlar uchun oraliqlar qoldiring
3. Muhim (3 tagacha) va ikkinchi darajali (5 tagacha) ishlarni rejalashtiring
4. Kuningizni qiyin, muhim va yoqimsizroq ishlardan boshlang va yakunlashda oddiyoq, yoqimliroq ishlarga o'ting
5. Vaqtini shoshiltirmang. Ish vaqtidan keragidan ortig'ini siqib chiqarishga harakat qilmang
6. Agar vaqtingiz bo'lsa vazifani hal etishga bugunoq kirishaqoling. Muammoni tezroq va batafsilroq hal etishga kirishing. qolgan vaqtini dam olish yoki boshqa ishlarni hal etishga sarflaysiz.
7. Vazifani yoki uning bir qismini xodimlarga bo'lib berish imkoniyatini izlang
8. Eski ishni tugallab keyin yangisiga kiriishing. Yangi ishni boshlar ekansiz, har qanday sharoitda uni tugatishga ishonchingiz komil bo'lsin.
9. Vaqtingizni oladigan yoki o'z vaqtini sizning hisobingizga tejaydigan kimsalardan uzoqroq bo'ling.
10. Vaqtini boshqarishga oid qobiliyatlarining tahlil qilishga o'rganing
11. Vaqtning hatto eng kichik bo'laklarini ham tejang.
12. O'zingizni «harakatsizlikda» ayblayvermang. Rahbar faoliyatida ijodiy tanaffuslar bo'lib turishi kerak.

Boshqaruvda nazoratni takomillashtirish

Nazoratning ikki usuli farqlanadi:

1. Sifatni nazorat etish
2. Xodimlarni nazorat etish

Sifatni nazorat etish: Bunday yondoshuvda markaziy o'rinda bajarilayotgan mehnat va chiqarilayotgan mahsulot turadi Xodimlar bajarilayotgan ish ma'lum sifatda ado etilishiga kafolat bo'lib xizmat qiladilar.

Xodimlarni nazorat etish: Bunday yondoshuvda markaziy o'rinda xodim turadi. Rahbar hamma xodimlar iloji boricha yaxshi sharoitda mehnat qilishlariga e'tibor qaratadi. Xodimlarning ehtiyojlarini iloji boricha qondirish qilinayotgan ish yaxshi sifatlarda bajarilishi uchun asos bo'ladi.

Boshqaruv o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Maqsadlarni bilish
2. O'zingiz nimaga erishmoqchi ekanligingiz va xodimlaringizdan nimani kutayotganligingiz haqida aniq tasavvurga ega bo'lish
3. Tashkilotning faoliyati qayerga yo'nalyapti? Bu savolga aniq javobga ega bo'lmay insonlarni boshqarish mumkin emas.

Samarali faoliyat olib borayotgan tashkilotlarni kuzatish natijasida quyidagi standartlar aniqlandi va har bir tashkilot beixtiyor bularni bajarishga intiladi:

- Mijozlarga yaxshi xizmat ko'rsatish;
- Mijozlar sonini oshirish;
- Chiqimlarni kamaytirish;
- Ish joyi va atrofni toza va tartibli ushslash;

Zarur darajadagi ishlab chiqarish samaradorligini ushlab turish.

Rahbar ushbu ro'yxatdan vazifalarni dolzarbligi bo'yicha tanlab olishi va ularni tartib bilan amalga oshirishi zarur.

Insonlarni bilish Hamma insonlarning ehtiyojlari bir xil bo'lishiga qaramay, ular har bir inson uchun turlicha ahamiyatga egadir. Har bir insonga tegishli ehtiyojlar majmuasini bilish – shu kimsa qalbiga yo'l topish bilan barobardir.

Attestatsiya

Attestatsiya – xodimning mehnat faoliyati natijalari bo'yicha yil yakunida baholash. Attestatsiya quyidagi yo'naliishlarda o'tadi:

- Bajarilgan mehnatning sifati;
- Bajarilgan mehnatning iqtisodiy samaradorligi;
- Xatolarga yo'l qo'ymaslik borasida erishilgan yutuqlar;
- Vazifalarni bajarish tezligi;
- Kog'ozlar bilan ishslash;
- Boshqa mutaxassilarni jalg etish va birgalikda ishslash;
- Guruhda ishslash.

Intizom va axloq Intizom – bu xodim o'z ixtiyoricha shaxsiy lahzalik xohishlari va qulayliklarini guruh manfaatlariga bo'ysundirish vaziyatidan iboratdir Axloq – bu guruhiy holat bo'lib, nima yaxshi-yu, nima yomon haqidagi qoidalarning amal qilishidir.

Kollektivda yaxshi intizom mavjudligini aniqlash mezonlari:

Ish joyi:

- Ozoda
- Tartibli
- Xavfsiz
- Har bir narsa o'z joyida turadi

Xodimlarning tashqi ko'rinishi:

- Qulay va ishga mos tarzda kiyangan
- Kiyim ish sharoiti talab qilgan darajada toza
- Hamma joyda xavfsiz uskunalaridan foydalaniladi

Nazorat va boshqaruv

- Xodimlar qoidalarga o'zlari mustaqil ravishda amal qiladilar
- Yaxshi namuna ko'rsatadilar
- O'z mustaqilliklari imkoniyati va chegarasini his etadilar
- Tashkilotni tanqid qilmaydilar

Mehnatning o'tishi

- Yaxshi sifat
- Yaxshi miqdor ko'rsatkichlari
- Chiqimlar iloji boricha past
- To'xtab qolish va yo'qotishlar yo'q

Xodimlarning ishdagi xulqi

- Vaqtga rioya etish
- Ishga muntazam qatnash
- Ichki intizomni rivojlantirish
- Dam olish vaqtini cho'zib yubormaydi
- Rahbariyatga va o'zaro hurmatni namoyish etadi

Korxona xodimlari intizomida muammolarni yuzaga keltiruvchi manbaalar:

1. Rahbar yetarli bo'lgan obro'-e'tiborga ega emas
2. Ishga jalb etish va undash tartiblari samarali natija olishga, sifat va xavfsizlikka mos kelmaydi
3. Boshqaruv apparati yaxshi namuna bo'la olmaydi
4. Bema'ni qoidalarning mavjudligi
5. Mavjud qoidalar batafsil e'lon qilinmagan va qabul kilinmagan
6. Sust boshqaruv
7. Xodimlar o'z diqqatlarini jalb etuvchi ish xajmiga ega emaslar
8. Yangi xodimlar kollektivga noto'g'ri olib kiriladi
9. Kollektivda madaniyat, axloq va odob darajasi past xodimlar mavjud.

Rahbar sifatida o'z obro'-e'tiboringizni qanday qilib mustahkamlashingiz mumkin:

1. Kamsitilgan obro'. Bu holat o'zidan yuqori mansabga ega bo'lgan rahbarning munosabati natijasida sodir bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda, yuqori bo'g'in rahbari o'zidan past rahbarni tanqid qilgan holda uning obro'sini xodimlar oldida qadrsizlantiradi. Bunday holat yuzaga kelganda o'z rahbariningizga Sizning obro'yingizni olish bilan birga u o'z zimmasiga Sizning ham ma'suliyatingizni olayotganligini muloyim tarzda yetkazing. Bunday yangi va o'rinsiz ma'suliyat unga yana qo'shimcha muammolar olib kelishi mumkinligini his eta olsin.

2. Bilimlar.

- Mustaqil ravishda o'z bilim va malakangizni oshirish bilan shug'ullaning
- Jamoa hayoti iyehnat jarayoni haqida doimo to'la ma'lumotga ega bo'ling
- Yangi ma'lumotlarni doimo so'rab bilib yuring
- Boshqaruv malakalaringizni rivojlantiring

3. Shaxsiy xislatlar:

- Yaxshi tinglovchi bo'ling, faol tinglash uslubidlan foydalaning
- Yangi yondoshuvni qabul qilishga tayyor bo'ling
- Jasurlik xislatlariga ega bo'ling
- Doimo ma'suliyatingizni his eting
- Atrofdagilarda o'z shaxsingiz va malakangizga oid ishonch uyg'oting
- Uzoqni ko'rib ish yuriting
- Atrofdagilarga iltifotli bo'ling, lekin rasmiyatga berilmang
- Muloyim va muloqotga molik bo'ling
- Kollektiv tomonidan hurmatga qozonishga erishing, buning uchun doimo jamoa manfaatlari haqida qayg'uring
- Liderga xos xislatlaringizni kuchaytiring

Xotorn tadqiqotlari 1924 yilda AQShning Xotorn shahridagi «Western elektrik» kompaniyasiga qarashli tashkilotlardan birida Garvard biznes maktabining bir guruh olimlari tomonidan tadqiqotlar o'tkazila boshlandi. Keyinchalik bu tadqiqotlarga E.Meyo rahbarlik qildi.

Birinchi seriya tajribalar xona yoritilganligining ishlab chikarish samarasiga ta'siri bilan bog'liq edi. Tajribalar telefon apparatlari yig'ilayotgan bir nechta sexlarda o'tkazildi. Tadqiqotchilar ishlab chiqarish xonalaridagi yorug'lik nurini o'zgartira boshladilar. Ularning taxminlaricha xona kuchliroq yoritilishi bilan mahsulot ishlab

chiqarish ham oshishi kerak edi.

Lekin, tadqiqotlar natijasi ishlab chiqarish unumdorligi ko'tarilishi va xona yorug'ligi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqa mavjud emasligini ko'rsatdi. Tadqiqotchilar ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi boshqa omillarni ham aniqlash va bartaraf etish niyatida bo'ldilar. Tadqiqot e'tiborida turgan uchta sexdan ikkita guruh tuzildi va bu guruhlar bir xil mehnat natijalariga ega edilar.

Guruhlardan birida xona yorug'ligini ko'tardilar. Ikkinci guruhda esa yorug'lik avvalgiday qolaverdi. O'zaro musobaqa kayfiyati uyg'onmasligi uchun ikkala guruh turli binolarda joylashtirilgan edi.

Bu safar ishlab chiqarish ikkala guruhda ham sezilarli darajada oshdi. Shunda tajriba o'tkazilayotgan guruhdagi yorug'lik sezilarli darajada kamaytirildi. Lekin ishlab chiqarish unumdorligi ikkala guruhda ham ko'tarilib borardi. Tajriba guruhi xonasining yorug'ligi hatto oy nuriga yaqinlashtirilganda ham nisbatan yuqori darjadagi ishlab chiqarish samardorligi saqlanib turardi. Bunday hayron qolarlik darjadagi natijalar ishlab chiqarishga yoritishdan ham muhimrok boshqa omillar ta'sir etishi haqida dalolat berardi. Keyingi tadqiqotlar 1927 yildan boshlab E.Meyo Rahbarligida o'tkazila boshlandi.

Ushbu tadqiqotni o'tkazishdan maqsad ishlab chiqarish samaradorligi o'sishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat bo'lib, izlanish ishlari bir necha bosqichni o'z ichiga oldi. Olti ayoldan iborat yangi ishchilar guruhi tanlandi. Guruhning kamsonligi ishchilarni muntazam va batafsil kuzatish niyatida tuzilgan edi. Bu mehnat jamoasida bir necha oy mobaynida ish sharoitiga ta'sir etuvchi turli omillar sinala boshlandi. Tadqiqotchilar dam olish tanaffuslarini kiritdilar va ma'lum vaqt o'tgandan keyin ularni bekor qildilar, mehnat kunlari va haftalarni ko'paytirdilar va kamaytirdilar, maosh kiritishga oid qoidalarni o'zgartirib bordilar va hatto xodimlarni nazorat qilish shakllarini ham o'zgartirdilar.

Kiritilayotgan omillarning qandaylidan qat'iy nazar ishlab chiqarish samaradorligi oshib borardi. Natijada tadqiqotchilar ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi sababi turli-tuman mazmundagi tadbirlerda emas, balki ijtimoiy psixologik omillarda ekan, degan xulosaga keldilar.

Xo'sh, jamoa hayotidagi bu o'zgarishlarning psixologik negizi nimadan iborat edi, degan savolga quyidagicha javob olindi. Boshqalardan ajratib olingan ishchiquzlar qzlariga diqqat-e'tibor sezdilar.

Ular muhim va qiziqarli tajribada qatnashayotganliklarini bilardilar. Bu esa ularda bajarayotgan ishlaridan faxrlanish hissini uyg'otdi. Bundan tashqari, tajriba davomida boshqaruvs uslubi bir muncha yumshoqroq bo'ldi. Guruhdagi qizlar tanaffus davrlarini o'zlari hal eta boshladilar, ularni ma'muriyatning ba'zi bir rasmiy talablariga rioya etishdan ozod qilishdi. Ishchi qizlarning guruh hayotiga oid masalalarni birgalikda muhokama qilishlari jamoani yanada ahillashtirdi va do'stlik muhitini shakllantirdi. Shunday qilib, tadqiqot e'tibori markazida bo'lgan qizlarning mehnat motivatsiyasi oddiy sharoitdagi ishchilarnikidan farq qilardi.

Meyo mehnat samaradorligining oshishini xodimning biron guruhga mansubligini his etishi va o'zini jamoaning muhim a'zosi deb hisoblashi bilan asosladidi. Bu bilan ijtimoiy ehtiyojlarning qanchalik muhimligi yana bir bor ta'kidlanardi.

Insoniy munosabatlар boshqaruvs omili sifatida Elektron uskunalar ishlab

chiqaruvchi bir firmaning kichik bo'limida olti ayol ishlardi va bu yerda maxsus murakkab elektron trubkaning ichki moslamalari yig'ilardi. Yig'ilayotgan trubkalar bir stoldan ikkinchisiga ketma ket ravishda o'tib turardi. Ish jarayonini boshqarish bo'lim ustasiga yuklangan bo'lib, bundan tashqari yana ikki bo'lim ishini o'z nazoratida tutish ham unga yuklatilgan edi.

Bundan tashqari, liniyada bajarilayotgan ishni birinchi stolda o'tirgan bosh operator lavozimidagi xodim ham kuzatib turardi. Ma'lum bo'lishicha, tadqiqotning boshlanish qismida jamoadagi muhit unchalik yaxshi bo'lmay, xodimlarning qo'nimsizligi, ishga kech qolish hollari ko'p uchrardi va sifatsiz tayyor mahsulot miqdori o'rtacha hisobda 27% bo'lib, bir og'iz so'z bilan aytganda brak sanalardi. Bo'limning ish samaradorligi ko'rsatkichi soatiga 28 ta atrofida trubka tayyorlashdan iborat edi. Muxandislar ishda iloji boricha xatoga yo'l qo'yilmasin deb, ish jarayonini olti bo'lakga bo'lib chiqishdi va har bir xodimga taalluqli ish va mas'uliyatni belgilashga, hatto, har bir bo'lakdagi sarflanadigan vaqtning me'yorini tenglashtirishga ham erishishdi.

Lekin, shunga qaramay, u yoki bu operatorning ish joyida hamon turli muammolar uchrab turar edi. Ayollar oldinma-ketin joylapganliklari tufayli ularning o'zaro muloqotda bo'lishlari qiyin edi. Bir xodima faqat chap va o'ng yonidagi boshqa bir sherigi bilan gaplasha olardi, shunda ham stolidagi ish uskunalarini solingen quti uni to'sib turgani uchun yoniga engashib qarashga yoki o'rnidan turishga majbur edi.

Holbuki, ish bilan band xodim o'zini bunday «erkin» his etishi, hatto ikki nazoratchi, ya'ni usta va bosh operatorga yoqmasdi. Bo'lim xonasida tanaffus paytlari gaplashish yoki yig'ilish uchun joy yo'q edi, faqat tushlik mahali umumiyligi ovqatlanish joyida muloqotga sharoit paydo bo'lardi.

Xodimga uning mehnat natijalari haqida deyarli xech narsa aytildi, faqatgina kundalik qisqa yig'ilishlarda usta ulardan iloji boricha braklar sonini kamaytirishni talab qilardi. Kuniga qancha mahsulot ishlab chiqarish to'g'risidagi topshiriq faqat bosh operator tomonidan qabul qilinardi. Agar, moslamani yig'ish sekin borayotgan bo'lsa, operator xodimlar yoniga kelib, sababini aniqlashga urinardi. Bordi-yu, xodim biron narsani uddalay olmayotganini ko'rsa, yordamlashardi, dangasalik qilayotganini sezsa tanbeh berardi.

Xodimning ruhini ko'tarish maqsadida kompaniya xodimlar ish joylariga o'zgarishlar kiritdi va ayollar bir-birlari bilan muloqotda bo'lib turish uchun qulayliklar yaratdi. Uzun stol o'rniga xodimlar, endi, katta davra stol atrofidan joy olishadi. Bunday o'zgarishlar oqibatida ishlab chiqarish soatiga 35 trubkaga o'sdi, brak mahsulot chiqarish esa 27% dan 18% ga pasaydi, ishga kelmaslik yoki kechikish ham keskin kamaydi.

Ammo bir necha oydan so'ng yangi muammo paydo bo'di – qizlar yanada murakkab ishni bajarish niyatini bildirdilar va o'z ishlari mukammalligini yanada oshirdilar. Xodimlarning xulqida ham o'zgarishlar paydo bo'ldi. Bosh operator buyrug'i bilan ishga chiqmagan xodimaning soddarroq ishini bajarishdan bosh tortish xollari ro'y berdi. Bosh operator va xodimlar o'rtasida ma'lum keskinliklar ko'zga tashlana boshladи, xususan, ular operator tomonidan kiritiluvchi kichik tanaffuslar yuzasidan norozilik bildirdilar.

Endi qizlar smena tugashidan 10-15 min. avval uskunalarini yig'ishtirib qo'yadigan bo'lishdi. Bosh operatorning buyruqlari bajarilmay qoldi va qizlarning

ishdan ertaroq turib ketishdan faqatgina ustanning salobati to'xtatib turardi. Shunga qaramay, ish unumi smena oxiriga kelib pasayib qolardi. Umumiy ishlab chiqarish soatiga 30 trubkagacha kamaydi, brak ko'rsatkichlari esa avvalgisidan ham oshib ketdi. holbuki, sifatsiz ishlarning ko'pchilik qismi qiyin bo'limgan operatsiyalarni bajarish yuzasidan edi. Ishga kelmaslik kabi mehnat intizomini buzish hollari ham o'zgarishlar boshlangunga qadar bo'lgan ko'rsatkichga yaqinlasha boshladи. Bir necha oydan keyin bosh operator ishdan bo'shadi.

Ma’lumki, gaplaShayotgan odamlar biri gapiradi, ikkindiisi tinglaydi, eShitadi. Muloqotning samaradorligi ana Shu ikki qirraning qandalik o‘zaro mosligi, bir - birini to‘ldirishiga bog‘liq ekan. Noto‘g‘ri tasavvurlardan biri Shuki, odamni muomala yoki muloqotga o‘rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so‘zlardan foydalanib, ta’sirdan gapirishga o‘rgatishadi. Uning ikkindi tomoni - tinglaSh qobiliyatiga deyarli e’tibor berilmaydi. MaShhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi “YaxShi suhbatdoSh - yaxShi gapirishni biladigan emas, balki yaxShi tinglaShni biladigan suhbatdoShdir” deganda aynan Shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlaShlarida, ishlayotgan odamlar vaqtining 45% i tinglaSh jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo‘ladiganlar 35 - 40 % oylik maoShlarini odamlarni “tinglaganlari” uchun olarkanlar. Bundan Shunday xulosa kelib diqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglaSh qobiliyati odamga ko‘proq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer “Odamlarni o‘zingiz to‘g‘ringizda yaxShi fikrga ega bo‘lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang” deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoShingiz sizni tinglamasa, boShqa narsa bilan ovora bo‘lavera, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O‘qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko‘rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko‘pinda yaxShi gapiruvdi, so‘zlovdi bo‘la olamiz-u, yaxShi tinglovdi bo‘la olmaymiz? Psixologlarning fikrida, asosiy xalaqit beruvdi narsa - bu bizning o‘z fikr - o‘ylarimiz va xohishlarimiz og‘uShida bo‘lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba’zan rasman Sherigimizni tinglayotganday bo‘lamiz, lekin aslida hayolimiz boShqa yerda bo‘ladi. TinglaShning ham xuddi gapirishga o‘hShaSh texnikasi , usullari mavjud. Ularning turi ham ko‘p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo‘llaymiz : *so‘zma - so‘z qaytarish* va *boShqada talqin etish*. Birindisi, suhbatdoSh so‘zlarining bir qismini yoki yaxlitida qaytarish orqali, Sherikni qo‘llab - quvvatlaShni bildiradi. Ikkindi usul esa - Sherigimiz so‘zlarini tinglab, undagi asosiy g‘oyani muxtasar, o‘zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala

usul ham Sherik uchun muhim, dunkt u sizning tinglayotganingizni, xattoki, undagi g‘oyalarga qarShi emasligingizni bildiradi. Bunday taShqari, biz yaxShi tinglayotgan bo‘lib, “Yo‘g‘-e?”, “Nahotki?”, “Qara-ya?”, “YaSha!” luqmalari bilan ham suhbatdoShimizni gapirishga, yanayam o‘z fikrlarini oydinlaShtirishga daqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan Shaxs yetakdi, u so‘hbatning mutloq xokimi, degan tasavvur undalik to‘g‘ri emas. YaxShi tinglaShda ham Shunday kud borki, u so‘hbatdoShni Sizga juda yaqinlaShtiradi, ishondni tug‘diradi. Xunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o‘zi. Tinglayotgan odam ma’nili, yaxShi dialogdan faqat yaxShi, foydali ma’lumot oladi. Gapirgan esa aksinda, o‘zidagi borini berib, gapirmaydigan so‘hbatdoShdan “teskari aloqani” olib ulgurmay, hed narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o‘rgatishning muhim yo‘nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglaShga, bunda barda paralingvistik va noverbal omillardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatishdir.

Professional tinglaSh texnikasiga quyidagilar kiradi:

- *aktiv xolat*. Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebelü bo‘lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoShning yuzidan taShqari joylariga qaramaslik, mimika, boSh dayqaSh kabi xarakatlar bilan uning har bir so‘ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;
- *suhbatdoShga samimi qiziqish bildirish*. Bu nafaqat suhbatdoShni o‘ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o‘zining har bir so‘ziga uni ham ko‘ndirishning samarali yo‘lidir.
- *o‘ydan jimlik*. Bu suhbatdoSh gapirayotgan paytda yuzda mas’uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o‘zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo‘li.

Agar biz suhbatdoShimizni yaxShi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o‘z - o‘ziga xurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglaSh jarayoni ko‘pdilik tasavvur qilgani kabi undalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo‘lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Xunki tinglaSh qobiliyati gapiruvdini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g‘oyalarning Shakllanishiga Sharoit yaratadi. Shuning uchun ma’ruzadi professorning har bir diqishi va ma’ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvdi ikki jarayon - gapirish va tinglaShning faol o‘zaro ta’sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnaShdilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallaShining ahamiyatini anglaSh qiyin bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o‘rgatishga juda katta e’tibor beriladi. Bu boradagi fanning o‘z uslubi bo‘lib, uning nomi *ijtimoiy psixologik trening* (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlaSh, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda Shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Amaliy muloqot treningi - IPTning bir ko‘rinishi bo‘lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oShirish jarayonida zarur bo‘ladigan kommunikativ malaka, ko‘nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda

muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish , ish yuzasidan hamkorlik qilish yo‘l - yo‘riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so‘zlaShga o‘rgatish, majlislar o‘tkazish, janjalli, konfliktli xolatlarda o‘zini to‘g‘ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bundagi asosiy narsa - trening qatnaShdilari ongiga birovlarni tuShunish, o‘zini o‘zga o‘rniga qo‘ya olish, boShqalar manfaatlari bilan o‘zinikini uyg‘unlaShtira olish g‘oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida *guruhiy munozaralar, rolli o‘yinlarning* eng optimal variantlari sinab, maShq qilinadi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR.

- Muomala muloqaot faoliyati sifatida.
- Muomala mazmuni va vazifalari.
- Muomala tomonlari. Muomala tabiat.
- Muomala usullari. Muomalada bir-birini tushunish mexanizmlari. Muomala o‘zaro ta’sir sifatida.
- O‘zaro ta’sir tuzilishi.
- Dialog muomala faoliyatining tashkiliy tamoyili sifatida. Dialog turlari.

Mustaqil ish va referat uchun mavzular.

1. Muomala muloqaot faoliyati sifatida.
- 2) Muomala mazmuni va vazifalari.
- 3) Muomala tomonlari. Muomala tabiat.
- 4) Muomala usullari. Muomalada bir-birini tushunish mexanizmlari. Muomala o‘zaro ta’sir sifatida.
- 5) O‘zaro ta’sir tuzilishi.
- 6) Dialog muomala faoliyatining tashkiliy tamoyili sifatida. Dialog turlari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Махмудов И.И. Бошқарув психологияси: Укув кулланма/ Мас’ул мухаррир: А.Холбеков. - Т.:ДЖКД “Рахбар” маркази, “YUNAKS-PRINT” МChД, 2006.
 2. Боймуродов Н. Рахбар психологияси. Олий та’лим, халк та’лими согликни саклаш, урта маҳсус қасб-хунар та’лими бошкдрмаларининг ма’мурий ходимлари учун кулланма,- Т.: “Янги аср авлоди”, 2007.
 3. Nazarov A. Boshqaruv psixologiyasi.T. 2021.
 4. Jabborov X. Rahbar ma’naviyati.T. 2019.
- 5. Qo‘srimcha adabiyotlar**
6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘srimcha majlisidagi nutq. - T.: O‘zbekiston, 2016. -56 b.
 7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali

- marosimdagি ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 108 b.
 9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
 10. Берестова Л. И. Социално-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя. М.. 1994.
 11. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. Oliy ta’lim, xalq ta’limi sog‘liqni saqlash, o‘rta maxsus kasb-xunar ta’limi boshqarmalarining ma’muriy xodimlari uchun qo‘llanma.- T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.
 12. Мескон М.Х., Алберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. М., 1992.
Петрунин Ю.Ю.. Борисов В.К. Этика бизнеса: Учеб, пособие. М.. 2000.
 13. Психология менеджмента / Под ред. проф. Н.С. Никифорова. СПб.. 1997.
 14. Sekach M.F. Психологическая устойчивость руководителя. М.. 1997.
Синягин К). В. Руководитель организации и его команда (теоретическая модель). М., 1996.
 15. Станкин М. Психология делового человека: Самоучител. М., 2003.
Стил человека: психологический анализ / Под ред. А. Либина. М

16. Internet saytlari

17. www.ziyonet.uz
18. www.tdpu.uz
19. www.pedagog.uz
20. www.psychology.uz
21. www.nutq.intal.uz
22. www.psychology.net.ru
23. www.gleforg Djordj Lukasning Ta’limning fondi
24. www.newhorizons.org Ta’limning Yangi ufqlari
25. www.rhecherswithoutborders.org Chegarasizo‘qituvchilar
26. www.thelearningweb.net Ta’lim tarmog’i
27. www.inetlibrary.com Internet kutubxona

5- MAVZU. BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH

Reja:

- 1.Boshqaruv qarorlarni qabul qilish
2. Muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari
3. Rahbar va oila

Tayanch tushunchalar: Boshqaruv qarorlari, muzokaralar, rahbar va oila, fikr, tafakkur, kreativlik

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Boshqaruv qarorlari mohiyati. Tashkilotni boshqarishning asosiy jihatlaridan biri, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ular ijrosini ta'minlashdir. Boshqaruv qarori tashkilotdagi biron ob'ektni ko'zlangan maqsadga muvofiq ravishda bir holatdan, ikkinchi holatga keltirish bilan ifodalanadi. Rahbarning boshqaruv qarori bilan bog'liq jarayonni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Qaror qabul qilish.
2. Qarorni bajarish uchun uni topshiriq sifatida yo'llash.
3. Xodimlarni ijroga undovchi sharoitni yaratish.
4. Nazoratni amalga oshirish. Odatda tashkilot rahbari tomonidan qabul qilinuvchi qarorlar turlicha bo'lib, ularning yakkahokimlik, kollegial va jamoaviy turlarini farqlash mumkin. Kollegial tarzdagi qaror qabul qilish, muammoni mutaxassislar bilan muhokama etish natijasida, taklif etilgan g'oyalar ichida eng maqbulini rahbar tomonidan qabul qilinishida ifodalandi. Bu qarorning natijasi va amalga oshirish mas'uliyatini ham rahbar o'z bo'yniga oladi. Jamoaviy qaror qabul qilishda esa qaror umumiyligi muhokama va ovoz berish orqali guruh a'zolari tomonidan qabul qilinadi, uning natijasiga mas'ul bo'lib butun jamoa hisoblanadi.

Qaror qabul qilish darajalari. Qaror qabul qilishning to'rtta darajasi farqlanib, ularning har biri doirasida harakat qilish uchun ma'lum boshqaruv malakalari talab etiladi.

Odatiy qarorlar korxona rejasi bo'yicha amalga oshuvchi kundalik dastur asosida qabul qilinadi. Paydo bo'lган muammo mavjud yechimlar majmuasi bilan qiyoslanadi, ular ichida maqbولي qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Tashkilotdagi odatiy hollarda «mana bunday vaziyatda, mana bunday qilish kerak» qabilida ish tutiladi va aynan shu uslub o'rta va quyi bo'g'in menejerlariga xos asosiy qaror qabul qilish shakliga aylanadi. Bunday vaziyatdagi qiyinchiliklar menejerning malakasizligi, mavjud yo'riqnomalarni yaxshi bilmaslik, vaziyatni noto'g'ri baholash yoki shaxsning jur'atsizligi asosida kelib chiqishi mumkin. Vaziyatni to'g'ri idrok etuvchi va maqbul xulosalar chiqaruvchi hamda natijalarni nazorat eta olish qobiliyatiga ega bo'lган menejer ushbu vaziyat uchun uzukka ko'z qo'ygandek bo'ladi. Qaror qabul qilishning bu darajasida ijodiy yondoshuv talab etilmaydi, chunki vaziyat yechimlari avvaldan belgilangandir.

Tanlovga asoslangan (selektiv) darajada rahbar mavjud muammo bo'yicha qator imkoniyatlarni taqqoslab ko'radi va ular ichidan aynan shu muammo yechimiga eng mos keluvchi samarali va tejamlisi ustida to'xtaladi.

Moslashuvchan darajadagi qaror qabul qilish bir muncha murakkab bo'lib, bunda rahbar tanish muammoga yangicha yechim topishi talab etiladi. Bunda u mavjud muammoga eskicha yondoshishdan voz kechishi va ijodiy qarorga kelishi

lozim. Ayni sharoitda rahbar muvaffaqiyati, uning shaxsiy tashabbusi va noma'lumlikka shaxdam qadam qo'ya olishi bilan asoslanadi.

Innovatsion, ya'ni yangiliklarni joriy etish bilan bog'liq qarorlar ancha murakkab hisoblanadi. Noaniq vaziyatda rahbarning yangicha yondoshuv uslublaridan, boshqa mutaxassislarning ijodiy g'oyalaridan foylana olishi talab etiladi. Rahbar muammoli vaziyat bilan to'qnash kelib, ma'lum qarorni qabul qilishi zaruratida bo'lar ekan, avvalambor, ushbu vaziyat va undan kutilayotgan yechimni yuqorida sanab o'tilgan qarorlar guruhiга taqqoslashi va taxminan bo'lsa ham, qaysi toifaga kirishini aniqlab olishi lozim. Bunday harakat rahbarga ayni muammo yechimi nimada ifodalanishini, qay shaklda namoyon bo'lishini qisman bo'lsa ham oldindan tasavvur etish imkonini beradi. Bu esa tanlangan yo'l qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riliqi haqidagi ma'lumot bilan birga, zarur bo'lgan taqdirda harakat uslubini o'zgartirishga asos yaratadi. Harqalay, qarorning o'ylab qabul qilinganligi uni biron-bir toifaga kiritishdan, va natijani qisman bo'lsa ham oldindan tasavvur etgan holda talabdagi namuna bilan taqqoslashdan iboratdir.

Qaror qabul qilish bosqichlari. Umuman olganda, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni aniq bir doira ichida o'tishi qiyin. Har bir rahbar o'z psixologik xususiyatidan kelib chiqqan holda muammo yechimiga turli uslub va moyillikni namoyon etadi. Mana shu omillar mavjud muammo yechimiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'yaydi.

Qaror yaratilishi davomida rahbar o'z ichki dunyosida sodir bo'layotgan jarayonlarni bilishi, ushbu holatni maqsadga muvofiq ravishda boshqarish imkonini beradi. Shu bois qaror qabul qilish amallarini bosqichma-bosqich tahlil etish lozim, deb topiladi. Quyida mana shu bosqichlarning asosiy tavsiflari beriladi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko'pqirrali va murakkab jarayon bo'lib, unda asosiy beshta bosqichni sharhlab o'tish mumkin:

- 1 – muammoni o'rganish;
- 2 – g'oyalar ishlab chiqish;
- 3 – ma'qul keluvchi g'oyalarni ajratib olish;
- 4 – yangilikni joriy etishni rejalashtirish;

5 – qayta aloqa va tahlil. Endi sanab o'tilgan har bir bosqichni ko'rib chiqsak. Qaror qabul qilishning birinchi «Muammoni o'rganish» bosqichida ham quyidagi ketma-ket vazifalar belgilanadi:

1 – vazifa: «Muammoni qo'yish» deb atalib, unda ushbu masala bo'yicha qanday qiyinchiliklar borligi aniqlanadi va muammoning mazmuni tushuniladi. Agar hal qilinishi lozim bo'lgan muammo noto'g'ri tushunilsa, hamma bo'lajak harakatlar va moliyaviy xarajatlar zoye ketadi, shuning uchun ham muammoni aniq tasavvur etib olish boshlang'ich bosqichning asosiy vazifasidir. Ko'p hollarda masalani noto'g'ri aks ettirishga malakasizlik, kasbiy bilimning kamligi, shuningdek, mazkur toifadagi masalalarni hal eta olishga tayyor emaslik, hamda ba'zi bir muammo va yechimlarning «yuqoridan tushirilganligi» sabab bo'lishi mumkin. Muammoni qo'yish quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- 1. Muammo tabiatini, undagi qiyinchilikni anglash.**
- 2. Muammo yechimi orqali qanday maqsadga erishish lozimligini aniqlash.**
- 3. Maqsadga erishilgan taqdirda qanday belgilar, ko'rsatkichlar mavjud bo'lishini aniqlab olish.**

Oxirgi natija nimadan iborat bo'lishi kerak, degan savolga javob olinishi lozim.

2 – vazifa: majburiyatlarni taqsimlash. Rahbar doimo hamma muammolarni o'zi hal eta olmaydi, shuning uchun ham bu bosqichda u ba'zibir majburiyatlarni malakali mutaxassis ixtiyoriga topshirgani ma'qul. Mutaxassis, bu bosqichda, mazkur muammo yuzasidan barcha ma'lumotlarni yig'ish va masalani har tomonlama o'rganish bilan shug'ullanadi.

3 – vazifa: ma'lumotlar yig'ish, muammoli vaziyatning informatsion modelini yaratish. Bunda nafaqat «o'zining» ma'lumotlari, balki, muxoliflar, raqobatdosh tomonlarning ham ma'lumotini hisobga olish lozim. Ba'zi bir paytda muxoliflar, ular bergen ma'lumot kamsitiladi, inkor etiladi va unga e'tibor berilmaydi. Bu esa mutlaqo xatodir. Ma'lumot yig'ishda unga mas'ul shaxs, ushbu muammo yuzasidan chuqr bilimga ega ekspertlar fikrini o'rganishi o'ta muhimdir.

4 – vazifa: muammoli vaziyatning kontseptual modelini yaratish, mazkur muammoni bir butun, yaxlit tarzda tushunish. Muammo bu tarzda aks ettirilganda, uning avvalgi muammolardan farqi, uning yangi jihatlari va yechimiga yangicha yondoshish zarurati anglanadi.

II - bosqich - g'oya yaratish. Masala yechimiga oid g'oyani yaratishning turli usullari bo'lib, ular ichida eng samaralisi «aqliy hujum» uslubidir. Bu uslubning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- turli kasbga mansub 5-10 ta mutaxassislardan iborat guruh ishlaydi;
- ushbu guruh a'zolari iloji boricha ruhiy va jismoniy jihatdan o'zlarini erkin sezishlari lozim;
- yechimiga oid taklif etilayotgan g'oyalarni tanqid qilish ta'qiqlanadi. Boshqalar berayotgan g'oyani faqatgina rivojlantirish, maqtash mumkin yoki uning o'rniga o'z g'oyasini taklif etish lozim;
- har qaysi g'oya, garchand u g'aroyib va ma'qul kelmasligiga qaramay «aqliy hujum»ning boshlang'ich davrida unga baho berilmaydi va hamma fikrlar yozib boriladi;
- g'oya muallifi ko'rsatilmaydi;
- ish tugagandan so'ng hamma taklif etilgan g'oyalar mantiqiy tarzda tartibga keltiriladi va ekspertlardan iborat guruhda muhokama etiladi.

III – bosqich: yig'ilgan g'oyalarni baholash, maqbul fikrlarni saralash. Avvaliga har bir g'oyaning ijobjiy tomonini baholab chiqish, so'ngra uning samaradorligini, amalga oshirish imkoniyatini, xarajatlari tomonlari va boshqa o'lchamlarini aniqlab olish zarur. Shu bilan birga, ushbu g'oyaning tanlanishi oqibatida yuz beradigan xavf baholanar ekan, afsuski ko'pchilik rahbarlar uchun ayni mezon yetakchi o'ringa chiqib qoladi. Bunda taklif etilayotgan g'oya chetda qolib, boshqa yo'nalish tanlansa, masala yechimi tamoman boshqa tus oladi va guruh boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

IV – bosqich: yangi qarorni rejorashtirish va amalga oshirishdan iboratdir. Bunda qaysi ish, qanday muddatda va kimning ishtirotkida bajarilishi kerak, degan savollarga javob olinadi. Qarorni amalga oshirishga jalb etiluvchi ishchi guruhi, umumiy rejani va unga oid amaliy harakatlarni aniq tasavvur eta olishi lozim.

V – bosqich quyidagi amaliy tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- 1) qabul qilingan qarorni, reja va harakatni amalga oshirish;
- 2) amalga oshirilgan harakat va natijalarni yanada yaxshilash maqsadida nazorat etish;

3) zarur bo'lgan taqdirda qarorni takomillashtirish, ya'ni «muammoni o'rganish» bosqichiga yoki g'oya yaratish va boshqa oraliq bosqichga qaytish. Qaror qabul qilish – psixologik jarayon sifatida. Qaror qabul qilish jarayonining psixologik jihatini bilish mavjud bosqichlarni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Gap shundaki, to'g'ri qaror qabul qilish va uni samarali ravishda joriy etish uchun rahbar psixologik jihatdan ham ma'lum amallarga rioya qilishi kerak. Bu tadbirning asosiy mazmuni shundan iboratki, rahbar muammoli vaziyat haqida ma'lumot yig'ar ekan, muammo haqida birlamchi tasavvur - informatsion model yarata boshlaydi. Bu modelning haqiqatga va mavjud vaziyatga qanchalik mosligi olinayotgan ma'lumotning to'la-to'kisligi, har tomonlamaligiga bog'liq.

Muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari

Muzokara – bu, biron-bir masala yuzasidan kelishuv jarayonidir. Bu jarayonda, odatda, kamida ikki tomon ishtirok etadi va har qaysi tomon, o'z manfaatini amalga oshirishni ko'zlaydi. Manfaatlari turlisha bo'lishiga qaramay, umumiyligi faoliyat olib boruvshi tomonlar ma'lum qoidalar doirasida harakat qilib, o'zaro qoniqtiruvshi va hamma tomonga ma'qul yeshim ustida ish olib boradilar. Aynan shu umumiyligi faoliyatning mavjudligi manfaat va maqsadlarni muvofiqlashtirish imkoniyatini tug'diradi. Shuning ushun ham, muzokara orqali maqsadga erishishni hohlovshi rahbar bu jarayonga xos tomonlarni, qolaversa, xususiyatlarni bilishi va kezi kelganda ularni boshqara olishi lozim.

Rahbar faoliyatida muzokara. Muzokara olib borish ko'lami juda keng bo'lib, bu soha tashkilotdagi ayrim ziddiyatli holatni ijobiy yo'nalishda hal etishdan boshlab, toki sarmoya jalb etishdagi qulay pozitsiyani qo'lga kiritishga va hatto ziddiyatdagi tomonlarni yarashtirish yo'lida vositashilik vazifasini bajarish maqsadida ham qo'llaniladi. Shu bois, rahbar muzokara olib borishga oid asosiy qonun va qoidalarni bilishi, ulardan amaliy tarzda foydalana olishi lozim. Muzokara bu, nafaqat biron masala yuzasidan fikr almashish, balki muzokara ishtirokshisi bo'lmish rahbar orqali uning tashkiloti haqida xulosa shiqrish manbai hamdir.

Demak, muzokara olib borish mahoratiga ega rahbar hatto o'rtame' yona tashkilotni ham boshqa raqobatdosh tashkilotga nisbatan afzallik tomonini namoyon etish qobiliyatiga ham ega. Ushbu jumalarni o'qigan o'quvshida muzokara bu, yo'q narsani bor qilib ko'rsatish mahorati emasmikan, degan fikr tug'ilishining mutlaqo tarafdoi emasmiz.

Rahbar o'z tashkiloti imkoniyatlari, uning kushli tomonlarini yaxshi tasavvur qila olishi va bu xususiyatlarni yanada ijobiy tarzda taqdim eta bilishi lozim. Bu jarayon rahbardan nafaqat o'ziga, balki, tashkilot xodimlariga ishonshni, kelajakka katta umid bilan qarashni va shaxsning muvaffaqiyatga yo'nalishini ifodalaydi.

Muzokaralar turli sharoit va tomonlar ishtirokida o'tadi. Bu esa, muzokaraning oson keshmasligini, bu jarayon davomida turli-tuman kutilmagan omillar ta'siri mavjudligini asoslaydi. Odatda muzokara har qanday murakkab tuzilma singari bir nesha asosiy bo'laklardan iborat: muzokara mazmuni, muloqot, munosabatlar, tadbirlar (qoidalar, muhokama tartibi, protokol). Muzokaraning jarayon sifatida murakkabligi shundaki, ushbu sanab o'tilgan har bir qism dolzarb ahamiyat kasb etadi va muzokara natijasining hal etishga o'z ulushini qo'shadi. Masalan, muzokaraga oldindan tayyorlanish, hamma xujjalarni batafsil o'rganib, mulozamat qoidalarni o'rniga qo'yib ijro etish mumkin, lekin hamsuhbatimiz milliy

xususiyatiga oid ba'zi jihatlarga e'tiborsizligimiz butun urinishimizni zoue ketkazishi mumkin. Bu jihatlarni muzokaraning tashqi tomoni, ro'stlog'i deb atash mumkin. Lekin bu jarauonning ishki tomoni ham borki, unda muzokaraga tauuorlangan tomondan qator vazifalarni amalga oshirish talab yetiladi. Bu vazifalara qatorida quuidagilarni sanab o'tish mumkin: o'zga tomonda qiziqish uug'otish; masalaga uuzasidan o'z nuqtai nazarini to'g'ri tushuntirishga yerishish va shu bilan birga o'zganing qarashi haqida to'la-to'kis tasavvurga yega bo'lish; o'zga tomonda xaurixohlik harakatlarini uug'otish; birgalikdagi faoliuatni amalga oshirish va o'zgada mas'uliuat uug'otish. Ushbu vazifalarni amalga oshirish muzokaraning muvaffaqiuatini ta'minlovshi asosdir. Rahbar vakolatidagi imkoniuatlardan kelib shiqqan holda autish mumkinki, tashkilot rahbari olib boradigan muzokaralar ishki uoki tashqi turlarga bo'linishi mumkin. Ishki muzokaralar – tashkilot ishidagi muammoga uo'nalgan bo'lib, ushbu muzokarani qo'llash zarurati mazkur sharoitda boshqaruvning odatiu uslublari o'z kushini uo'qotganligi bilan asoslanadi. Bundan tashqari tashqi muzokara ham mavjud va u o'z navbatida bir nesha darajaga bo'linishi mumkin: mamlakat doirasidagi sohada, sohalararo va xalqaro muzokaralar. quad yetilgan rog'onalarga qanshalik uuqori ko'tarilsak, bunda amalga oshuvshi muzokaraning ahamiuati ham shunshalik oshib boraveradi. Xo'sh, qandau holda muzokaraga murojaat yetiladi va qau sharoitda muzokarasiz ham ish ko'rish mumkin. Muzokaraga murojaat yetish hollari quuidagisha: bir tomonlama harakat natija bermaudi; masalaning ueshimi qonun bilan belgilanmagan; masalani sudgasha hal yetish samaraliroq bo'lgan taqdirda va shu kabi nostandard vaziuatlarda. Odatda muzokalararning tashkiliu, huquqiu, axloqiu tomonlari farqlanadi va ular muzokara shakliga ko'ra turlisha mazmunga yega. Masalan, xalqaro munosabatlar sohasidagi muzokaralar aniq quad yetilgan qoida va me'uoriu tomonlariga yega bo'lsa, xo'jaliklararo ushrashuvlar doirasidagi ko'rgina ushrashuvlar tomonlarning qo'l siqishi orqali ham tasdiqlanib ketaveradi. Lekin muzokara qau darajada amalga oshirilmasin uning natijasi kelishuvdan va ushbu kelishuvni u uoki bu shaklda quad yetishdan iboratdir.

Muzokara olib borish bosqichlari. Muzokaraning samarali o'tishi ko'p jihatdan amalga oshirilgan tayyorgarlik jarayonining puxtaligiga bog'liq. Bu xususida tadqiqotchi R.I. Mokshanov quyidagi tadbirlarni amalga oshirish dasturini taklif yetadi:

1. Muzokara maqsadini aniq ifodalay bilish.
2. Ushbu maqsadga erishishga yordam beruvchi vazifalarni aniqlash (ya'ni maqsadga erishish yo'lida qanday kadamlarni bosib o'tish lozim).
3. Muzokalararning tashkiliy qismini aniqlashtirish:
 - o'tkazish muddati
 - o'tkazish joyi
 - joyni tayyorlash
 - juzokara jarayoni uchun xavflarni bartaraf etish
 - delegatsiya tarkibi
 - muzokalarlarni moliyalashtirish manbaalari
 - muzokara ishtirokchilariga sarf-harajatlar (kantselyariya anjomlari, video va audio moslamalar mavjudligi, tarnsport, aloqa, oziqovqat ta'minoti, tanaffus va kofebreyklar)

- o'zga tomon delegatsiyasini kutib olish va joylashtirish
- madaniy dam olish dasturini ishlab chiqish
- sovg'a-salom va yodgorliklar
- yakuniy ziyofat
- delegatsiyalarni kuzatish.

4. Muzokara asosidagi manfaatning turli darajalarini bilish.

5. O'zga tomonning manfaatlarini iloji boricha batafsil tasavvur etish.

6. Muzokaraning quyidagi jihatlari bo'yicha ma'lumot to'plashga erishish:

- muhokama masalasining tarixi, xozirgi holati va ko'rsatkichlari:

muzokarada ishtirok etuvchi delegatsiya vakillari haqida ma'lumot (yoshi, kasbi, shu sohadagi tajribasi, qiziqishlari, xarakter xislatlari, ularning sheriklari kimlaru, raqiblari kimlar, ular orasida ikkilanuvchilar bormi va x.k.).

7. Iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, psixologik sohalarda maslahatchilarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.

8. Muzokara jarayonining umumiy strategiyasini aniqlash.

9. Vaziyatga qarab qanday harakatni amalga oshirish taktikasini belgilash.

10. Muhokama etilajak muammoning mavjud yechimlarini aniqlab qo'yish.

11. Agar muzokara uzilsa, qay tarzda maqsadga erishish yo'lini belgilash.

12. Muzokaralar o'tayotgani va natija haqidagi ma'lumotlarni qay tarzda yoritish masalasini o'ylab qo'yish (masalan, ommaviy axborot vositalarida).

Ko'rinib turganidek, muzokaraga tayyorlanish bu jarayonni boshidan oxirigacha puxta rejulashtirish demakdir. Muzokarani tadqiq etish sohasidagi ko'pgina olimlar fikricha, uchrashuv natijasi, maqsadga erishishning asosiy sharti muzokara olib boruvchi shaxsnинг psixologik jihatlariga kelib taqaladi. Bu jihatlar qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: muzokara olib boruvchining maqsadni aniq bilishi va unga intilishi, ko'p sohalarda parallel tarzda fikrlashiga qaramay maqsadni ko'zdan yo'qotmaslik, qay vaziyatda va vaqtda qancha ma'lumot berishni bilish, o'z nufuzi va mavqeiga oid hissiyotning ijobiyligi, muzokara vaziyatida diqqatni jamlash va bir nechta yo'nalishga diqqatni jalg etish kabi qator psixologik omillar muzokara olib boruvchi shaxsnинг o'ta qiyin vaziyatda to'g'ri yo'l topa olishi uchun asosiy shartlardir.

Samarali muzokarani amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri – muzokara guruhidir. Oqilona tashkil etilgan muzokarada kamida uch kishi qatnashishi o'rinci. Muzokaradagi birinchi shaxs rahbar bo'lib, suhbat davomida asosiy faoliyatni o'z qo'liga oladi. Ikkinci ishtirokchi esa o'zga tomon vakillarining psixologik holatini talqin qiladi, ularning manfaatlarini o'rganadi, ular nimani ta'kidlashyapti-yu, nimada o'z so'zlariga qarshi chiqishayotganini aniqlaydi va x.k.

Umuman olganda, kuzatuvchilik vazifasini o'tayotgan xodimning vazifasi o'zga tomon vakillarining qanchalik samimiyligi darajasini aniqlashdan iborat. Kuzatuvchi bergen ma'lumotlar nafaqat o'zga tomon, balki rahbarning aniq-noaniq harakatlari borasida ham bo'lishi maqsadga muvofiq, ya'ni rahbar kuzatuvchidan o'z xattiharakati o'rnliligi yoki asosiy maqsadga zid borayotgani haqida ma'lumot olib turadi. Guruh rahbari oradagi tanaffusdan foydalanib kuzatuvchidan ma'lumot oladi va muzokara jarayonini o'zgartirish yoki takomillashtirish uchun asos yaratadi. Guruhning uchinchi a'zosi esa muzokara jarayonidagi ahamiyatli qismlarni yozma qayd etadi, protokol olib boradi. Ikki yordamchi bergen ma'lumot asosida rahbar eng

maqbul qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday muzokara tanishish, kontakt o'rnatishdan boshlanadi. Muzokara jarayonining boshlanishidayoq o'rnatilgan hissiy muhit ko'p jihatdan uning keyingi bosqichlarida o'z aksini topadi va har bir tomon ushbu muhitni ijobiy lashtirishga alohida e'tibor berishi lozim. Axir, muzokaraning buzilishi ko'rsatkichlaridan biri ayni shu muhitning sovuqlashuvi bilan ifodalanadi.

Muzokara qiyin o'tayotgan vaziyatdagi asosiy shartlardan biri – keyingi uchrashuv uchun ham «oq yo'l» qoldirishdir. hatto o'ylangan natijaga erishilmagan taqdirda ham, bizdan keyingi delegatsiya muzokara olib borishi uchun imkoniyat qoldirishimiz zarur. Muzokarlarni ta'minlovchi muhit haqida o'ylar ekanmiz, o'zga tomon vakillariga xos bo'lgan xususiyatlar haqida iloji boricha to'la ma'lumotga ega bo'lish lozim. Ma'lumki, turli millat yoki jins, yoki yosh vakillari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu xususiyatlarni muzokara oldidan bir bor qayd etish suhbatni ko'zlangan maromda olib borish imkonini beradi. hozirga kelib, xalqaro munosabatlar mavzusiga tegishli adabiyotlarda turli xalqlarga xos bo'lgan milliy psixologik xususiyatlar haqida ko'plab ma'lumotlar yozilgan. Bunday manbaalar bilan tanishish, yoki o'zga guruhga oid yosh, jins, kasb mavzusidagi psixologik bilimlarni qayd etish muzokara boshlanishi chog'idayok ijobiy muhitni yaratishga katta ko'mak bo'ladi.

Muzokara yakuniga salbiy ta'sir etuvchi psixologik omillar. Qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazuvchi psixologik omil sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Yuzaga kelishi kutilayotgan noma'lum sharoitdan qo'rqliq. Kelajakda nima bo'lishini bilmaslik va bunday noma'lumlikni qanday qilib hal etish muammosi to'g'ri yechimni kechikib qabul kilishga olib keladi. Ayni sharoitda eng maqbul vositalardan biri kutilayotgan muzokarga ijobiy munosabatda bo'lishdir. Notanish vaziyatda ishonch bilan harakat qilishning asosiy usuli - ijobiy tarzda fikr yuritishdir.

O'zga tomonning tasodifan qarshilik ko'rsatishi. Bir qaraganda tekis o'tayotgan muzokara ishtirokchisi uchrashuv oxirlagan paytda yana qarshilik ko'rsatishi har qanday odamni g'azabga, ham sarosimaga soladi. Bunday vaziyatda davomli pauza saqlash orqali munosabatga bir oz masofa kiritish maslahat beriladi. Chuqur nafas olib, xotirjam holatda sabru toqatda ba'zi iboralarni takrorlash orqali («Men xotirjamman», «O'zimni o'z qo'limda ushlab turibman», «Vaziyatni to'la-to'kis boshqarayapman») nafaqat o'zimizni, balki xavotirda turgan o'zga tomonning kayfiyatida ham o'zgarish paydo qilolamiz va suhbatni davom ettirish poydevorini qayta tiklaymiz. Vaziyat bir oz osoyishtalanib, ruhiy ishonch qaytgandan so'ng o'zga tomonga uni nima bezovta qilayotgani, nega kayfiyati birdaniga o'zgargani haqida savol bilan murojaat etish mumkin. Aynan shu uslub orqali mavjud zo'riqish sababini aniqlash va uni bartaraf qilish imkoniyati tug'iladi.

Kutilmagan fikr va takliflar. Odatda tomonlar muzokaraga tayyorlanar ekan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamma yechim variantlarini ko'rib chiqadilar. Bu jarayonda o'zga tomon ayni yechimga qanday munosabatda bo'lishi haqida bosh qotiriladi. Lekin, bu taxminlar doim ham muzokara ishtirokchisini qoniqtirmasligi aniq va aksincha, ba'zan muzokara mantig'iga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan fikr va taklif bilan chiqish hollari ham uchrab qoladi. Bunday vaziyatda muzokara ishtirokchisidan o'zga tomonni to'laroq tushunishga, yangi yechim tafsilotini

aniqlashga intilish kuzatilgani ma'qul. Bizning tafakkurimiz odatda, noan'anaviy va tasodifiy yechimlarga darhol o'z tug'yonini namoyish qiladi. Psixikaning bunday xususiyatini bilish, kezi kelganda uchragan qiyinchilikni tezda yengib o'tish va faollikni yanada oshirish imkonini beradi. Demak, kutilmagan taklifni iloji boricha puxta o'rganish va uni asoslovchi dalillarni talab etish lozim. Bunday vaziyatdan qutulish imkonini beradigan yana bir usul qat'iyyatdir. Bu uslub, o'zga tomonning ba'zi kamchiligi tufayli uzilib qolishi kutilayotgan muzokarani oxiriga yetkazishga va hatto muvaffaqiyatlari yakunlashga asos bo'ladi.

Kutilmagan hamkorlik. Ba'zan o'zga tomon biz kutganimizdan ertaroq shartimizni qabul qilishi, hamda biz bilan hamkorlik qilishga tayyorligini namoyon etishi mumkin. Ayni paytda ortiqcha shubha va ishonchsizlik qaror qabul qilishimiz yo'lidagi to'siqqa aylanadi. Mazkur vaziyatga shubha bilan qarash qulay imkoniyatni boy berishga olib kelishi mumkin. Ammo, kutilmagan rozilik ortida yashirin niyatning borligi ehtimoli ham yo'q emas. Bunday vaziyatda yuzaga kelgan shubhani va o'zga tomonning samimiylit darajasini aniqlash lozim. Samimiyatni aniqlash muzokara jarayonidagi ancha murakkab holat hisoblanadi. Mayjud imkoniyatlardan biri o'zga tomon harakatidagi noverbal signallarni tahlil etish orqali yashirin, yuzaga chiqolmayotgan ma'lumotlarni olishdir.

Haqqoni yechim topish yo'lida. Masalani hal etish davrida asosiy e'tibor tomonlar manfaatini qondiruvchi yechimga qaratiladi. To'g'ri tushunilgan ehtiyojlar yechimni topishni yengillashtiradi. Yechim izlashda odatda ikki tomon ham o'z fikrini aytadi va taklif etilayotgan mulohaza qanchalik ularning manfaatiga mos kelishi tahlil etiladi. Biron yechimga kelish oson emas, har bir tomonning yechimi o'zi uchun to'g'ri va tushunarli. Ayni sharoitda yechimning to'g'ri va maqbulligini aniqlash maqsadida ob'ektivlik mezonlaridan foydalaniladi. Bunday mezonlar sifatida samimiylit, haqqoniylit, qonuniylit va amaliyot tamoyillari taklif etilishi mumkin. Ushbu mezonlarni tomonlar qabul qilar ekan, ularning amaliy jihatni ham bir xil tarzda qo'llanishi kerak. Agar yechim ikkala tomon uchun bir xil ishlay olsa, demak, u hayotiy va ob'ektivdir. Mabodo muzokarada bir tomonning manfaati ustun qo'yilsa, uchrashuv chog'ida g'urur va «past ketmaslik» kabi g'ayritabiiy hislar namoyon bo'lsa, tamoyillar ishlamaydi. Agar bir tomon o'z yechimida qattiq tursa-yu, o'zga tomonni eshitishni hohlama, demak muzokara muddatidan avval tugashi tabiiy.

Muzokara davomida yolg'on ishlatish. Muzokara davomida yolg'on ma'lumot berish ob'ektiv mezonga zid keluvchi, lekin shunga qaramay, ko'p uchrab turadigan holdir. Muzokaradagi u yoki bu tomonning yolg'on ishlatish sabablarini tahlil etmagan holda, yolg'onga berilmaslik va unga qarshi turish imkoniyatlari haqida to'xtalib o'tamiz. Yolg'ondan samarali foydalanish ko'pgina sotuv shartnomalariga oid muzokaralarda, qisqa muddatli shartnomani imzolashda ko'p uchraydi. Avvalambor, shuni aytish lozimki, aldovning samarasi ikkala tomoning ishtirokini taqozo etadi, aldovchi jarayonga qanchalik tayyorlangan bo'lsa, o'zga tomon ham har qanday aldovga qarshi tura olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Umuman olganda, odam ikki holda ko'proq aldanadi – birinchidan, ushbu muammoni tezroq hal qilish maqsadida shoshilganda, aniqrog'i uning ijobiy natijasini juda xohlaganda, kkinchidan esa, masala haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lмаган paytda. Shuning uchun, muzokara olib boruvchidan doimo vaziyatni aniq tasavvur etish va o'z orzusi qurboni bo'lib qolmaslik hamda bo'lajak muzokara mavzusi haqida ko'proq ma'lumot

yig'ish lozim. Bundan tashqari, ma'lum psixologik qonunlar mavjudki, ularning inson ruhiyatida amal qilishi yolg'onga berilish ehtimolini kuchaytiradi. Jumladan, quyidagilarni kiritish mumkin:

- Obro'-e'tiborga ega shaxs bilan muloqotda unga shubhasiz ishona boshlaymiz.
- O'zga shaxs bizga qanchalik yoqimli bo'lsa, uning ma'lumotini shunchalik ishonch bilan qabul qilamiz va aksincha, biz yoqtirmagan kimsaning ma'lumotini shubha ostiga olamiz va ishonqiramay qaraymiz.
- Odamning bilim saviyasi va aqliy salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, u hayotga shunchalik ishonch bilan qaraydi, u mushohadaga moyil, vaziyatlarni mustaqil ravishda tahlil qila oladi va yolg'on ta'siriga kamroq beriladi.

Quyida keltirilgan belgilar suhbatdoshimiz yolg'on gapirayotganligini aniqlash uchun axborot manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- Ko'p gapirish, aniq matnning kuzatilmasligi.
- Javob berishdan avval uzoq sukut saqlanishi.
- Cho'zib va past tovushda gapirish.
- Ichki zo'riqish. Nomunosib qo'l xatti-harakatlari.
- Tabiiy bo'limgan yuz ifodasi.
- Yuzning notabiiy qizarishi yoki oqarishi.
- Ko'z qorachig'inining nihoyatda kengayishi.
- Ko'zni suhbatdoshdan olib qochish.
- Tez-tez kiprik qoqish.
- Ishonchsizlikni ifodalovchi qo'l harakatlari (dahanni, burunni, qoshni qashish).
- Chakkani qashish.
- Miyig'ida kulish, sun'iy yuz ifodalari.

Rahbar va oila

Rahbar va oila muammosi. Inson ulg'aygan sari uning hayotida oilaning o'rni va ahamiyati kuchayib boradi. Katta yoshli har bir inson uchun oila hissiy sokinlik maskani, umid va maqsadlari manbaiga aylanadi.

Oilaviy muhitning rahbar kayfiyatiga ta'sirini, hatto uning xodimlariga bo'lgan munosabatda aks etishini inkor etish qiyin. Shu munosabat bilan oilaviy hayotning ichki qonunlari, oiladagi o'zaro munosabat shakllari haqida xabardor bo'lish rahbarning o'z-o'zini boshqarish imkoniyatini kengaytiradi.

Ishlab chiqarish sohasini tadqiq etuvchi psixolog M. Feynberg izlanishlari asosida aniqlangan ma'lumot shundan iboratki, rahbarlarning to'rtadan uch qismi ishxonadagi ishlarini uyga olib ketishar ekan.

Ular muntazam ravishda oilaga taalluqli yig'in va marosimlarda ishtirok etolmaydilar, ishxonada ko'p vaqt ushlanib qoladilar, mehnat safarlariga ketadilar va oilaga yetarli vaqt ajratolmaydilar. Rahbar lavozim pog'onasidan kanchalik yuqoriga ko'tarilsa, bu belgilar shunchalik aniq ifodalanib boraveradi. Chet el tadqiqotlari orqali aniqlangan bu ma'lumotlar o'z mohiyatiga ko'ra sharoitimizga tatbiq etilishi mumkin. Yosh rahbar xodimlar orasida o'tkazgan tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, ularning aksariyat ko'pchiligi oilaga kam vaqt ajratishadi. Hatto yakshanba kunlari ham ishga boradigan, dam olish vaqtini esa oilasiga bag'ishlay olmaydigan rahbarlar ko'p uchraydi.


Albatta, ishlab chiqarishni jadallashtirish va korxona oldidagi vazifalarni

samarali hal qilish rahbardan nafaqat oilasi, balki shaxsiy hayotidagi va hatto sog'ligiga tegishli ko'pgina cheklovlarni talab qiladi. Rahbarning tashkilot va oila o'rtasida bo'linishi unda ikkilanish holatini tug'diradi va hatto oilaviy munosabatlarda ayrim yo'qotishlar evaziga o'z ishiga, ishlaydigan muassasaga nisbatan sovush ham kuzatilishi mumkin.

Natijada rahbar ishxona va oila manfaatlari girdobiga tushib qoladi, ikki qutb orasida ruhiy va jismoniy salomatligini yo'qota boshlaydi. Rahbar inson sifatida hissiy yaqinlik ehtiyojida bo'ladi. Ba'zi bir taddiqotlar orqali hatto bunday yaqinlikning me'yori ham o'lchab qo'yilgan. Aniqlanishicha, o'zini baxtli deb hisoblaydigan oilalarda er-xotin haftasiga 10-12 soat vaqtini birgalikda o'tkazarkanlar. O'zbek oilalariga xos ko'p farzandlilik va buvi-buvalar bilan birgalikda yashash esa ushbu ko'rsatkich orqali ifodalanuvchi omilni yanada ko'proq inobatga olishni talab qiladi.

Ziddiyatni hal etish imkoniyati. Rahbar xodimning oilasi va xizmati o'rtasidagi ziddiyatni hal etish ko'p jihatdan tashkilotning yuqori bo'g'in rahbariyatiga bog'liq. Tashkilot miqyosida oqilona yuritilayotgan kadrlar siyosati har bir xodimning oilasidagi tub burilishlardan xabardor bo'lishni, oilaviy qiyinchiliklar davrida unga yordam qo'lini cho'za olishni nazarda tutadi. Bu borada ba'zi bir chet el ilg'or kompaniyalarida amalga oshiriluvchi tadbirlar haqida eslab o'tish lozim deb topiladi. Masalan, ba'zi bir tashkilotlarda, rahbarga mehnat tatilida u rafiqasi bilan dam olishi uchun qo'shimcha yo'llanma va yo'l chiptalari taqdim etiladi, yangi uylangan yoki farzand ko'rgan xodimlarni ma'lum vaqt davomida hamda uzoq muddatga mehnat safariga jo'natilmaydi, farzandlarni turli ta'lim muassalariga joylashtirishda ko'mak ko'rsatiladi, oila a'zolarining rahbar ishidan xabardor bo'lib turishlari maqsadida ularni ba'zan ishxonaga olib kelishga ruxsat beriladi.

Rahbarning o'z xodimi hayoti bilan qiziqlishi va e'tiborli bo'lishi uning oilasida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning xizmat yuzasidan yuz beruvchi o'zgarish bilan mos kelib qolmasligini ta'minlaydi. Masalan, xodimning uyida farzand dunyoga kelishi yoki oila a'zolaridan kimningdir betobligi yoxud yirik oilaviy marosimlar taraddudi kabi omillar xodimning xizmat pog'onasidagi o'zgarishlar bilan mos kelib kolmasligi lozim. Ushbu mazmunga quyidagi tasvir o'rinali kelishi mumkin:



2.7.1. Xizmat va oylladagi ўзгаришларнинг ўзаро мослиги

Uzilmas chiziq bilan xodimning ishxonadagi xizmat o'zgarishlari tasvirlangan, uzuq chiziq bilan esa uning oilaviy hayotidagi o'zgarishlar belgilangan. Har bir chiziqning yuqori cho'qqisida tegishli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shu ma'noda tasvirdagi ikki chiziqning yuqori nuqtasi iloji boricha bir paytning o'zida ustma-ust tushib qolmasligi lozim. Masalan, oilada yangi farzand tug'ilishi va xodimni yangi

lavozimga tayinlash davrining o'zaro mos kelib qolishi, albatta xodimda kuchli asabiy zo'riqishni yuzaga keltiradi va nafaqat oilada, balki ishxonadagi xizmat vazifalarni uddalashda ham o'z aksini topadi.

Oilaviy muhit va shaxs shakllanishi. Oila kichik guruh sifatida shaxsning shakllanishidagi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Oilaviy muhit, ota-onaning farzand tarbiyasidagi ishtiroki ulg'aygan shaxs xarakterida o'z aksini topadi. Rahbar o'zining boshqaruv faoliyatidagi xatti-harakati, xodimlar bilan munosabatini tahlil qila turib, ko'pgina xususiyatlarning ildizini aynan o'zi yashab ulg'aygan oilaviy muhitdan topishi ajablanarli emas. Rahbar o'z itoatidagi xodimlar bilan munosabatini takomillashtirib borar ekan, o'zining ba'zi bir odatlaridan voz kechishga va yangi xislatlarni o'zida shakllantirishga intiladi. Mana shunday jarayonda u «Nega xodimlar bilan munosabat qurishda aynan shu uslubni qo'llayman?», «Nega yana shu odatimdan voz kecholmayapman?» kabi savollar bilan o'z-o'ziga murojaat etadi. Insonning o'z-o'zini tahlil etishga moyillik tabiiy holdir. Psixologiya fanida taniqli olim 3. Freyd davridan aniqlangan haqiqat shundan iboratki, inson o'zidagi u yoki bu xislatni o'zgartirishi uchun avalambor bu xalaqit beruvchi holatning ildizini anglab yetishi lozim. Afsuski, bizning ko'pgina shaxsiy xislatlarimiz shakllanishiga sabab bo'luvchi oilaviy muhit, oiladagi turli munosabatlar ta'siri shunchalik ilk davrda ro'y beradiki, ularni eslashimiz va asl sababini xotiramizda qayta tiklashimiz juda mushkul. 3. Freyd mana shunday xotiralarni qayta tiklash va shaxs tomonidan anglanishi uchun maxsus uslublardan, shu jumladan, gipnozdan ham foydalangan. Quyida bayon etiladigan oilaviy hayot modellari tahlili o'quvchiga o'z o'tmishiga bir qadar nazar solishga va shu orqali o'zining hozirgi mehnat uslubi hamda xodimlar bilan yuzaga kelayotgan munosabatining sabablarini anglab yetishiga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, oilaviy hayot xususiyatlari, kichik guruh sifatida unga xos qonuniyatlarni bilish qo'l ostidagi hodimlar hulqidagi u yoki bu holatlar sababini aniqlashga, kezi kelganda hatto, ularning hayotidagi muammolarni hal etishda ko'mak beradi.

Oilaviy munosabatlar modellari. Oilaviy munosabtlarni uch asosiy namunaga toifalash mumkin: “Biz”, “Biz+Men+Men”, “Men+Men”.

“Biz” namunasiga ko'ra yashaydigan oilada a'zolar doimo birga bo'lishga intilishadi. Bunday munosabatlar faqatgina er-xotin hamjihatligida emas, balki farzandlarga bo'lgan munosabatni ham o'z ichiga oladi. Vaqt o'tishi bilan, hatto er-xotin ham ko'rinishi, ham ichki dunyosiga ko'ra bir-birlariga o'xshab ketishadi. Bunday muhitda shakllanayotgan farzand o'z munosabatida iloji boricha ochiqlikka, o'zgalar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga intiladi. Mehnat faoliyatida esa u yoki bu vazifalarni boshqa xodimlar bilan birgalikda bajarishga moyil, yakka tartibda bajariluvchi faoliyatni uncha xush ko'rmaydi. Uning uchun jamoadagi ijobiy va sog'lom muhit, insoniy munosabatlar yetakchi o'ringa chiqa boshlaydi. Bunday oilaviy muhitda shakllangan shaxs rahbarlik faoliyatini bajarar ekan, har bir masalani xodimlar ishtirokida hal etishga intiladi va hatto yakki o'zi qaror qabul qiladigan sharoitlarda qiyinchilik sezishi mumkin.

“Biz, Men+Men” namuna. Bunday oilada ayrim sohalarda er va xotin birgalikda harakat qilishiga qaramay, ba'zi bir masalalarni alohida hal etishga intiladilar. Masalan, uyda mehmon kutayotganda, qarindoshlar davrasida birga bo'lish, lekin o'z do'st-birodarlari bilan alohida-alohida munosabatlar qurish. Oilaviy hayotga tegishli

masalalarini birgalida hal etish, shaxsiy muammolarda esa mustaqillikka intilish. Bunday ota-onasi munosabatlari muhitida ulg'aygan farzand ham ko'pdan-ko'p oilaviy hayot lavhalarini o'zlashtirib boradi.

Hatto ota bilan bir masalani, ona bilan esa boshqa masalalarini hal etish haqidagi qoidani o'zlashtiradi. Bunday farzand ulg'ayib mehnat jamoasida faoliyat yuritar ekan, hamkasabalar va xodimlar bilan bo'lган umumiyligi va xususiylikni tez anglab oladi, qaysi masalani guruh bilan hal qilish mumkin-u, qaysinisini o'zgalardan sir tutish kerak, degan savolga tez javob topa oladi. Kezi kelganda mustaqil ravishda ish yuritadi va o'z qobiliyatiga ishonadi.

Oila tarkibi va shaxs xislatlari. Oila kichik guruh sifatida millat va hududga xos xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. O'zbek oilalariga xos xususiyatlardan biri – uning ko'pfarzandliligi va ko'p tabaqaligidir. Ko'p tabaqalilik deganda bir oilada bir necha avlod vakillarining birgalikda hayoti nazarda tutiladi. Masalan, ota-onasi, farzand va nevaraevonalarning birga yashashi. Oilaning bunday tarkibi bola ulg'ayishida, farzandning ijtimoiy muhit bilan munosabatlar qurishida o'ziga xos tarzda ta'sir etadi. Xususan, ko'p avlodli oilalarda ulg'ayuvchi farzandlarda kattalarga izzat, e'tibor shakllanishi uchun qulay omillar mavjud. Bunday oilalarda bola iyerarxik munosabatlar tizimini tez o'zlashtiradi. Bunday muhit guruh ishtirokchilarining yoshiga qarab munosaabt qurishda, shaxsning guruhdagagi ijtimoiy mavqeini tez ilg'ash va shunga muvofiq munosabat qurishga kuchli ta'sir etadi. Oiladagi farzandlar soni ham bola xarakterida o'z aksini topadi. Tahlilimizni uch farzandli oila misolida davom ettirishimiz qulay. Odatda to'ng'ich farzandga oiladagi tashkiliy masalalar yuklatiladi va bunday vaziyat bolada mas'uliyat hissi erta shakllanishiga imkon yaratadi. Odatda, oiladagi to'ng'ich farzand uka-singillarga bosh, ota-onanining o'rniغا mas'ul va kezi kelganda ota-onasi topshirig'iga binoan kichiklarga yetakchilik qiladi. Bunday sharoit bolada tashkilotchilik qobiliyatining erta shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Oiladagi o'rtancha farzandning mavqeい o'zgacha. Odatda ota-onasi unga birinchi farzand kabi e'tibor ajratisha olmaydi. Oilalarni o'rganish davomida to'ng'ich va o'rtancha farzand o'rtasidagi munosabatlarda kelishmovchilik hollari ko'p uchrashi kuzatilgan. Bunday muhitda esa, o'rtancha farzandda nizoga moyillik shakllanishining ehtimoli ko'payadi. Oilada kenja farzandning mavjudligi vaziyatni yanada keskinlashtiradi. Odatda oilaning erkatoyi bo'l mish kichik farzand otaonanining e'tiborini o'ziga tortadi, katta aka va opalardan esa unga deyarli o'yindan boshka yumush qolmaydi. Bunday muhit kenja farzandda atrofmuhitga bir oz yengilroq, xatto o'ynomuz munosabatda bo'lishga asos yaratishi mumkin. Albatta, ushbu tavsiflarni mutlaqo haqiqatga yo'yish xato bo'lardi. Lekin, ko'p farzandli oilaga xos bo'lган ichki guruhiy dinamika bolada u yoki bu xarakter xislati shakllanishi ehtimolini oshiradi. Ko'p farzandli oilaviy muhitda shakllangan xislatlar esa albatta shaxslararo munosabatlarda o'z aksini topmay qo'yaydi va inson mehnat faoliyatiga qadam qo'yganda jamoa a'zolari bilan bo'ladijan munosabatlarni shakllantirishda o'z aksini topadi. Amerikadagi bir qancha ilg'or tadbirkorlar biografiyasini o'rganish natijasida ularning ko'pchiligi oilada to'ng'ich farzand ekanliklari haqida ma'lumotlar mavjud.

Ota-onasi va farzand munosabati modellari. Ota-onasi o'z farzandiga bo'lган munosabati bola ulg'ayishi bilan o'zgarib boruvchi jarayondir. Farzand ulg'ayishi va ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan ota-onasi uni o'zlarini kabi inson sifatida idrok

qila boshlaydilar, unga jamiyatning mas'ul fuqarosi sifatida murojaat etadilar. Shaklan shunday amalga oshuvchi munosabatlar asosida mazmunan chuqur psixologik muammolar ham o'rin olishi mumkin. Farzand ulg'aygan sari unga mustaqil tanlovnini amalga oshirish imkonini bermayotgan, farzandining ulg'ayganini payqamay haligacha «yo'rgak»lashga urinadigan ota-onalarni uchratish qiyin emas. Ularning nazdida farzandlari hali ham ularning yordamiga muxtoj, mustaqil hayotdan kuchli dakki yeb qoladiganday va hatto bee'tibor qoldirilsa yeishga non topolmaydi, degan ta'kidni ham eshitish mumkin.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR.

- ✓ Boshqaruv qarirlarni qabul qilish
- ✓ Muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari
- ✓ Rahbar va oila
- ✓ Oila modeli
- ✓ Muzokaralar shakllari
- ✓ Qarirlarni qabul qilish yo'llari

Mustaqil ish va referat uchun mavzular.

- 1.Boshqaruv qarirlarni qabul qilish
2. Muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari
3. Rahbar va oila
4. Oila modeli
5. Muzokaralar shakllari
- 6.Qarirlarni qabul qilish yo'llari

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati.

1. Махмудов И.И. Башкарув психологияси: Укув кулланма/ Мас'ул мухаррир: А.Холбеков. - Т.:ДЖКД “Рахбар” маркази, “YUNAKS-PRINT” МChД, 2006.
2. Боймуродов Н. Рахбар психологияси. Олий та'лим, халк та'лими согликни саклаш, урта маҳсус қасб-хунар та'лими бошкдрмаларининг ма'мурий ходимлари учун кулланма,- Т.: “Янги аср авлоди”, 2007.
3. Nazarov A. Boshqaruv psixologiyasi.T. 2021.
4. Jabborov X. Rahbar ma'naviyati.T. 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. - T.: O'zbekiston, 2016. -56 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

7. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 108 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
9. Берестова Л. И. Социално-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя. М.. 1994.
10. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. Oliy ta’lim, xalq ta’limi sog‘liqni saqlash, o‘rta maxsus kasb-xunar ta’limi boshqarmalarining ma’muriy xodimlari uchun qo‘llanma.- Т.: “Yangi asr avlod”, 2007.
11. Мескон М.Х., Алберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. М., 1992.
- Петрунин Ю.Ю.. Борисов В.К. Этика бизнеса: Учеб, пособие. М.. 2000.
12. Психология менеджмента / Под ред. проф. Н.С. Никифорова. СПб.. 1997.
13. Секач М.Ф. Психологическая устойчивость руководителя. М.. 1997.
- Сиягин К). В. Руководител организатии и его команда (теоретическая модель). М., 1996.
14. Станкин М. Психология делового человека: Самоучител. М., 2003.
- Стил человека: психологический анализ / Под ред. А. Либина. М

Internet saytlari

15. www.ziyonet.uz
16. www.tdpu.uz
17. www.pedagog.uz
18. www.psychology.uz
19. www.nutq.intal.uz
20. www.psychology.net.ru
21. www.gleforg Djordj Lukasning Ta’limning fondi
22. www.newhorizons.org Ta’limning Yangi ufqlari
23. www.rhecherswithoutborders.org Chegarasizo‘qituvchilar
24. www.thelearningweb.net Ta’lim tarmog’i
25. www.inetlibrary.com Internet kutubxona

6-MAVZU. BOSHQARUV FAOLIYATIDAGI NIZOLAR VA MUZOKARALAR OLIB BORISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI. TAIYM-MENEJMENT VA STRESS-MENEJMENT

Reja

1. Tashkilotdagi nizolarni boshqarish
2. Konstruktiv va destruktiv nizolar.
3. Destruktiv nizo
4. Nizo turlari.
5. Nizolarni boshqarish
6. Taiym-menejment va stress-menejment

Tayanch tushunchalar: tashkilotdagi nizolarni boshqarish, konstruktiv va destruktiv nizolar, destruktiv nizo, nizo turlari, nizolarni boshqarish

Tashkilotdagi nizolarni boshqarish

Nizo tabiat. Odatda, nizo deb, qarama-qarshi yo'nalgan qarashlarga, noxush hissiy kechinmalar bilan bog'liq guruhlararo yoki shaxslararo munosabatlar orkali ifodalanuvchi to'qnashuvlarga aytildi1. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, odamlarga halokatli ta'sir etadigan xolat nizolarning o'zi emas, balki ularning oqibatidir. Nizolar oqibatida inson ruhiyatida qo'rqinch, vahima, adovat kabi salbiy xislar yuzaga keladi. Agar mazkur kechinmalar kuchli bo'lsa va uzoq muddat davom etsa, odamda himoya reaktsiyasi paydo bo'lishi va mustahkamlanishi mumkin. Nizo natijasidagi salbiy xolatlar shaxsning hissiyoti, hattiharakatlari, tafakkur va hatto xarakterida ma'lum o'zgarishlar sodir etadi. Bu o'zgarishlar shaxsning xulq-atvorida namoyon bo'lib, mazkur sub'ekt qatnashayotgan boshqa vaziyatlarga ham tarqaladi va o'zaro munosabatlarning keng sohalarini egallay boshlaydi. Masalan, qo'rquv va xavf muhitida tarbiyalangan odam keyinchalik xuddi shunday muhitning manbaiga aylanishi ehtimoldan holi emas. U hatto o'z bolalarini ham shunday muhitda tarbiyalaydi yoki qo'l ostidagi xodimlarni shu uslubda boshqaradi.

Aniqlanishicha, mehnat jamoalarida nizodan so'nggi kayfiyatning buzilishi va tinchlanguncha o'tadigan vaqt shu nizoga tayyorlanish davriga nisbatan uch baravar ko'proq muddatni egallar ekan.

Jamoalarda nizo sabablarini tadqiq etish natijasida ziddityalarni yuzaga keltiruvchi qator omillar aniqlandi. Bular qatoriga mehnat resuslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarishga oid masalalarning uzviy bog'liqligi, xodimlarning tashkilot kelajagi haqidagi tasavvurlarining noaniqligi, tashkilot ichidagi kommunikatsiyalardan qoniqmaslik, kadrlarni tayyorlash darajasining pastligi va shu kabi sabablar kiradi.

Konstruktiv va destruktiv nizolar. Fikrlar qarama-qarshiligi namoyon bo'layotganda ziddiyat manbai yashirinmagan bo'lsa, nizo jamoa hayotida ijobiyl rol o'ynashi mumkin. Nizoning aynan shu xususiyatini olimlar «nizoning konstruktivligi» deb atashadi.

Tashkilotda konstruktiv nizolar, dastavval, mehnat faoliyatidan kelib chiquvchi printsipial muammolar yuzasidan paydo bo'ladi. Manfaatlar qarshiligi yuz berar ekan, kim uchundir ish joyi ahamiyatli bo'lib, bajarayotgan mehnati katta mavqega ega.

Ayni paytda boshqa bir xodim esa ish bilan bog'liq bo'lмаган shaxsiy niyatlarini asosiy masala deb qaraydi. Mazkur vaziyatda mavjud qaramaqrashilikni yuzaga

keltirgan muammo yechilsa ushbu nizo ham yo'qoladi. Lekin, biron ish yuzasidan paydo bo'lgan nizo insonning hissiyot sohasiga kuchli ta'sir etishi va o'zining destruktiv xususiyatini namoyon etishi mumkin.

Destruktiv nizo salbiy kuchga ega va guruh ishining samaradorligini susaytiradi.

Konstruktiv nizo doimo ushbu ziddiyat manbaini aniqlash va uni iloji boricha tomonlar manfaati yo'lida o'zgartirishga qaratilgan. Destruktiv nizoda esa tomonlar ikkinchi darajali masalalarini, masalan shaxsiy g'urularini diqqat markaziga qo'yadilar va nizoning asl sababi chetda qolib ketadi. Shu bois, konstruktiv nizolar funksional mohiyatga ega va ular tashkilotning olg'a siljishiga madad beradi. Nizolar tashkilot miqyosida yuzaga kelayotgan muamolarni hal etish zaruratini qo'yar ekan, konstruktiv nizoda qarama-qarshilik ijobiy natijaga yo'naladi, asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi va jamoadagi o'zaro munosabatlarni rivojlantiradi.

Nizo turlari. Nizoning quyidagi asosiy turlari farqlanadi:

- Shaxsiy;
- Shaxslararo;
- Shaxs bilan guruh o'rtasidagi;
- Guruhlararo; Ijtimoiy.

Raxhar o'zining boshqaruva faoliyatida sanab o'tilgan inzolarning har biri bilan to'qnash keladi. Shu munosabat bilan quyida ular yuzasidan ma'lumot berib utamiz. Shaxsiy nizolar.

Nizoninig bu turi ayrim paytda ichki nizo deb ham nomlanadi. Nizoning bu ko'rinishiga shaxsning ichki ziddiyatlari sabab bulib, bunday tafovutlarni yuzaga keltiruvchi omillarni asosan ikki guruhga ajratish mumkin:

1) Insonning ehtiyoji, intilishi va qadriyati uning o'z bo'yniga olayotgan mas'uliyati bilan qarama-qarshi bo'lib qoladi;

2) Shaxsning unga qo'yilayotgan talablarga bosh ko'tarishi natijasidagi ichki tug'yonlari. Misol tariqasida tashkilot miqyosida uchrab turadigan quyidagi holatlarni eslash mumkin: Xodim biron ishni puxta bajargisi keladi, lekin vazifani yakunlash muddati uni shoshiltiryapti. Natijada, muddatdan kechikmaslik xohishi va mehnatga sidqidildan munosabatda bo'lish kabi ikki xohishi o'rtasida nizo yuzaga keladi. Demak, insonning dunyoqarashi va odatlari o'rtasidagi bunday nomuvofiqlik ichki nizoning asosida yotadi. Ichki nizoga yana bir misol sifatida xodimning ikki Rahbardan bir vaqtning o'zida topshiriq olishi va qaysinisini birinchi navbatda bajarishi masalasida qiynalishini xam keltirish mumkin. Bu ikkala misolda qamrab olingan nizo sababi tashqi muhit bilan belgilangan. Shaxslararo nizo. Mehnat jamoalarida nizoning bu turi ko'plab uchraydi. Aksariyat rahbarlarning fikricha, bunday nizoning yagona sababi – xodimlar xarakterlarining o'zaro nomutanosibligidir.

Biroq, mazkur nizoga oid vaziyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxslararo ziddiyatlar asosida, ko'p hollarda, ob'ektiv sabablar yotar ekan. Bulardan biri tashkilotdagi resurslarning cheklanganligidir. Masalan, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, ularga egalik kilish, ish vaqtiga va intizomga rioya etish, ishchi kuchiga bo'lgan talabdan kelib chiquvchi muammolar shular jumlasidan. Odatda, har qanday xodim bunday resurslarga boshqa kimsa emas, balki aynan o'zi muhtoj deb hisoblaydi. Rahbar bilan xodim o'rtasida nizo yuzaga kelaganda esa, xodim o'ziga

ajratilayotgan ish xajminiadolatsiz deb hisoblashi, rahbar esa xodim ishga sovuqqonlik bilan qarayapti degan fikrda bo'lishi mumkin.

Shaxs bilan guruh o'rtasidagi nizo. Har kanday guruh ichida o'zaro muomala, mehnat faoliyati va xulq-atvor normalari shakllanadi. Guruhning har qanday a'zosi bu normalardan kelib chiquvchi talablarni bajarishi shart. Qabul qilingan normadan chetlanish salbiy hodisa deb baholanadi va shaxs bilan guruh o'rtasidagi nizoni keltirib chiqaradi. Nizoning bu turi hatto rahbar va unga itoat etuvchi xodimlar o'rtasida ham sodir bo'ladi. Masalan, rahbar tomonidan qo'llanuvchi boshqaruv uslubining o'zgarishi, ko'p hollarda, u bilan xodimlar o'rtasida ziddiyat keltirib chiqarishi mumkin. Tashkilot miqyosida eng ko'p muammolar guruhlararo va ijtimoiy nizolar asosida yuzaga keladi.

Bunday nizolarni hal etishda rahbar o'z maslakdoshlari va yordamchilar ko'magiga muxtoj bo'ladi. Guruhlararo nizo. Mazkur nizo manbalaridan biri - jamoadagi rasmiy va norasmiy guruhlar o'rtasidagi mavjud muamolardan kelib chiqadi. Masalan, tashkilot rahbaryati bilan xodimlar o'rtasida, bo'lim ichidagi norasmiy guruhlar orasida, ma'muriyat bilan kasaba uyushmasi o'rtasida yuzaga keladigan nizolar bunga misoldir. Afsuski, guruhlararo nizoning tez-tez uchrab turishiga misol qilib boshqaruvning oliy va nisbatan quyi bo'g'lnlari o'rtasidagi kelishmovchilikni keltirish mumkin. Bunday nizo tashkilot nufuzi hamda mehnat samarasiga katta putur yetkazadi, xodimlar orasida sarosima va ikkilanish tarqatadi, kelajakka ishonchning yo'qolishiga olib keladi va natijada mehnat motivatsiyasi susayadi. Guruhlararo nizoning asosiy sabablaridan biri tashkilotda ijtimoiy raqobatning mavjudligidir. Bunda bir jamaa a'zolari boshqa guruhga xos bo'lgan jihatlarni salbiy deb baholashadi, ularni yomon xulq-atvor egasi sifatida idrok qilishadi. Mazkur nizo natijasi sifatida o'zga guruhga nisbatan tajovuzning yuzaga chiqishi kuzatiladi. Binobarin, guruhlararo nizo natijasida xodim o'z guruhini nisbatan yuksak va ijobiyroq baholaydi.

Guruhlararo nizoda psixologiya fanida «atributsiya» deb nomlanuvchi hodisa kuzatiladi va bunga muvofiq o'zga tomon vakillariga asoslanmagan tarzda u yoki bu xislatlar mansub deb topiladi. Masalan, biron salbiy hodisalar uchun aynan begona guruh sababchi, deb hisoblash odatiy holga aylanadi. Nizolarni tahlil etishda alohida o'rinni ijtimoiy nizolar egallaydi. Ijtimoiy nizo – sinflar, millatlar, davlatlar, ijtimoiy institut va jamoalarning to'qnash kelishida o'z ifodasini topadi.

Ijtimoiy nizo – o'zida bir qancha jahhalarni mujassam etgan murakkab hodisadir. Bunday ziddiyatda qarama-qarshi tomonlar maqsad va manfaatlari, harakatning an'anaviy uslublari ifodalanadi. Nizo jarayonining dinamikasi.

Nizolarni hal etish ularning ichki qonuniyatlarini aniqlash va tahlil etish zaruratini qo'yadi. O'zaro ziddiyatlarning yuzaga kelish va rivojlanish xususiyatini bilgan holdagina unga aralashish va demak boshqarish imkoniyatini topish mumkin. Bu masala nizo rivojlanishidagi quyidagi bosqichlarni farqlash zaruratini qo'yadi:

1. O'rtadagi mavjud ziddiyatni anglash

2. Nizoli vaziyatni anglash;

3. Nizoli xatti-harakatni amalga oshirish. Bu bosqichda o'zaro zid yo'nalgan va hissiy ko'rinishga ega bo'lgan harakatlar sodir etiladi;

4. Nizoning tugashi va nizo ishtirokchilari tomonidan bo'lib o'tgan voqeani baholash

Nizolarni boshqarish. Tashkilotda sodir bo'layotgan har qanday nizo rahbariyat nufuziga putur yetkazishi mumkin. Sodir bo'lgan nizodan so'ng ishlab chiqarish samaradorligi ham keskin pasayadi, jamoada nosog'lom muhit hukm suradi. Shuning uchun rahbardan nizolarning oldini olish tadbirlarini tashkillashtirish va agar sodir bo'lgan paytda esa ularni malakali tarzda hal etish qobiliyati talab etiladi. Rahbar shaxsi, hatto, nizoli vaziyatni yumshatishdagi asosiy omil bo'lib ham ishtirot etishi mumkin. Rahbarning shaxsiy madaniyati, nizoli va muammoli vaziyatga munosabati alohida ahamiyat kasb etadi. Rahbar ijodiy bo'lsa, muammoga ko'p tomonlama yondosha olsa, asta-sekin bu xislat uning qo'l ostidagi xodimlar xulqida ham namoyon bo'la boshlaydi. Bundan tashqari, keskin vaziyatga nisbatan rahbarning sokin munosabati, sovuqqonlik bilan mushohada qila olish qobiliyati nizoning yumshashiga shart-sharoit yaratadi.

Tashkilot doirasida nizolarni hal etishda qo'llanuvchi uslublarni quyidagi uch guruhga kiritish6 va bularni rahbariyatning imkoniyatlari sifatida talqin etish mumkin. Tashkiliy choralar: Bu toifaga kiruvchi tadbirlar tashkilotda nizo yuzaga kelishini ogohlantirish kuchiga ega. Puxta o'ylab tuzilgan ish rejasi, ishlab chiqarishda ishtirot etayotgan tomonlarning manfaatlarini to'liq hisobga olish, mehnat resurslarining oqilona va haqqoniy taqsimoti, korxona miqyosida ijtimoiy adolat tamoyillarining amaliyoti kabi choralar bu turkum vazifaga kiradi. Mazkur yo'nalish vakillari tomonidan nizoni boshqarishning tashkiliy usullari xam ishlab chiqilgan.

Bularga tashkilot miqyosida amalga oshiriluvchi quyidagi tadbirlar kiradi:

□ Talabning aniq bayon etilishi. Disfunktional nizoning oldini oldini olish uchun har bir xodimga ish natijasi yuzasidan talablarni tushuntirish lozim. Ushbu talablarni nafaqat xodim, balki bo'limlarga nisbatan ham qo'llash maqsadga muvofiq. Ishning bajarilish qoidalarini, huquq va majburiyatlarni aniq va mukammal ifodalash muhim ahamiyatga ega.

□ Muvofiqlashtirish mexanizmlaridan foydalanish.

Mehnat jamoasida yakkahokimlik tamoyilining qat'iy saqlanishi, asosiy nizoli vaziyatlarni boshqarishni osonlashtiradi. Bunday vaziyatda xodim kimning buyrug'inи bajarish kerakligini aniq biladi. Agar biron ishlab chiqarish masalasi yuzasidan xodimlarda kelishmovchilik kuzatilsa, ular «uchinchи hakamga» - o'z boshliqlariga murojaat qilishlari mumkin.

Korxona miqyosida turli tomonlar o'rtasidagi «manfaatlar kurashini» bartaraf etishga mo'ljallangan maxsus integral xizmat tashkil etilishi mumkin.

□ Umumiylar maqsadning o'rnatilishi, umumiylar qadriyatlarning shakllanishi. Mazkur yo'nalishdagi tadbirlarda tashkilotning siyosati, strategiya va perspektivalari haqida barcha xodimlarni xabardor qilishni taqozo etadi. Umumiylar maqsadning mavjudligi nizoli vaziyatda xodim o'zini qanday tutishi kerakligini tushunishiga olib keladi

□ Rag'batlantirish tizimini shakllantirish. Tashkilotdagi barcha xodimlarga oxirgi natija bo'yicha haq to'lash barchaning mas'uliyatini oshiradi va guruhlararo nizolarning oldini oladi.

Pedagogik choralar: Bu turkum choralarning asosiy maqsadi jamoa a'zosida maqbul dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan. Tashkilot rahbariyati bu yo'nalishdagi tadbirlar orqali guruhnini yanada ahillashtirishga, uning ma'naviy-axloqiy

jihatini kuchaytirishga erishadi. Nizo ishtirokchilari bilan tarbiyaviy ishlar olib borish, ularni ishontirish orqali nizo vaziyatini haqqoniy idrok etishga, u yoki bu harakatlarni axloqiy jihatdan baholashga undash mazkur choralar ichida keng tarqalgan. Ishontirish uslubi qo'llanganda o'zganing fikrlash doirasiga ta'sir ko'rsatiladi va maqbul hissiyotlar uyg'otishga erishiladi. Natijada kimsada irodaviy zo'riqish uyg'onishi, uning qaror qabul qilish va xatti-harakatlar sohasida ham o'zgartirishlar paydo bo'lishiga erishiladi. Ishontirish orqali muvaffaqiyatga erishishning asosiy garovi rahbarning jamoa a'zolari orasida obro'-hurmatga egaligidir.

Agar jamoada rahbarga hurmat bo'lmasa, xodimlar uni tan olishmasa, u holda xodimlarga ishontirish orqali ta'sir etish mumkin emas. Jamoadagi nizolarni hal etar ekan, rahbar o'zaro ziddiyatdagi tomonlarga ixtilofning salbiy oqibatlarini ko'rsata olishi, xodimlarda taalluqli hissiyot va munosabatni uyg'ota olishi kerak. Buning uchun esa rahbardan so'z boyligiga asoslangan yaxshi nutq malakasi ham talab etiladi. Nizoli vaziyatni yumshatishning asosiy sharti - tomonlar bilan munosabat o'rnatishda axloq va madaniyat normalariga rioya qilishdir. Rahbarning muloyim, xotirjam va sokin xulqi tomonlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ma'muriy choralar:

Nizolarni hal etishda rahbar qo'l ostida bir qancha imkoniyatlar mavjud. Shunday imkoniyatlardan biri – nizoni hal etish davomida ushbu jamoadagi muhit, undagi odamlarga xos xarakter xislatlari, guruhdagi ko'zga ko'rinas aloqalarni ilg'ab olishdir. Hatto xodimning nizo vaziyatini hal etish chog'idagi xulqi, vaziyatga munosabati ham ko'p narsadan ma'lumot beradi.

Ammo, boshqaruv jarayonida shunday vaziyatlar bo'ladiki, rahbar o'z mavqeい va vakolatidan foydalangan holda nizoni ma'muriy yo'l bilan uzil-kesil hal etishi lozim. Bunday chora qo'llanganda tomonlar tezda o'z hissiy hovuridan tushishadi, mehnat yana maromiga tushadi, tashqi sokinlik ostida esa hislar tug'yoni o'z qonuni asosida rivojlanaveradi. Ayrim paytlarda rahbar shu uslubni qo'llashi lozim va majbur. Ma'muriy yo'l bilan nizoni hal etish zarurati vaqt tanqisligi sharoitida, adolat to moyillari ustuvorligini namoyish etishda, biron nizo takrorlanavergan taqdirda qo'llanishi mumkin.

Vaqtni boshqarish Ish jarayonida aksariyat holdagi muvaffaqiyatlar biron ishni to'g'ri bajarish evaziga emas, balki shu ishni o'z vaqtida bajarish oqibatida erishiladi. Shuning uchun vaqtdan ratsional foydalanish – kasbiy va ish sohalaridagi muvaffaqiyatning asosiy omilidir. Albatta, vaqt kaytarib bulmas boylik va uni uzaytirib ham bo'lmaydi. Shuning uchun inson ixtiyoridagi yagona imkoniyat vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishdir. Zamonaviy rahbar uchun eng muammoli masalalardan biri vaqtni yetkaza olishdir. «qani endi sutkada 24 emasu, 34 soat bo'lsa» degan rahbarlar kam emas. Vaqtdan unumli foydalanish yo'lida bir nechta tashkiliy uslublar bo'lib, ularga rioya qilish vaqtimizni tejashga va ma'lum vaqt oralig'ida oldingiga nisbatan ko'proq ish bajarishga erishish imkonini beradi. Bundan tashqari, kator psixologik omillar xam borki, ularni hisobga olish va balki ular ustida ishslash vaqtdan unumli foydalanish uchun asos yaratadi. Shunday qilib, vaqtdan unumli foydalanish masalasini muhokama etishda ikki asosiy jihatni – tashkiliy va psixologik tomonlarni tahlil etish mumkin. Tashkiliy tomonlar deganda bajarilayotgan ishni rejalaشتirish, saralash, hisobga olish kabi tadbirlar nazarda

tutiladi. Ish kunini unumli tashkil etishdagi birinchi qadam mavjud vaqt ni yetarli emasligi sabablarini aniqlashdan iboratdir. Buning uchun bir qog'oz olib unga ustun tarzida vaqtingiz tanqisligi sabablarini yozib chiqing. Bu sabablar nimaning oqibati ekanligini tahlil eting. Bu sabablarni keltirib chiqaruvchi muammolarni hal etish yo'llarini izlang. Vaqt ni to'g'ri taqsimlashdagi eng asosiy masalalardan biri kundalik vazifalarni to'g'ri taqsimlashdir. Rahbar o'z ixtiyoridagi vazifalarni turli belgilar va usullarga ko'ra taqsimlashi mumkin. Bular ichida eng samaralisi, bajarilishi lozim bo'lgan vazifaning ahamiyat va tezkorlik mezonlari bo'yicha taqsimlashdir. Mazkur uslubga binoan tashkilot rahbari ixtiyorida bo'lgan vazifalar quyidagi 4 katakka joylashtiriladi.

Tashkilot miqyosida amalga oshiriladigan vazifalarning hammasini shu to'rt katakka joylashtirish mumkin. Endi, ushbu katakda ko'rsatilgan ta'riflarni diqqat bilan o'qib chiqing va rahbar sifatida qaysi katakdagi ishlar bilan ko'proq shug'ullanishingizni ayting. Boshqaruv sohasidagi yetakchi mutaxassislar fikricha ushbu kataklardagi vazifalar taqsimoti rahbar lavozimiga qarab quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi mumkin: Birinchi katak korxona menejeri lavozimida ishlovchi xodim mas'uliyatidan kelib chiqib bajariladigan vazifalar. Albatta, boshqaruv tajribamizga endigina kirib kelayotgan menejer so'zi bizda mavjud bo'lim boshliqlari, uchastka boshliqlari kabi lavozimlarda ishlovchi mutaxassisliklarga mos keladi. Shu jihatdan olganda, menejer ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi xodimdir. Ikkinci katak tashkilot rahbari zimmasiga yuklatiladigan vazifalar majmuidir. Rahbar o'zining asosiy e'tiborini strategik rejalar qurishga, istiqbolda tashkilotni kutayotgan maqsadlarni tanlash ustida bosh qotirishi lozim. To'g'ri, hozirgi zamon o'tish davriga xos iqtisodiyotimiz o'zining ko'p jihatlari bilan rahbar mas'uliyati doirasidagi ushbu ta'riflarga mos kelmasligi mumkin. Lekin, rahbar iloji boricha kundalik tezkor vazifalarni o'zidan ozod etishi va iloji boricha ertangi kun haqida qayg'urishi uning lavozimiga qo'yiluvchi talabdir. Yuqorida keltirilgan vazifalar taqsimotiga binoan uchinchi katakka xos bo'lgan vazifalar doimo rahbar yordamchisi va kotiba orqali bajarilishi lozim. Rahbar bu kabi ishlarga vaqt sarflashi mutlaqo o'rinsiz. Va nihoyat, to'rtinchi katak nafaqat rahbar, balki tashkilot xodimlarining qanchalik ish bilan bandligi, vaqtini behuda sarflayotgani ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Demak, har bir rahbar o'z vaqtidan unumli foydalanishi uchun o'z vakolati va zimmasidagi mas'uliyatdan kelib chiqqan holda vazifalarni saralab olishi, o'z mavqeい uchun ahamiyatlari va ahamiyatsiz ishlarni bir-biridan ajratib olishi lozim. Keyingi tashkiliy imkoniyatlardan yana biri – bajarilishi lozim bo'lgan vazifani iloji boricha yordamchilar zimmasiga o'tkazishdir. Rahbar bajarayotgan ishning doimo shunday qismi mavjudki, uni bevosita rahbarning o'zi bajarishi shart emas. Mavjud ishni tarkibiy qismlarga bo'lish va ularni bajarish vakolatini xodimlarga o'tkazish rahbar vaqtini tejashdagi asosiy uslullardan biri. Xatto rahbar ba'zida o'ziga «Shu ishni bajarishim shartmi, bajarmasam nima bo'ladi?» degan savolni berib turishi ham ikkinchi darajali ishlarni asosiyalaridan ajratib olish imkonini beradi. Boshqaruv vazifalarini taqsimlay olmaslik, rahbarning o'z vakolatlari ma'lum qismini qo'l ostidagilarga topshira olmaslik xodimlarga ishonmaslik belgisidir va bunday holat jamoada salbiy muhit shakllanishiga olib keladi. Chet el biznes boshqaruviga oid adabiyotlarda ko'rsatilishicha istiqboldagi maqsadlarga yo'halganlik tashkilotning turli bo'g'in rahbarlarida quyidagicha taqsimlanishi lozim ekan: masalan, korporatsiya

boshqaruvi raisi 20 yil oldinga qarab tashkilot ishini rejalashtirsa, boshqaruv a'zolari 12-15 yillik istiqbolni ko'ra olishlari kerak va biron soha yo'nalishidagi rahbar, ya'ni menejerlar esa 7 yillik istiqbolni prognoz qilishlari lozim. Sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra menejerning ish vaqtini taqsimoti quyidagi tartibga to'g'ri kelar ekan:

- Ishdagi odatiy va kunda qaytarilib turadigan muammolarni yechishga 80% vaqt ketadi va bu sarfalangan vaqt 20% muvaffaqiyatni keltiradi.
- Muhim va strategik muammolarni hal etishga 20% vaqt ketadi, lekin bu mehnat evaziga korxonanining 80% muvaffaqiyatiga erishiladi.

Rahbarning vaqtini boshqarishi muammoni malakali tarzda aniqlay olish, maqsad va vazifani to'g'ri belgilash, xodimlar o'rtasida ishni taqsimlay olish qobiliyatlariga asoslanadi. Yuqorida sanab o'tilgan tadbirlar ko'proq texnologik mazmunga ega bo'lib, vaqt yetishmasligining psixologik sabablari xam mavjud. Kuyida sanab o'tiladigan shaxs psixologik muammolarini malakali hal etish orqali rahbar o'z vaqtidan yanada unumli foydalanishda qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin:

1. Doimiy shoshilish. Shoshilinch holatdagi kimsa biron masala ustida to'xtab, batafsil mulohaza yuritolmaydi, manzur qaror qabul qila olmaydi va ko'p hollarda uchraganidek, ushbu masalaga yana va yana qaytish zarurati tug'iladi.
2. Charchash. Doimiy shoshilinch sharoitida uzoq vaqt ishlash natijasida yuzaga keladigan holat.
3. Haddan tashqari ko'p vazifalarni o'z zimmasiga olish.
4. Pala-partishlik. Ishni yomon tashkil etish, rejalashtirmaslik natijasidir. Ba'zi hollarda inson o'z hissiyotini boshqara olmaslik oqibatida xam namoyon bo'ladi.
5. Doimo uyga ish olish. Jismoniy va ruhiy charchoq paydo bo'lishi va natijada ish vaqtida mehnat qilish qobiliyatining susayishida namoyon bo'ladi.
6. Ishni rejalashtirmaslik. Ko'p hollarda bu xislat alohida shaxs emas, balki u ishlaydigan tashkilot muammosi hamdir.
7. Mehnat qilishga bo'lgan motivatsiyaning sustligi. Bu omil ish unumdarligining pastligiga va natijada me'yordagi vazifalarni vaqtida bajara olmaslikka sabab bo'ladi.
8. Iroda sustligi. Diqqatni jamlay olmaslikda, beqarorlikda namoyon bo'ladi. qaror qabul qilishning qiyinligi uning ijrosini ham orqaga cho'zib yuboradi.
9. Ishni bajarishda kasbiy mohirlik – professionalizmning yetishmasligi. Vaqtan unumli foydalanishga salbiy ta'sir etuvchi shunday omillar ham borki, ular ko'proq ijtimoiy -psixologik mazmun kasb etadi:

- jamoada ijobiy o'zaro munosabatlarni saqlash va rivojlantirishga vazifadan ko'ra ko'proq e'tibor beriladi;
- hamkorlikdan ko'ra musobaqa/qarama-qarshi turish siyosati ustunroq turadi.
- Vazifani muvaffaqiyatli hal etishga ishonchning yo'qligi yoki kamligi
- Vaziyatni qanday hal etish haqida birovning ko'rsatmasini tazyiq ostida qabul qilish
- Vazifani qanday hal etish bo'yicha rahbarlikning, yo'rqnomaning shakllanmaganligi

Demak, vaqtini to'g'ri taqsimlash va ajratilgan vaqtidan unumli foydalanish insondan ma'lum psixologik bilimlarni bilishni talab qilish bilan birga ushbu muammolar bo'yicha shaxsning o'z ustida muntazam ish olib borishi orqali hal etish imkonyatini beradi. Yuqorida taklif etilganidek, qog'oz va qalam olib qaysi muammolar tufayli vaqt yo'qolishi sabablarini aniqlang va shu sababni bartaraf etish bo'yicha yangi xulq shakllarini o'zingizda rivojlantiring. Bu tadbirni amalga oshirishda kichik bir psixologik mashq taklif etishimiz mumkin. U yoki bu tadbirga kirishar ekansiz, masalan, tez qaror qabul qilmokchisiz va qabul qilingan qarorga

boshqa qaytmoqchi emassiz. hayotingizda ishonchli va tez qaror qabul qilgan biron vaziyatni eslang. Shu vaziyatni eslash orqali o'sha paytdagi holatni qayta paydo qilishga harakat qiling. Ishonchli qaror qabul qilganingizda qanday vaziyatda edingiz, atrofingizda qanday odamlar bor edi, turgan joyingizni ko'z odingizga keltiring, qanday tovushlar kelayotganini eslang va jonlantiring. o'sha vaziyatdagi atrof muhit va tasavvurlarni maksimal darajada qayta tiklash natijasida shu vaziyatga xos bo'lgan hislar yana tiklana boshlaydi. Mana shu qayta tiklangan ishonch hissi bilan mavjud muammoga qarang va yechim o'z-o'zidan, tez kelganini his etasiz. Ushbu mavzuni yakunlar ekanmiz, vaqtini samarali boshqarish bo'yicha har bir rahbar va xodim yodda tutishi lozim bo'lgan qoidalarni eslatib o'tmoqchimiz: 1. Vaqtingizni haqiqatan ham juda muhim vazifalarni hal etishga sarflang 2. Kuningizni rejalar bilan to'ldirib yubormang, belgilangan ishlaringiz orasida tasodifiy va tezkor ishlarni oraliqlar qoldiring 3. Muhim (3 tagacha) va ikkinchi darajali (5 tagacha) ishlarni rejalashtiring 4. Kuningizni qiyin, muhim va yoqimsizroq ishlardan boshlang va yakunlashda oddiyroq, yoqimliroq ishlarga o'ting 5. Vaqtini shoshiltirmang. Ish vaqtidan keragidan ortig'ini siqb chiqarishga harakat qilmang 6. Agar vaqtingiz bo'lsa vazifani hal etishga bugunoq kirishaqoling. Muammoni tezroq va batafsilroq hal etishga kirishing. qolgan vaqtini dam olish yoki boshqa ishlarni hal etishga sarflaysiz. 7. Vazifani yoki uning bir qismini xodimlarga bo'lib berish imkoniyatini izlang 8. Eski ishni tugallab keyin yangisiga kiriishing. Yangi ishni boshlar ekansiz, har qanday sharoitda uni tugatishga ishonchingiz komil bo'lsin. 9. Vaqtingizni oladigan yoki o'z vaqtini sizning hisobingizga tejaydigan kimsalardan uzoqroq bo'ling. 10. Vaqtini boshqarishga oid qobiliyatleringizni tahlil qilishga o'rganing 11. Vaqtning hatto eng kichik bo'laklarini ham tejang. 12. O'zingizni «harakatsizlikda» ayblayvermang. Rahbar faoliyatida ijodiy tanaffuslar bo'lib turishi kerak.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR.

- ✓ Tashkilotdagи nizolarni boshqarish
- ✓ Konstruktiv va destruktiv nizolar.
- ✓ Destruktiv nizo
- ✓ Nizo turlari.
- ✓ Nizolarni boshqarish
- ✓ Taiym-menejment va stress-menejment

Mustaqil ish va referat uchun mavzular.

1. Tashkilotdagи nizolarni boshqarish
2. Konstruktiv va destruktiv nizolar.
3. Destruktiv nizo
4. Nizo turlari.
5. Nizolarni boshqarish
6. Taiym-menejment va stress-menejment

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati.

1. Махмудов И.И. Бошқарув психологияси: Укув кулланма/ Мас'ул мухаррир: А.Холбеков. - Т.:ДЖКД “Рахбар” маркази, “YUNAKS-PRINT” МChД, 2006.
2. Боймуродов Н. Рахбар психологияси. Олий та'лим, халк та'лими согликни саклаш, урта маҳсус қасб-хунар та'лими бошкдрмаларининг ма'мурий ходимлари учун кулланма,- Т.: “Янги аср авлоди”, 2007.

3. Nazarov A. Boshqaruv psixologiyasi. T. 2021.
4. Jabborov X. Rahbar ma’naviyati. T. 2019.

Qo’shimcha adabiyotlar

5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. - T.: O’zbekiston, 2016. -56 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. – T.: O’zbekiston, 2017. – 48 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O’zbekiston, 2017. – 108 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O’zbekiston, 2017. – 488 b.
9. Берестова Л. И. Социално-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя. М.. 1994.
- 10.Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. Oliy ta’lim, xalq ta’limi sog‘lijni saqlash, o‘rta maxsus kasb-xunar ta’limi boshqarmalarining ma’muriy xodimlari uchun qo‘llanma.- T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.
- 11.Мескон М.Х., Алберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. М., 1992.
Петрунин Ю.Ю.. Борисов В.К. Этика бизнеса: Учеб, пособие. М.. 2000.
- 12.Психология менеджмента / Под ред. проф. Н.С. Никифорова. СПб.. 1997.
- 13.Секач М.Ф. Психологическая устойчивость руководителя. М.. 1997.
Синягин К). В. Руководител организатии и его команда (теоретическая модель). М., 1996.
- 14.Станкин М. Психология делового человека: Самоучител. М., 2003.
Стил человека: психологический анализ / Под ред. А. Либина. М

Internet saytlari

- 15.www.ziyonet.uz
- 16.www.tdpu.uz
- 17.www.pedagog.uz
- 18.www.psychology.uz
- 19.www.nutq.intal.uz
- 20.www.psychology.net.ru
- 21.www.gleforg Djordj Lukasning Ta’limning fondi
- 22.www.newhorizons.org Ta’limning Yangi ufqlari
- 23.www.rhecherswithoutborders.org Chegarasizo‘qituvchilar
- 24.www.thelearningweb.net Ta’lim tarmog’i
- 25.www.inetlibrary.com Internet kutubxona

BOSHQARUV PSIXOLOGIVASI BO'YICHA QO'SHIMCHA MATERIAL

Oxirgi yillarda inson omiliga ehtiborning ortib borishi munosabati bilan boShqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. SHu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi - boShqarish psixologiyasi paydo bo'ldi. BoShqarish psixologiyasi psixologiyaning Shunday tarmog'iki, u boShqaruva faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, Shaxs va Shaxslar guruhi tomonidan boShqa guruhlar faoliyatini samarali taShkil etish va birgalikdagi faoliyatni amalga oShirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

BoShqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi, jumladan falsafa, tarix, iqtisod, xuquqShunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan Shug'ullanadi. Psixologiya boShqarishni ham obhekti, ham subhektini o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida Shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boShqaruv obhekti deb aytildi.

BoShqaruvning subhekti o'rganilganda esa odatda boShqaruvchi Shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi. Psixologiya ko'proq boShqaruvchi Shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va Shu asosda xodimlar ishlarini samarali taShkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar chiqarish uchun qanday psixologik holat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi. Masalan, konkret hayotiy Sharoitlarda agar boShliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarining fikrlari, mahruzalari va hokazolar orqali ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra boShliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi.

BoShqaruv psixologiyasi boShliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boShqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra u boShliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oShirish uchun u boShqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik tahsir ko'rsatish maqsadida u qanday tahsir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. BoShliq bo'lish ishiga turli Shaxslarning munosabatlari har-xil: kimdir boShliqda bo'lgan imtiyozlarga qiziqadi, kimdir unga berilajak xuquqlarni afzal ko'radi, kimadir yuksak mahsuliyatlarni bo'yniga olish mahkul keladi. SHaxsnинг boShliq vazifalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boShliq real Sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llaSh, ularga ularga boSh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oShirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlik o'z bo'yniga olish kabi ko'plab sifatlarning talab qilinadi.

Ayniqsa, boShliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boShliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi Shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'Sha guruhlarni taShkil etgan har bir Shaxsnинг o'ziga xos individualligi boShqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boShliqdan odamlar bilan ishlaSh borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr qanoatning bo'lishini talab qiladi. SHuning uchun ham kundalik hayotimizda ham ilmiy

adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan “lider” va “boShliq” tushunchalarining psixologik mazmunlarini tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Guruhlarda rahbarlik va liderlik. Guruhlardagi o’zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo’lib, guruh ahzolarining konkret mavqelari, boShliq bilan bo’ysunuvchilar o’rtasidagi munosabatlarni o’z ichiga oladi. Bu borada “lider” va “boShliq” tushunchalari o’rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim. B.D. Parigin bu ikki tushunchani farqlab Shunday yozadi:

- 1) lider asosan guruhdagi Shaxslararo munosabatlarni boShqarsa, rahbar – Shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boShqaradi;
- 2) liderlik kichik guruhlargagina xos bo’lgan hodisa bo’lsa, rahbarlikning haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo’lishi, amalga oShirilishi mumkin;
- 3) agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo’lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan jamiyatda ishlab chiqilgan normalar tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo’ladigan hodisadir;
- 4) liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo’lib guruh ahzolaring kutishlari, ularning kayfiyatları, faoliyat yo’nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qiga muddatda ro’y beradi.
- 5) rahbarning liderdan farqi yana Shundaki, u liderda yo’q bo’lgan jazolaSh va rag’batlantirish tizimiga ega bo’lib, Shu asosda xodimlariga o’z tafsirini o’tkazish mumkin;
- 6) lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko’rsatmalar taShabbuslarni o’z ixtiyoricha bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo’nalishda ko’plab ko’rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, rahbar ular doirasidan chiqib ketishi, o’zboShimchalik qilishi qiyin.
- 7) liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oShirilsa, rahbar Shu guruhdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi, jamiyatdagi vakili bo’lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Lider hech qachon yolg’iz bo’lmaydi, u doimo guruh ahzolari davrasida qaraladi, Shu guruh ahzolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. CHunki lider Shu guruh ahzolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatları, intilishlari, qiziqishlari va hakozolarini hammadan yaxShi biladi, ularning ichida eng taShabbuskoridir. Agar sinf doirasida qaraladigan bo’lsa, turli xil lider borligini aniqlaSh mumkin. Masalan, guruh ahzolari ichida eng bilag’oni, aql o’rgatuvchi, topqir *intellektual lider*, bolalar ichida hazilkaSh, dilgir, xuShchaqchaq, ko’ngil so’rovchi, o’zgalarni tuShuna oladigan - *emotsional lider*, guruhnini ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qathiyatlari, irodali - *irodaviy liderlar* bo’lishi mumkin. Ular ayni vaziyatlarda vaziyat talabiga ko’ra paydo bo’ladilar hamda bolalar ongida o’z sifatlariga ko’ra obro’ qozonadilar. Lider sifatlari ichida yaxShi va yomonlar ham bo’lishi mumkin, lekin guruh liderga erishganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va Shuning uchun ham barcha ishlariga ergaShib, ko’rsatmalariga amal qiladi. Maktabda bolalar ichida xulqi maktab normalariga to’g’ri kelmaydigan liderlarning borligi, ular mahlum guruh ichida so’zsiz obro’ga ega ekanligi ham Shu bilan tuShuntiriladi. Masalan, lider “ketdik” deb ko’rsatma bersa, unga ergaShganlarning darsni ham taShlab keta olishi Shu bilan tuShuntiriladi. SHuning uchun ham sinf rahbari o’z sinfidagi rasmiy liderlar bilan ishlaSh bilan cheklanmaydi, balki norasmiy liderlarni ham aniqlaydi.

bilishi, ular bilan hamkorlikda ishlaShi zarur. To'g'ri, bahzi hollarida rasmiy va norasmiy lider bir Shaxs bo'lisi mumkin. Bu juda qulay, lekin liderlik vaziyatga bog'liq bo'lgani uchun ham ularning o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak, o'qituvchining boShqarish mahorati yoki sahati uning norasmiy liderlar bilan samarali ishlaSh usulidir.

SHunday qilib, har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik Shaxsning Shunday xususiyatiki, u boShqa Shaxslarga ham hissiy - emotsiyal, ham irodaviy tafsir ko'rsata olish qobiliyatiga egadir. Norasmiy obro'lilik, yahni Shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro' samaralidir. Odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularni turli vaziyatlarda tuShuna olish, ishonch va Shunga o'xShaShlar obro' orttirish mehzonlari dandir.

Liderlik hodisasi to'g'risida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari haqida ham qisqacha to'xtalib o'tish o'rinnlidir. Hozirgi kunda qadar liderlik to'g'risida asosan uchta nazariya mavjud.

Birinchisi "*liderlik sifatlari nazariyasi*"dir yoki xarizmatik nazariya. Uning mohiyati Shuki, hamma ham lider bo'la olmaydi, ayrim Shaxslarda Shunday sifatlar yig'indisi tug'ma mavjud bo'lib, bu sifatlar majmui uning guruhda lider bo'lishini tahminlaydi. Masalan 1940 yilda amerikalik K. Berd 79 sifatdan iborat bo'lgan liderlik qirralari ro'yxatini tuzdi. Bu ro'yxatda, jumladan, taShabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, humor hissi, o'ziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul qila olish, taShkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi Shunda ediki, birinchidan, u yuqorida sifatlar qanday qilib namoyon bo'ladi-yu, qanday Shakllanishi tuShuntirib bera olmadi, ikkinchidan, so'roqlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko'p marta qayd etilmadi. Tadqiqot nihoyasida o'Sha boShida taklif etilgan sifatlarning atigi 5 foizigina aksariyat remponentlar javobida qayd etildi. Bu liderlik modelini yaratish oson emasligi to'g'risida xulosaga kelishni taqozo etdi.

Ikkinchi nazariya *liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasidir*. Bu yerdagи asosiy g'oya – lider vaziyatning mahsuli degan g'oyadir. Har bir odamda liderlik sifatlari bor, lekin ayrim vaziyatlar ayrim Shaxslarning o'zlarini ko'rsatishlari, lider bo'lishlari uchun qulay hisoblanadi.

Yuqorida ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo'lgan uchinchi nazariya *liderlikning sintetik nazariyasidir*. Bu nazariya liderning guruhiy munosabatlarinig bevosita mahsuli deb qaraydi, liderning ro'yobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi.

Ko'plab olimlar, jumladan, rossiyalik ijtimoiy psixologlar oxirgi yillarda rus psixologi A.N.Leontg'evning faoliyat kontseptsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhnинг uShbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutuvlarga kim ko'proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin, deb hisoblaShmoqda. Bundan taShqari, ijtimoiy kutuvlar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan mahqul yondoShishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

SHuni alohida tahkidlaSh joizki, butun dunyoda ishlab chiqarish va uni boShqarish borasida modernizatsiya siyosatining tan olinishi, barcha davlatlarning o'ziga xos demokratiya tamoyillari asosida jamiyatni, xususan, mehnat jamoalarini boShqarish siyosatiga o'tishi munosabati bilan boShqaruv masalalariga ham munosabat o'zgardi. Jumladan, mustaqil O'zbekistonda ham erkin fuqarolik jamiyatni qurish tamoyillarining yangidan belgilanganligi, Prezidentimiz I.A. Karimov

tomonidan barcha jabhalarda, xususan, ijtimoiy sohalarda insonparvarlik siyosatining keng singdirilishi munosabati bilan rahbar va lider Shaxslarga nisbatan ijtimoiy fikrda ham muayyan o'zgarishlar ro'y berdi. Bugun O'zbekiston Sharoitida bunyodkorlik sifatlariga ega bo'lgan, o'z oilasi, mahallasi, Shaxsan o'zi va jamiyat mafnaatini o'ylab mehnat qilayotgan fuqaro jamiyat tomonidan ijtimoiy himoyada bo'lib, uning faoliyatini muvofiqlaShtirish, unga yetarli darajada ish Sharoitlarini yaratishga maShul bo'lgan rahbar eng avvalo unga g'amho'r bir inson sifatida qaraShi, mehnatdan manfaatdorlik psixologiyasini uning ongiga singdira bilishi Shart. Xalqqa yaqin bo'lib, uning dardi bilan yaShaSh, har bir ishning istiqbolini yaqqol tasavvur qila olish – zamonaviy rahbar-liderga xos fazilatlardir.

Liderlik uslublari haqida tushuncha Har bir lider yoki boShliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boShliq o'z ish faoliyatini o'ziga xos tarzda taShkil etishidadir. Ijtimoiy psixologiyada batafsil o'rganilgan muammolardan biri – turli boShqaruv uslublaridir. Bu sohada nemis olimlari G.GibSh va M.Forverg, rus olimlari V.D.Parigin, L.N.Uminskiy, M.Yu.Jukov va boShqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqolarni umumlaShtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul qilingan uch asosiy boShqarish uslublariga tavsif berib chiqamiz. Bu uch uslub - avtoritar, demokratik va liberal boShqaruv uslublaridir.

A v t o r i t a r rahbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq ravShan, keskin ohangda xodimlarga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q – po'pisa, keskin taqiqlaSh kabi qathiy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri – nima yo'l bilan bo'lsa-da, o'z hukmini xodimlarga yetkazish, kerak bo'lsa, tayziq o'tkazishdir. Uning nutqi ham hamisha aniq va ravon, doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtaSh yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof obhektiv bo'lib, bu narsa boShliqning kayfiyatiga va o'zga Shaxslarga nisbatan munosabatiga bog'liq. Jamoa ahzolarining tilak istaklari, ularning fikrlari va maslahatlari juda kam hollardagina inobatga olinadi, aksariyat hollarda bunday istaklar va ko'rsatmalar to'g'ridan-to'g'ri do'q-pupisa, kamsitish yoki mahnaviy jazolaSh yo'li bilan cheklanadi yoki qoniqtirilmaydi. Bunday rahbar o'z ish uslublari, kelajak rejalar, biror aniq ishni, operatsiyani qanday amalga oShirmoqchiligin odatda, jamoadan sir tutadi, uning fikricha, bu uning obro'yiga salbiy tahsir etishi mumkin. Guruhdag'i ijtimoiy fazoviy munosabatlardagi o'rni jihatdan, u "jamoadan chetda", avtonomdir.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa ahzolarining qobiliyatları, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rirlari haqida tasavvurlar borki, Shunga ko'ra, u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlaShtirib qo'ygan, unda har qanday cheklaShlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolaShning turli uslublari mavjud. Yahni, bunday jamoalarda hokimiyat markazlaShtirilgan, jamoa rahbari uShbu markazning yakka hokimi – Shuning uchun ham bu yerda "mening odamlarim", "mening ishim", "mening fikrim bo'yicha" kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishga nisbatan Shunday fidoyilik borki, ular o'zlarini ayni Shu professional kasblarisiz, odamlar ustidan rahbarlik qilishdek maShaqqatsiz tasavvur qila olmaydilar, yahni ish ularning "butun vujudini qamrab olgan". SHu sabab bo'lsa kerak, bunday rahbar har bir odamning kundalik ish faoliyatini, uning natijalarin juda yaxShi biladi. Lekin,

aslida, uni ishning mazmunidan ko'ra, o'zining o'Sha yerdagi yetakchilik roli, boShliqligi ko'proq qiziqtiradi va o'ziga o'Sha sifatlarga qarab baho beradi. Bu sifat, tabiyki, ishning sifatiga ham tafsir qilgani uchun jamoa oldiga qo'yilgan topShiriqlar bajarilmay qolmaydi ("temir rahbar"). Bunday jamoalarda tanqid ishi juda sust, chunki o'zini ham, boShqalarni ham tanqid qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Tanqid qilishga uning fikricha faqat undan yuqori turadigan boShliq xaqli. Yig'ilishlarda so'zni o'zi boShlab, taShabbusni oxirigacha boShqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari ehtiborga olinmaydi.

GibSh va M.Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider boSh bo'lgan ishlarning samaradorligi yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ko'satkichlari ham yuqori bo'lar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy –mahnaviy muhit og'ir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan qoniqmasliklariga olib keladi. Bunday rahbarlar boShchilik qilgan mehnat jamoalarida ishlaydiganlar o'z kasblari, ish joylarini osonlikcha almaShtirishlari mumkin.

D e m o k r a t i k rahbar, aksincha, xodimlariga mustaqillik, erk berish tarafdori. Ish mobaynida xodimlarga topShiriqlar berganda ularning Shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning Shaxsiy moyilliklarini, hoxish va istaklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topShiriqlar odatda, taklif mahnosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat, samimiyat sezilib turadi. Biror kishini maqtaSh, uning lavozimini oShirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa ahzolarinig fikri bilan kelishilgan holda amalga oShiriladi. Tanqid ko'pincha taklif, istak Shaklida, amalga oShirilgan ishlarnig mazmuniga baho berish xolda egasiga yetkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boShlanmaydi. SHuning uchun ham uning fazoviy –ijtimoiy holati "jamoa ichida"dir.

Jamoada tanqid va o'z-o'zini tanqid Shunday yo'lga qo'ilganki, uning oqibatida hech kim aziyat chekmaydi. CHunki ko'proq boShliq emas, balki jamoaning boShqa faollari – norasmiy liderlar kimdir ishda kamchilikka yo'l qo'ygan bo'lsa, uning faoliyatini tanqid qiladilar. BoShliq yo'l qo'gan xato-kamchiliklarini jamoatchilik oldida bo'yniga olishdan qo'rqlaydi. CHunki undagi mahsuliyat hissi nafaqat yuqori boShqaruv taShkilotlari ahzolari bilan muloqot paytida, balki xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topShiriq yuzasidan mahsuliyatni boShqalarga ham bo'lib berishni yaxShi ko'radi. BoShliqning xodimlaridan siri yo'q, Shuning uchun ham majlislarda ko'proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qaror chiqarish va so'zlarni yaknlaSh, umumlaShtirish huquqidan u to'liq foydalanadi.

GibSh va Forverglarning tahlili ko'ra, bunday boShliq rahbarlik qilgan jamolarda mahnaviy –ruhiy muhit juda yaxShi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam ekan-u, lekin ishlab chiqarish zo'rg'a norma xolatida bo'lar ekan, chunki bunday rahbardan tabiatan dangasa xodimlar foydalanadilar.

L i b y e r a l (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlaSh, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ishning oxirgi oqibati bilan ttanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo'q, boShliq jamoaning muammolari ishning baland – pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki "koiinotda" yurganga

o'xShaydi, Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topShiriqlar xodimlarga yetkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish Sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xom-aShyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnaShish. Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xuShmuomala bo'lib, odob, ahloq normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin hech qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosita jarayonga aralaShmay oxirgi so'zni o'ziga qoldiradi. SHunday qilib, xodimlarga fikrlaSh va hatti-harakatlar erkinligi berib qo'yilgan. SHu erkin harakatlar yuzasidan boShliqning fikri so'ralgan taqdirda ham, undan aniq gap chiqmaydi, chunki u xodimlarni yaxShi bilmaydi, qolaversa, ularni xafa qilib qo'yishdan qo'rqedi. Uning fazoviy psixologik holati – "guruh taShqarisida".

Olimlar fikricha, bunday rahbar ishini olib borgan jamoalarda barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, xodimlar qo'nimi ham yo'q. Liberal rahbar ishda anarxiyani keltirib chiqarib qo'yib, ko'p turmay boShqa yerdan ish qidirishga harakat qiladi.

Yuqorida baho berilgan boShqarish uslublari ko'proq liderlikka emas, rahbarlikka taalluqli. Ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora ko'pincha, aslida, eng yaxShi rahbar barcha liderlik sifatlarini ham mujassamlaShtirgan bo'ladi. CHunki, sof ijtimoiy psixologik liderning turlari turli Sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan Shaxsiy sifatlarga tabaqalanadi. Masalan, *lider taShkilotchi, lider taShabbuskor, lider erudit, jamoa hissiy emotsiyal holatini boShqaruvchi lider, lider bilag'on*. YaxShi rahbar ana Shu lider sifatlarini bilgan holda ularni o'zida tarbiyalaShi va jamoasidagi liderlar bilan hamkorlikda ishlay olishi kerak. Oxirgi yillarda Moskva va boShqa yirik markazlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Shunday xulosaga kelindiki, aslida hayotda sof demokrat, avtoritar rahbarni uchratish qiyin, lekin uchragan paytda ham ular bir jamoani uzoq muddat boShqara olmasligi mahlum bo'ldi. SHuning uchun ham ular vaziyatga bog'liq. Konkret jamoa, undagi qabul qilingan hatti-harakat normalari Shaxslararo munosabatlar tipi liderning ham rahbarning ham ish taktikasi va uslubini belgilaydi degan g'oya qabul qilinmoqda. Lekin rahbarlik uslublarining psixologik mazmun va mohiyatini bilishning amaliy ahamiyati Shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobiy tomon bor. Mohir rahbar o'zini-o'zi tarbiyalar ekan, o'Shalarning eng maqbولي, ayniqsa, o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalaShi maqsadga muvofiqdir.

SUPERLIDERLIK FENOMENI. XXI asrda ko'plab qadriyatlarga munosabat o'zgargani sir emas. SHular qatorida insoniy munosabatlar, odamlar faoliyatini demokratik o'zgarishlar Sharoitida boShqarish masalalariga nisbatan ham qaraShlar birmuncha o'zgardi. Ijtimoiy psixologiya, boShqaruv asoslari, menejment sohasida chop etilayotgan yangi davr adabiyotida rahbarlik sanhati va mahoratiga biznes manfaatlar nuqtai nazaridan yonlaShish anhanaga aylangan. Mahlumki, xorijiy mamlakatlarda boShqaruv ishlariga maShul bo'lgan kishilarni yuqorida tahkidlaganimizday «lider» deb ataShadi. Aynan Shu atama odamlar orasida yurib, obro' topgan, gapi, fikrlaShi, ish tutishi va o'zgalarga tafsir ko'rsata olishi bilan ajralib chiqqan Shaxs uchun ham qo'lllaniladi. SHu mahnoda Amerika Prezidenti ham lider, atrofiga bir norasmiy guruhi to'plagan xali hech qanday rasmiy maqomi

yo'q kimsa ham o'Sha unga ergaShuvchilar uchun lider hisoblanadi. Lekin amerikalik olma Linda Juellning «Industrialg'no-organizatsionnaya psixologiya» nomli kitobida boShqa bir olimlar Mants va Simslar tomonidan ishlatilgan yana bir tushunchada liderlik fenomeni yuqoriroq bosqichda o'rganilgan. Bu – «superlider» tushunchasidir.

Superlider kim va qachon oddiy lider superga aylanadi? Mants va Simslarning fikricha, eng yaxShi lider – bu «superliderdir». Bu Shunday Shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, bиринчи navbatda o'zлari uchun liderlarga aylantira oladi. Bundagi asosiy g'oya Shundan iboratki, agar odam eng **avvalo o'zi uchun lider bo'la** olsagina, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boShqalarga yetkaza olsagina, bu odam vaqtisi-saoti kelib o'zi boShqarayotgan jamoani o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boShqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmaydigan mexanizmga aylantiradi. Bu jarayonning subhekti - superliderdir.

Olimlar oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishini bir necha bosqichlarda kechaShini tahkidlaydilar:

I – bosqich: dastlab inson, yahni, bu o'rinda lider-rahbar o'zi uchun lider bo'lishi, yahni Shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish, hayoliy maShqlar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, Shaxs ekanligini, o'zida boShqalarga o'rnak bo'lувchi sifatlar borligini anglaShi va kamchiliklarini bartaraf eishga qodir bo'la boradi;

II – bosqich: lider yuqorida qayd etilgan o'zidagi fazilatlarning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, aynan Shunday sifatlar sohibi bo'lishning afzallik tomonlariga xodimlarni ishontiradi;

III – bosqich: xodimlariga o'zlarida taShabbaus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun Sharoit yaratadi, taShabbuslar ko'rsatilishini tinimsiz rag'batlantiradi;

IV – bosqich: mustaqil qobiliyat egasi bo'lgan xodimlarni rag'batlantirish, kerak bo'lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish yo'liga o'tib oladi;

V – bosqich: o'z-o'zini boShqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni taShkil etish va ishlarga xadeb aralaShaverishdan o'zini tiyish yo'lining afzalliklariga o'zini ishontiradi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib tahkidlaSh mumkinki, samarali boShqaruv – aslida ijtimoiy tahsirni amalga oShirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. SHu mahnoda, liderlik – avval Shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan tahsirida ko'rinaligan fazilatlar majmuidir, deb tahriflanadi.

Demak, superliderlik g'oyasining asosida yotgan muhim fazilat – bu rahbarning o'zgalarga taShabbuslarni namoyish etishlariga imkoniyat yaratishdir. TaShabbuslar ko'rsata olish va unga yaratilgan imokniyatlar haqida ham ilmiy adabiyotlarda ko'p yozilgan. Masalan, amerikalik maShhur psixolog Deyl Karnegining tahkidlaShicha, asr boShida amerika dollarida hisoblaganda yiliga bir milliondan ortiq daromadli boShqaruvchilar ikki kishi bo'lgan. Ulardan biri Uolter Kraysler va ikkinchisi – CHarlg'z SHveblardir. Amerika cho'yan quyish industriyasining yetakchilaridan bo'lgan Erdryu Karnegi SHvebga odamlarni yaxShi ishlatib, korxona daromadini keskin oShirib yuborganligi uchun kuniga uch ming dollar, yiliga bir million dollar to'lar ekan. Lekin ana Shu millionerning o'z esdaliklarida qoldirgan so'zлari ehtiborga loyiqidir: «Men cho'yan quyish borasida eng oddiy ishchidan ham no'noq edim, asosiy yutug'im – men o'zgalarni

boShqarishni bilganman. Mendagi eng noyob sifat – *odamlarda taShabbusni uyg'otish* qobiliyati edi. CHunki insondagi eng noyob, qimmatli narsani tan olish – uning taShabbusini qo'zg'atishdir». Endryu Karnegi esa umrining oxirida o'zining qabr toShiga «Bu yerda bir umr o'zidan aqliroq bo'lganlarni o'ziga bo'ysundira olgan inson yotibdi» deb yozib qo'yinglar deb vasiyat etgan. Demak, SHvebning rahbari ham o'z yo'lida xodimlar psixologiyasini yaxShi bilgan va ularga o'z vaqtida taShabbus ko'rsatish imkonini bera olgan kamtar Shaxs bo'lgan.

Demak, bozor iqtisodiyoti Sharoitida odamlar nima hisobiga samaraga erishish mumkinligi-yu, o'zidan nima talab qilinishini aniq bilsa, ular uchun mustaqil ishlaSh, ishga ijodiy yondaShish imkoniyati ko'proq bo'ladi va yangi asr odami o'zi uchun erkin faoliyat qonunan kafolatlanishini mahqul ko'radi.

SHu o'rinda barcha liderlarga xos bo'lган yana bir xislatni tahkidlaSh joiz. Bu ham bo'lsa, liderning obro'si yoki bahzan tarjimasiz ishlatiladigan ibora bor – avtoriteti. Liderning avtoriteti – bu kerak bo'lsa, qobiliyat. CHunki avtoritet unga mahlum amalda o'tirgani, mahlum sanktsiyalar, imtiyozlar, imkoniyatlarga ega bo'lgani uchun rasman berilgan bo'lishi mumkin. SHunisi borki, rahbar avtoriteti hamisha bir Shaxsning ikkinchi Shaxsga nisbatan hissiy-irodaviy tafsirini nazarda tutadi. Eng yomoni agar odamdag'i taShabbus bo'g'ilса, u o'z oldiga maqsadlar qo'ymaslikka o'rganib qolsa, u nafaqat xalq uchun qayg'urmaydigan, balki o'zining oilasi, yaqinlari, farzandlari uchun ham qayg'urmaydigan, ular taShvishlarini o'ylamaydigan bo'lib qoladi. Bugungi yangilanishlar Sharoitida milliy-madaniy anhanalarimizni hisobga olganda ham boShqaruvda gumanistik tamoyillarga keng yo'l ochish orqali fuqarolarda mustaqil fikr, fuqarolik pozitsiyasi, taShabbuskorlikning bo'lishi qanchalik ahamiyatli ekanligini yaxShi bilamiz. SHuning uchun ham yangi avlod rahbarlariga, boShqaruvchilariga qo'yiladigan talablar, ular xulqidan kutiladigan sifatlar jamiyatda sog'lom insoniy munosabatlarning barqarorlaShuvi, sog'lom raqobat va o'zaro bag'rikenglik, lekin ishda o'ziga va hamkasblariga nisbatan talabchanlikni taqozo etadi.

Rahbarlik sifatlari. Yuqorida aytib o'tilganidek, rahbarda tug'ma qobiliyat bo'ladi, deb ham aytib bo'lmaydi, ikkinchi tomondan, rahbar vaziyatga qarab, stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi, deb ham bo'lmaydi. Minglab Shaxs sifatlari ichida ko'plari rahbarlik uchun qulay va mahquldir. A.V.Petrovskiy ana Shunday ijobiy sifatlardan bir yarim mingini sanab chiqqan. Lekin ularning barchasini umumlaShtiradigan, albatta, bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat qobiliyatlar borki, o'Shalar haqida qisqacha to'xtalib, o'tmoq lozim.

Avvalo, har qanday rahbarda *intellekt* - aql-zakovatning mahlum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxShi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmosg'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlaSh xodimlari uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyat va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan boShqa yana muhim sifatlar borki, ular boShqarish ishining samarasiga ijobiy tafsir ko'rsatadi.

Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik taShabbuskorlik sifatlari. CHunki ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar orginal fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur.

Mustaqillik Shaxs qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Rahbarda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi, bu esa o'z navbatida rahbardi subhektiv talablar darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pincha rahbarning boShqalarga talabchanligi haqida gapiriladi. Lekin yaxShi rahbar o'z o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi kerak. O'z-o'zini baholaSh va Shu asosda boShqalarga nisbatan munosabatlardan tizimini ishlab chiqishi muhim bir omildir.

Har qanday rahbar uchun universal lozim bo'lgan xislatlardan yana biri uning tom mahnoda "ziyoli" bo'lishi yoki, boShqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishdir. BoShqliq o'zidagi madaniyatni avvalo, muomalada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmog'i lozim. **Muomala madaniyati** – bu o'rinni, aniq, qisqa, samimi gapirish sanhati va ikinchi tomondan, suhbatdoShni tinglaSh qobiliyatildir. CHunki, boShqliq bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan Shaxsiy ziddiyatlarning asosida yo tinglay olmaslik yoki gapni to'g'ri yo'sinda gapira olmaslik yotadi. O'zganining o'rniga tura olish, uning his-kechinmalariga Sherik bo'lish, empatiya hissining borligi, dialoglarda sabr-toqatlilik va boShqalar muloqot madaniyatining muhim tomonlaridir.

Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini **rejalaShtirish** qobiliyati rahbar uchun muhim bo'lgan talablardan biridir. CHunki rejalaShtirish asosida o'z-o'zini boShqara olish va boShqalarni taShqi faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda boShqara olishni tahminlovchi muhim psixologik xususiyat yotadi. RejalaShtirish – bu o'ziga xos kelajakni ko'ra olish qobiliyati, kelajak obrazi bo'lib, bu narsa Shaxsning qanchalik kamol topganligi va maqsadga intiluvchanliligining muhim belgisidir. Bu juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, u Shaxsning o'z diqqatini qanchalik omil tarzda boShqarishi, uni faqat muhim narsalarga qarata olishi, vaqtidan tez foydalana olish, ortiqcha ishlardan o'zini tiyish, qo'l ostidagilarga, imkonni boricha, ularning qobiliyatlariga qarab ish buyura olish va nihoyat, buyurgan ishni o'z vaqtida nazorat qilib, so'rab olish imkoniyati bilan bog'liq. O'z ishini puxta rejalaShtirish qobiliyatiga ega bo'lgan rahbar **realistik tafakkurga** ega bo'lmog'i, yahni har qanday Sharoitlarda ham o'Sha muammo yoki ishga taalluqli barcha alg'ternativ variantlardan eng to'g'risi va maqsadga muvofiq'ini tanlay oladigan, ishni to'g'ri taShkil eta bilgan, yahni eng kam kuch va vaqt sarflab ishni uddalay olgan, noaniq yoki tasodifiy vaziyatlarda ham ish taktikaksini to'g'ri yo'raltira oladigan odam bo'lishi kerak. Bundan taShqari, yaxShi rag'bar uchun oldida turgan ishning har bir alohida detallarigacha tasavvur qilib, uni amalga oShirishning barcha bosqichlari va vositalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati ham zarur. SHunday taqdirdagina u ishga dadil kirishishi, o'zgalarni o'z ortidan ergaShtirishi va ishlab chiqarishda yuksak ko'rsatkichlarga erishishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatlari ichida eng muhimi, tabiiyki, psixologik mahoratni talab etgan – **odamlar bilan ishlaSh mahoratidir**. Jamoa ahzolari bilan samarali ishlaSh uchun boShqliq ularning psixologiyasini, har bir ahzo psixologiyasini va guruh psixologiyasini yaxShi bilishi zarur, chunki "o'zgalar psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidir", - deb yozishgan edi ingliz olimlari. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada ham yaxShi vositasi – ijtimoiy psixologik trening uslubi borki, uning yordamida odamlar bilan ishlovchilar jamoani boShqarishning turli usullariga muvaffaqiyatli tarzda tayyorlanmoqdalar.

Ijtimoiy hayotda, Shaxslararo munosabatlarda ayrim alohida nizolar, o'zaro

kelishmovchiliklarni bo'lib turishi muqarrar. SHuning uchun bahzan olimlar ziddiyat yoki nizolarning nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlari ham bo'lishi mumkinligini ochiq ehtiroyf etadilar. Masalan, G. Andreeva ayrim ziddiyatlarning konstruktiv oqibatlari to'g'risida yozadi. Uning fikricha, bahzan ikki Shaxs o'rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda to'g'ri xulosa chiqarib, Shunday harakatni boShqa qaytarmaslikka, omilkorlikka, xuShyorlikka undaydi. Yoki bir qaraShda tanbehga assolangan Shaxslararo ziddiyat Shaxsni o'z ustida muttasil ishlaShga, o'z xulqini o'zi tuzatishiga sabab bo'ladi. Bunday nizolar oqibatida ko'ra **konstruktiv** deb ataladi. **Destruktiv** nizoning oqibati esa ko'pincha salbiy bo'lib, u Shaxslararo antogonizmni keltirib chiqaradi, tomonlarning asablari charchaydi, ular xastalanib qolishi ham mumkin. Yoki er va xotin o'rtasida, yohud qaynona va kelin o'rtasidagi nizo oila ajrimiga sabab bo'lishi va bir butun oila buzilib ketishi mumkin.

Ho'Sh, ijtimoiy psixologik fenomen sifatida nizo yoki ziddiyatga qanday tahrif berish mumkin?

Konflikt, nizo yoki ziddiyat – bu ayrim alohida olingan Shaxs ongida, yoki Shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o'zaro muloqot va tafsir paytlarida biror muammo, masala yoki qaraShlar borasida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, qarama-qarShi fikr, qaraSh va pozitsiyalarning to'qnaShuvi oqibati paydo bo'lgan salbiy hissiyotlarga to'la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy psixologik xodisadir.

Konfliktni keltirib chiqaruvchi omillar, sabablar nihoyatda ko'p, lekin ularni 5 asosiy guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. **Informatsion-axborot omillari**: muloqot jarayonida Sheriklarga noto'g'ri tarzda yetib keladigan noto'liq, noaniq faktlar, mish-mishlar; Shubhalar, to'la aniqlik kiritilmagan ataylab yoki bilmay turib deyarli xufyona tarzda yetkazilayotgan mahlumotlar; axborot manbaiga nisbatan ishonchning yo'qligi; ayrim xodisa, voqealarga aloqador bo'lgan tortishuv va klishmoqchiliklarga sabab bo'lgan qoidalar, aqidalar, chaqiriqlar, qonun normalari va boShqalar ham Shaxslararo yoki guruhlararo ziddiyatlarning omili bo'lishi mumkin.

2. **Jamiyat miqyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog'liq omillar**: mulkchilikka oid muammolar, ijtimoiy maqom talaShish, xokimiyyat yo'nalişidagi amal va xisobotlarga oid janjallar, turli ijtimoiy normalar, anhanalar, standartlar, xavfsizlik masalalaridagi qarama-qarShiliklar, rag'batlantirish va jazolaSh, uy-joy, mulk tortishuvlari, resurslar, tovar, xizmat va foydalar taqsimoti jarayonlarida kuzatiladigan nizolar;

3. **Qadriyatlarga aloqador omillar** (o'zimiz ehtiroyf etgan yoki rad etgan tamoyillar): jamoaviy, gruppaviy yoki Shaxsiy ehtiroyf, ishonmagan va ishongan qadriyatlarimiz va ularning xulqda namoyon bo'lishi, mafkuraviy, madaniy, diniy, axloqqa oid, siyosiy, professional qadriyatlar va ehtiyojlar borasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar;

4. **Munosabatlar omili**: bunday omillar bevosita o'zaro aloqalar va muloqotdan insonning qoniqishi yoki nomahqul, deb ehtiroyf etishidan kelib chiqadi. SHaxslararo o'zaro munosabatlarda ko'proq bir Shaxsning kutishlariga boShqa bir insonning yoki odamlarning muomalasi mos kelmasligi xolatlarida Shaxsiy nizolar kelib chiqadiki, ularning bartaraf bo'lishi turli vaziyatlarda turlicha tus olishi, cho'zilib ketganda, battar "gazzak" otishi, qisqa fursatda xal etilsa, muammo xal bo'lishi ham mumkin.

SHaxsiy muloqotdagi nizolar Shaxsning hayotiy tajribasi, mahlumotliligi darajasi, professional mahoratiga bog'liq ravishda turli ko'rinishlarda o'z yechimini topishi mumkin;

5. Xulq-atvor bilan bog'liq omillar: manfaatlar, qiziqishlar, o'ziga bo'lган bahoga zid keladigan yoki xavf-xatar tug'diruvchi vaziyat paydo bo'lishi bilan go'yoki, himoya vositasi sifatida paydo bo'luvchi omillar turkumi bo'lib, bu ikkinchi tomonning xudbinligi,adolatsizligi, maShuliyatsizligi yoki loqaydlik, beparvolik oqibatida kelib chiqadi. NizokaShlar bunday Sharoitda o'zlariga nisbatan bo'layotgan salbiy munosabatni xatti-harakatda ko'rib, sezib turganlari bois xaqqagarchilik kelib chiqadi va bu konflikt bilan tugaydi.

Konflikt yoki nizolar o'zaro munosabatlardagi odamlarning subhektiv xatolari sababli ham kelib chiqishi mumkinki, Shu nuqtai nazardan ham konfliktlarning turlari farqlanadi:

Shaxsning o'ziga aloqador bo'lган ichki nizolar – odatda bevosita ijtimoiy psixologiya tomonidan o'rganilmaydi, bu kabi nizolar umumiyligi, pedagogik hamda patopsixologiyaning predmeti bo'lib, u asosan bir inson qalbidagi turli hiskechinmalar, istak-hoxishlar va motivlarning bir biriga zid kelishi, qarama-qarShi fikrlarning paydo bo'lishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday nizo Shaxsgagina mahlum bo'l dai, bahzan esa odam qilib qo'ygan ishining aynan o'zining ichki nizolari oqibati ekanligini anglamaganda unga pisxoanalitik yoki patopsixolg yordamga keladi.

Shaxs va guruh o'rtasida sodir bo'ladi gan nizolar odatda bir Shaxs qaraShlari, hatti-harakatining u mansub bo'lган yoki ishi tuShgan guruhning normalari, xulq-atvor maromlariga zid kelishi, Shaxs kutishlarining guruh normalaridan og'ishi oqibatida kelib chiqadi. Agar bu mehnat jamoasida ro'y bersa, bu guruh ahzolarining malakasizligi yoki rahbarning odamlarni boShqarishdagi uquvsizligi natijasida kelib chiqishi mumkin. Demak, bunday jamoada psixologik, mahnaviy muhit nosog'lom bo'ladi, Shaxs bilan boShqa Shaxslar o'rtasida kelishmovchilikka olib keladi.

Guruhlararo ziddiyat yoki nizo - ikki yoki undan ortiq guruhlarning bir-birlari bilan murosaga kelisholmay qolgan taqdirda ro'y beradi va bunda ularning o'z maqsadlari erishishlariga bir-birlarining halaqit berishlari asosiy omillardan hiosblanadi. Ko'pincha muayyan formal, rasmiy guruh ahzolari guruhbozlikka berilib, har bir kichik guruh manfaatlari bir-biriga mos kelmay qolganda ham nizo kelib chiqadi. "Guruhbozlik" deb atalmish bunday xolat ham ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan zararli bo'lib, bu yaxlit jamoadagi mahnaviy muhitga jiddiy salbiy tahsir ko'rsatadi. Bahzan bir jamoa rahbariyati va rasmiy tizimi bilan guruh ichidagi norasmiy tuzilma o'rtasida ham nizo kelib chiqadi. Lekin bu holatlarni sog'lom raqobatga asoslangan manfaatlar kelishmovchiligi, masalan, siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobatdan farqlash lozim.

SHaxslararo nizo – bir yoki bir necha konkret Shaxslarning o'zaro yoki guruh doirasidagi ziddiyatidir. Bu keng tahrifalgan nizolardan biri bo'lib, bunday nizolar rasmiy jamoalarda ham norasmiy muloqotlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar odamlarning fehl-atvoriga ham, konkret vaziyatlarga ham bog'liq tarzda kelib chiqishi va vaziyatning xarakteriga bog'liq xolda turlicha kechishi mumkin. Keng tarqalgan Shaxslararo nizolardan biri – bu er va xotin, ota-onasi va

farzandlar, qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar hisoblanadi. Ularning tabiatini ham, davom etish muddati ham, xal bo'lish yo'llari ham turlicha bo'lib, har qanday ko'rinishda ham baribir bunday nizo ikki va undan ortiq Shaxslar o'rtasidagi psixologik masofani tobora uzoqlaShadiradi, samimiyatning kamayishiga olib keladi.

SHaxslararo nizolarning kelib chiqishi quyidagi xolatlarga bog'liq bo'ladi:

- mehnat jarayonlari va ishlab chiqarish vaziyatlariga;
 - jamoa ahzolarining Shaxsiy xususiyatlariga;
 - turli vaziyatlarga Shaxsning subhektiv munosabatiga;
 - SHaxslararo munosabatlarning turli vaziyatlardagi turlicha namoyon bo'lishiga.
- SHaxslararo nizo ochiq yoki yaShirish tarzda namoyon bo'lishi mumkin.

Ochiqdan ochiq yuz beradigan nizolar odatda tortishib qolgan Shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri, bevosita xatti-harakatlari tarzida namoyon bo'ladi. Bunday nizoni kuzatish, qayd etish va unga kerak bo'lsa, aralaShish ham mumkin bo'ladi. YaShirin nizo esa ochiq namoyon bo'lmaydi, balki u turli xufyona usullar bilan amalga oShiriladi. TaShqaridan qaragan odam bunday nizoning mavjudligini sezmaydi.

Bahzan nizolar obhektiv sabablar, Shart-Sharoitlar bois vujudga keladi. Masalan, agar bu ishlab chiqarishda bo'lsa – ish Sharotlarining yomonligi, xizmat vazifalarining noo'rin taqsimlanganligi, kadrlar salohiyatiga beehtiborlilik, mehnatni rag'batlantirishdagiadolatsizlik kabilar odamlar o'rtasida muayyan tangliklarni keltirib chiqaradiki, bu Shaxslararo o'zaro munosabatlarda o'z aksini topib, ularning o'zaro va xodimlarning rahbarlar bilan uruShib qolishiga, yaShirin yoki ochiq konfrontatsiyaga olib keladi. Bu kabi nizolarni bartaraf etish uchun uni keltirib chiqargan obhektiv Shart-Sharoitlarni o'zgartirish yoki kamchiliklarni yo'qotish orqaligina amalga oShiriladi. CHunki jamoadagi bunday nizolar o'ziga xos signal vazifasini bajaradiki, u orqali rahbarlar mehnat jamoasida nomahqul psixologik muhit paydo bo'layotganligidan xabardor bo'ladi.

Subhektiv sabablar yoki omillar tufayli kelib chiqadigan nizolarga aksariyat xolatlarda odamlarning o'zлari, ularning Shaxsiy xususiyatlari, ulardagi ehtiyoj, istak va maslaklarning nomutanosibligi asos bo'ladi. Bunda qaror qabul qiluvchining qarori boShqalarga nomahqul bo'lishi, ular mehnatiadolatsiz baholanishi, ayrim Shaxslarning esa ochiq tabiatian janjalkaSh ekanligi sabab bo'ladi.

Bundan taShqari, nizolar quyidagicha toifalanadi:

- **gorizontal** – bir-biriga bo'ysunmaydigan, tobe bo'limgan oddiy xodimlar o'rtasida;
- **vertikal** – o'zaro bir-biridan amal pog'onasi bo'yicha farq qiluvchilar, masalan, rahbar bilan xodim o'rtasida;

- **aralaSh** - Shaxslararo munosabatlarda u va bu xolat uyg'un kelganda. Odatda ishlab chiqarish faoliyatida eng ko'p tarqalgan nizo turi vertikal va aralaSh bo'lib, ular jami nizolarning 70-80 foizini taShkil etadi.

Nizolarning oldini olish yoki u paydo bo'lgan bo'lsa, bartaraf etish uchun uning kelib chiqish sababini, asosiy aybdorlarni yoki obhektiv sabablarni aniqlaSh lozim. Mutaxassislar nizolarni bartaarf etishning ko'plab usullari va yo'llari borasida tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Masalan, X. Kornelius va SH. Feyerlar uni xal qilish uchun **nizo xaritasini** tuzishni taklif etadi. Unga ko'ra, nizoli vaziyatni aniqlaSh uchun quyidagilar inobatga olinishi lozim:

1) nizoni keltirib chiqqan muammoning umumiylarini ochish, masalan, agar

- ishlab chiqarishdagi nizo ish xajmining to’la bajarilmaganligi sababli kelib chiqqan bo’lsa, avvalo ish taqsimoti diagrammasini tuzish kerak;
- 2) nizoning asl sababini aniqlaSh, zero, aynan Shu ish odatda eng muShkul ish hisoblanadi;
 - 3) nizoning haqiqiy ishtirokchilarini aniqlaSh – alohida Shaxsmi, guruhmi yoki uyuShmami;
 - 4) nizoga sabab bo’lgan Shaxsiy xohish, istaklar, nizokaShlarning aynan nimani istayotganligini aniqlaSh;
 - 5) nizoga qadar nizokaShlarning o’zaro munosabatlari qanday bo’lganligini bilish;
 - 6) bevosita nizoda ishtirok etmagan, lekin uning ijobiy xal etilishidan manfaatdor bo’lgan shaxslarning nizoga munosabati.

Bu kabi strategiya avvalo nizoning chuqurlashib ketmasligi, unga yana ko’plab shaxslarning aralashib ketmasligini tahminlaydi.

Tabiiy, mutaxassislar va olimlarni Shaxslararo munosabatlar jarayonida turli vaziyatlarda paydo bo’ladigan nizolarni barataraf etish masalasi qiziqtiradi. Rus olim G.N Smirnov turli nizolarni bartaraf etishga imkon beruvchi ikki guruh usullarni taklif etadi – tizimiy hamda shaxslararo.

Nizolarni xal qilishga bog’liq bo’lgan tizimiy usullarga u quyidagilarni kiritadi:

- 1) *ishga nisbatan qo’llaniladigan talablarni tushuntirish*, masalan, ishchi yoki xodim o’z xizmat vazifasini to’laqonli ado etolmaganligi sababli u bilan rahbar o’rtasida nizo kelib chiqqan bo’lsa, nizoni barataraf etishga axd qilgan ikmsa Shu xizmat lavozimiga qo’yiladigan talablar, xodimning mehnat huquqlari bilan qatorda uning burch va maShuliyatini ham yana bir marotaba uqtirib qo’yadi;
- 2) *muvofiglaShtiruvchi va birlaShtirish usullari*. Odatda bir xodimning ish samarasi boShqa bir xodimga yoki xodimlarga, qolaversa, boShqa tuzilmalarning aniq va yaxShi ishlaShiga bog’liq bo’ladi. SHuning uchun bir xodim yoki xodimlar guruhida nizoli vaziyatning paydo bo’lishiga boShqa bir tuzilma ishidagi nomuvofiqliklar sabab bo’lishi mumkin. Bunday Sharoitda rahbar nizoni barataraf etish uchun o’Sha boShqa aybdor tuzilmaning faoliyatini aniq yo’lga qo’yishi, yoki xodimlar o’rtasida murosa bo’lishi uchun boShqa bir qo’Shimcha muvofiglaShtiruvchi bir bo’g’inni ishlab chiqarishda joriy etishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish nizosining sababi – xom aShyoning vaqtida yetkazib berilmayotganligi bo’lsa, rahbar tahminotchilar ishini muvofiglaShtiradi, ular faoliyati bilan ishlab chiqaruvchilar o’rtasida birlik va hamjihatlik bo’lishiga erishish yo’lida aniq yo’nalishlarni belgilaydi;
- 3) *barcha ishlab chiqarish subhektlari faolyaitini yagona maqsad atrofida birlaShtrish* ham ishlab chiqarish jarayonlarida nizolarning sodir etilmasligini kafolatlaydi. Bunday Sharoitda rahbarlar va guruh liderlarining roli katta bo’ladi;
- 4) *rag’batlantirish tizimini joriy etish* samarali ish usullaridan hisoblanadi. Bunday Sharoitda odamlarning xulq-atvoriga tahsir etish, paydo bo’lishi mumkin bo’lgan nizoli vaziyatlarga barham berish yoki sodir bo’lgan bo’lsa, uni barataraf etish uchun taShakkur bildirish, mukofotlaSh, xizmat lavozimni ko’tarish kabilarni qo’llaSh ijobiy samara berishi mumkin.

Nizolarni bartaraf etishning **shaxslaro munosabatlarga aloqador usullariga** quyidagilar kiradi:

- 1) *bosh tortish* – nizoga nisbatan shunday reaktsiyaki, bunda nizoga guvoq bo’lganlar aslida uning mavjudligini tan olmaydilar, unga aralaShishdan boSh tortadilar. Odatda bunday sharoitda rahbar yo ayni paytda vaqt yo’qligini, imkoniyat yo’qligini, nizoning sababi arzimas xolat ekanligini vaj qilib, uni xal qilishga aralaShishdan boSh tortadi. Yoki u vaziyat taqozosi bilan paydo bo’lgan nizo vaqt o’tishi bilan o’z o’zidan yechimini topadi, odamlar insofga kelib qolishiga umid qiladi;
- 2) *tekislash* – bu nizolashuvchi tomonlardan birini mavjud xolatga “ko’ndirish”, moslaShtirish va Shu yo’l bilan o’zining ham muayyan manfaatlarini himoya qilishdir. “Mayli men yutqazsam ham, sening ishing bitib keta qolsin” degan naqlida nizoga aralaShgan Shaxs vaziyatni yumshatishga erishadi, go’yoki “o’zni qurbon qilib” bo’lsa ham tomonlarning yarashib ketishi uchun barcha imkoniyatni yaratadi;
- 3) *kompromiss* – bu ochiq muloqot va vaziyatni, nizokaShlarning xulq-atvori va fikrlarini muhokama qilish yo’li bilan ikkala tomon uchun ham mahqul bo’lgan yechimni qidirishdir. Bu usulning samaradorligi shundaki, nizoga aralashgan Shaxs ikkala tomonning ham aybini, ular tomonidan yo’l qo’yligan xatolarni ochiq, xolis o’rtaga taShlaydi va eng mahquli – o’ar bir Shaxs o’z burch va maShuliyatlarini taroziga solib olishlari ekanligini uqtiradi. Natijada ikkala tomonda xosil bo’lgan tanglik mahlum mahnoda yumShaydi va oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyati tug’iladi. NizokaShlar janjal bo’lgandan ko’ra yomon bo’lsa ham bir qarorga kelinganligidan xursand bo’lib, o’z fikrlaridan mahlum mahnoda qaytadilar, vaqt o’tgach esa vaziyat umuman yumShab, tomonlar yaraShib ketishi mumkin. Odatda oilaviy nizolarda kompromiss yo’lini tutgan oilaning katta ahzosi yoki erkak kishi nizoning oldini olishga erishadi, bunda biror tomonning “bir gapdan qolishi” katta rolg’ o’ynaydi;
- 4) *raqobat* – odatda bir tomonning ikkinchisi ustidan ustun kelishi hisobiga boShqasining batamomo yengilishini nazarda tutadi. Yahni, bunda “Men yutishim uchun sen mutloq yengilishing Shart” degan tamoyil ustivor bo’ladi. Bunday usul albatta, psixologik nuqtai nazardan samarasiz va noto’g’ri bo’lsa ham, ayrim xolatlarda masalaning aynan Shu tarzda yechilishi boShqalarning iqtidori yoki irodasining kuchayishiga sabab bo’lishi mumkin. Masadan, oilaviy majoroda kelin agar nohaq bo’lib, yoShligi tufayli arazlab, barchaning dilini xira qilishi va uShbu vaziyatda baribir qaynonaning sabr bilan ustun kelishi, baribir aytganini qildirishi yoSh kelinchakning kelgusini Shu kabi xatti-harakatni boShqa qaytarmasligi uchun saboq bo’lishi mumkin;
- 5) *hamkorlik* – bu nizoni xal qilishning Shunday usuliki, bunda ikkala tomonning Shaxsiy manfaatlari nizoni keltirib chiqaragan muammodan ustun qo’ylidi. Bunday xolatlarda nizokaShlar bir tomon manfaatining inobatga olinmasligi, ikkinchi tomonning boShqa manfaatini yerga urishini tuShungani uchun ham murosa yo’li to’g’ri ekanligi, yaxShisi mavjud muammoni yechishga teng kirishish lozimligi fikriga kelib to’xtaydilar.

SHunday qilib, real hayotda nizoning kelib chiqishi, uning qanday kechishi va yechimi uni keltirib chiqargan vaziyatdan ham ko’ra, uShbu vaziyatda ishtirok etayotgan insonlarning unga nisbatan subhektiv munosabatlariga bog’liq bo’ladi. SHuning uchun ham har qanday nizoli, ziddiyatli xolatlarda unga aloqador bo’lib qolgan insonlar quyidagi qoidalarni yodda tutishlari lozim:

1. Nizoli vaziyatda aql emas, balki hissiyotlar ustun bo'lishini unutmang, hissiyotlar esa odamning jahli chiqib, aqli ketib qolishiga turtki bo'ladi va u o'z xattiharakatlari va gapirayotgan so'zlarini nazorat qilish qobiliyatidan mahrum bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan Shu qilgan ishingiz uchun o'zingiz qattiq aziyat chekib, xijolat bo'lib qolishingiz mumkin. SHu bois ham ishdami, oiladami yoki jamoatchilik joylaridami odamlar bilan muloqot qilganda, ularning insoniy nafsoniyatiga tegadigan, Shahni va oriyatiga tegib ketadigan mulohazalardan o'zingizni saqlang, o'zingizni o'zgalardan ustun qo'yishdan ehtiyot bo'ling, kamtarlik Shioringiz bo'lsin.

2. O'zgalar bilan muomalada ularning hurmatini joyiga qo'yib, so'zlaShishning yumShoq maromini tanlang. Masalan, "Kechirasiz..", "Sizdan minnatdor bo'lardim, agar...", "Sizga malol kelmaydim?" kabi iboralarni ishlatish odatga sizga nima sababdandir yomon munosabatda bo'layotgan insonni ham yumShatadi, undagi salbiy hislarning junbuShga kelishiga yo'l qo'ymaydi.

3. Ish faoliyat bilan bog'liq munozaralarda agar suhbat taranglaShib borayotgan bo'lsa, ikkala tomonning manfaati to'g'risida emas, asl masalaning, muammoning mohiyati xususida kechishiga ehtibor berib, xolis faktlarga ko'proq urg'u bering. Imkon boricha suhbatdoShni tinglaShga intiling, zero, tinglaSh olish mahorati sizning yaxShi suhbatdoSh ekanligingizning muhim ko'rsatgichidir. Bu o'rinda Deyl Karnege kabi muloqot ustalarining tajribasini eslang.

4. Har qanday masala xususida uning yechimi yagona bo'lmasligini unutmang, chunki barcha xolatlarda qiyin vaziyatdan chiqishning bir qator usullari, yo'llari bo'lishi tabiiy. SHuning uchun Sizning fikringizga zidroq kelayotgan fikrni suhbatdoShdan eShitganingizda, "Balki men xato qilayotgandirman" deb uning fikrlaSh tarzidagi to'g'ri mulohazalarni tahlil qiling, uning fikridagi ijobiy va salbiy jihatlarni ajrating, ularning real oqibatlariga baho berib ko'ring. Bunday xolatlarda hech bo'limganda "Men Sizning fikringizga to'liq qo'Shilmasamda, bergen taklifingizni albatta o'ylab ko'raman, menga biroz imkon bering" desangiz olam guliston!

5. Nizoli vaziyatning xal bo'lishining o'zingiz uchun manfaatli tomonlarini anglang va o'zingizga Shunday savol bering: "Agar yechim topilmasa, nima bo'ladi?". Bunday munosabat nizoni Shaxslararo munosabatlardan muammoning yechimiga turtki bo'ladi.

6. Agar suhbatdoSh ikkalangiz ham achchiqlanib turgan bo'lsangiz va ish uruShib qolishgacha borib yetayotganligini anglasangiz, o'zingizdagi ichki tanglikni, "zarda"ni chiqarib yuborishga harakat qiling. CHunki agar achchig'ingizni taShqariga chiqarsangiz, bu u tomonning ham qaynab ketishiga sabab bo'lib, vaziyatni nazorat qilib bo'lmay qoladi. Eng yaxShisi, o'zingizni tiyib, gapirishdan to'xtang, mayli suhbatdoShingiz ichidagi to'kib solaversin, undagi jahl va salbiy hissiyotlarni betiga aytishdan o'zingizni tiying, kelgusida uning Shunday vajohatga tuShishi mumkinligini unutmang.

7. Siz bilan uruShib qolgan odamning ham qandaydir fazilatlari, yaxShi sifatlari borligini unutmang va diqqatingizni ana Shu jihatlarga qarating. Masalan, er va xotin uruShib qolgan paytda ayol qanchalik baland ovozda o'z dardini to'kib solayotganligiga qaramay, uning farzandlarning onasi, mehribon ekanligini, ularga Shunady qiliqlar qilmasligini er yoddan chiqarmasa bas.

8. SuhbatdoShingizga sizning o'rningizga turib, masalani xal qilish yo'lini

o'ylaShga chorlang, masalan, unga taxminan Shunday murojaat qiling: "Meni o'rnimda bo'lganingizda siz nima qilgan bo'lar edingiz?" Bunday murojaat suhbatdoShni hissiyotlardan real vaziyatni xolis baholaSh maqomiga o'tishiga asos bo'ladi va unda tanqidiy ruhni biroz bo'lsa-da, yumShatadi.

9. SuhbatdoSh oldidagi afzalliklaringiz, xizmatlarinigizni minnat qilib, xaspo'Shamang. Sodir bo'lgan nizoli vaziyat va voqeanning sababchisi faqat suhbatdoShingiz ekanligi fikridan qayting.

10. Paydo bo'lgan ziddiyat qanday hal bo'lishidan qathiy nazar, Shu inson bilan batamom munosabatlarni uzil-kesil uzib taShlamang. Masalan, agar bu er va xotin o'rtasidagi ixtilof bo'lib, u ajrim bilan tugagan taqdirda ham o'rtada farzand borligini, baribir hayot so'qmoqlarida bir kun bo'lmasa bir kun uchraShib, qandaydir yangi bir muammoni birgalikda xal qilishga to'g'ri kelishini sira unutmang.

SHu kabi vaziyatlar turli faoliyat jabhalarida uchraShi mumkin, yuqoridagi qoidalarni unutmaslik insonning o'ziga, salomatligiga, odamlar orasidagi obro'siga bevosita aloqador ekanligini, yaShaSh bahzan ziddiyat va nizolar bilan yanada yaxShi bo'lishini hech kim unutmasligi kerak.

BOSHQARUV PSIXOLOGIYA FANIDAN GLOSSARIY

Affekt (latincha affectus – ruhiy hayajonlanish, qiziqish) qisqa muddatda va Shiddat bilan sodir bo‘ladigan hissiy, hayajonli jarayon: hulq-atvor, hatti-harakat ustidan nazoratning susayishi tufayli ro‘y beradigan kuchli his-tuyg‘u (g‘azablanish, qo‘rqish, nafratlanish, Shodlanish). Mutaxassislar normal va ‘atologik affektlar borligini, Shuningdek, affektiv reaktsiyalarga ozroq yoki ko“roq moyil bo‘ladigan Shaxslar ham bo‘lishini ta‘kidlaShadi. O‘zida affektiv reaktsiyaga nisbatan hislarga erk bemaslik insondagi normal ‘sixik holat hisoblanadi. Affektlar ta’siriga beriluvchi kishilar odatda olomon orasida sarosimalik uyg‘otishga moyil bo‘ladilar.

Anglash – ‘sixik mazmunni ongsizlikdan aktiv belgi Shakliga ko‘chirishdan iboart ‘sixik jarayoni bo‘lib, bu mazmunni boShqa kishilarga etkazib berish imkonini beradi. Anglamoq o‘ziga xabar bermoq, o‘z tajribasi hisiyoti, ehtiyoji, qiziqishi va b. to‘g‘risida o‘ziga tuShuntirish demakdir. AnglaSh demak nimadir to‘g‘risida o‘zo‘ziga hisob berishdir. Sub'ektiv holda u yoki bu vaziyat, kechinma va boShqalarni aniq-ravShan va nazorat qilinadigan in'ikosidir.

Amaliy psixologiya – ijtimoiy amaliyotning turli sohalaridagi amaliy vazifalarni hal qilishda foydalilaniladigan amaliy bilimlar va texnologiyalar majmuasidir. Amaliy psixologiyaning muhim xususiyati Shundaki, u yoki bu vazifalar ularning manfaatlari uchun hal etilayotgan iste'molchi yoki buyurtmachini hamisha ko‘rsatish mumkin.

Aql – insonning ma'naviy va ruhiy faoliyatida barcha oliy narsalar xodiaslarni qanday bo‘lsa, aynan Shunday xolda bilish qobiliyati, mavxum fikrlaSh va tushunchalar yaratish xususiyati.

Ahloq - ijtimoiy ong Shakllaridan biridir. Kishilarning tarixan tarkib to‘gan hulq – atvori, yurish – turish, ijtimoiy va Shaxsiy xayotga o‘zaro, Shuningdek jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqarormuayyan norma va qoidalar yig‘indisi.

Attraktsiya – (lotincha so‘z – attrahere –yoqtirish, o‘ziga jalb etish) – bu bir insonning boShqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yoqishi va yoqtirish, o‘zaro mobillikni tuShuntiruvchi emotisional hisdir.

Aloqa – makon yo vaqtida bir – biridan muayyan masofada uzoqlikda joylaShgan ikki yoki bir necha hodisa yo ob'ektning o‘zaro bog‘lanish xodisasi.

Agleratsiya – olomon

Bilish – olamning inson ongidagi in'ikos etish jarayoni . inson o‘zini qamrab olgan atrof – muxit to‘g‘risida bilish va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan Shug‘ullana olmaydi. Bilishning maxsuli natijasi bilim bo‘lib, xar qanday kasbni egallaSh faqat bilim orqali ro‘y beradi.

